

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

AZIMOVA FERUZA PAYZIYEVNA

«SOLIQ VA SOLIQQA TORTISH»
fanidan
O'QUV QO'LLANMA

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi
tomonidan "Marketing" va "Buxgalteriya hisob va audit" ta'lif
yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan.*

Toshkent-2022

УО`К-336.22.(075.8)

КВК-65.261.4ya73

F.P.Azimova Soliq va soliqqa tortish. O'quv qo'llanma. - Toshkent.: “___” 2022 y.- 284 bet

Ushbu o'quv qo'llanmada soliqlarning iqtisodiy mohiyati, ahamiyati, zarurligi, funksiyalari, soliq tizimi, soliq tizimining tarkibiy tuzilishi, yuridik va jismoniy shaxslarni soliqqa tortish masalalari o'z aksini topgan.

Shuningdek O'zbekiston Respublikasi soliq tizimi, yuridik shaxslarni soliqqa tortish mexanizmi, jismoniy shaxslarni soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlariga e'tibor qaratilgan.

O'quv qo'llanma 5230400-“Marketing” va “Buxgalteriya hisobi va audit” ta'lim yo'naliшlaridagi bakalavrlar, magistrleri, moliya va soliq mutaxassislar, bank hodimlari, buxgalterlar, auditorlar, professor-o'qituvchilar va ilmiy tadqiqotchilarga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

D.T.Yusupova – i.f.n, dotsent

Z.A. Pardaeva – dotsent

Ф.П.Азимова. Налог и налогообложение. Учебное пособие.–Ташкент, 2022 г. 284 с.

В данном учебном пособии раскрываются особенности налогов, вопросы налогообложения юридических и физических лиц.

Большое внимание уделяется налоговой системе Республики Узбекистан, механизму налогообложения юридических лиц, особенности налогообложения физических лиц.

Учебное пособие предназначено для бакалавров по направлению образования 5230400-“Маркетинг” и “Бухгалтерский учёт и аудит”, а также для специалистов по финансам и налогам, банковских служащих, бухгалтеров, аудиторов, профессоров-преподавателей и соискателей.

Рецензенты:

Д.Т. Юсупова –к.э.н, доцент

З.А. Пардаева – доцент

F.P.Azimova. “Taxes and taxation”. Manual.Tashkent.: 2022, - 284 r.

The book contains the economic importance of taxes, their significance, necessity, functions, the tax system. The text book also reviews the main directions main issues on taxation of legal entities and individuals.

The taxation system of Uzbekistan, the mechanism of legal entities taxation, the characteristics of taxation of individuals, and the importance of tax reforms in economic development of our country is emphasized and analyzed in detail.

The study guide in the direction 5230400 – “Marketing” and “Accounting and auditing” is intended for bachelors and master's degrees, for specialists in financing and taxation, bank employees, accountants, auditors professors-teachers and applicants.

Reviewers:

D.T. Ysupova– c.e.r., senior lecturer –

Z.A. Pardaeva– c.e.s., senior lecturer –

KIRISH

«*Soliq xizmati–insofli soliq
to’lovchilarning ishonchli hamkorī*»

O’zbekiston Respublikasida aholining turmush darajasini to’xtovsiz oshirib borishi, iste’mol bozorini barqarorlashtirish, O’zbekiston Respublikasining iqtisodiy jihatdan jadal sur’atlar bilan rivojlanishi va jahon hamjamiyatiga qo’shilishi yuzasidan muhim qadamlar qo’yildi. Bu borada davlatning iqtisodiy, ayniqsa soliq siyosati va soliqning roli katta ahamiyatga ega. Iqtisodiy munosabatlar davrida soliq, yig’imlar va bojxona to’lovlarini o’z vaqtida to’lanishini amalga oshirish davlat byudjetining daromadlarini shakllantirishida muhim rol o’ynaydi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 iyundagi PF-5468-sonli “O’zbekiston Respublikasining Soliq siyosatini takomillashtirish Konsepsiysi to’g’risida” gi Farmonida Soliq yukini izchillik bilan kamaytirish, soliq solish tizimini soddallashtirish va soliq ma’muriyatçiligini takomillashtirish, iqtisodiyotni jadal rivojlantirish hamda mamlakatning investitsiyaviy jozibadorlikni oshirishga e’tibor qaratilgan¹.

2017-2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan soliq yukini kamaytirish va soliq solish tizimini soddallashtirish, soliq ma’muriyatçiligini takomillashtirish vazifalarini amalga oshirish maqsadida, soliq siyosatining samarali yurgizilishi ko’p jihatdan uni huquqiy bazasining mustaxkamligiga bog’liq. Bunda soliq siyosatiga oid soliq qonunchiligi muxim o’rin tutadi. O’zbekiston Respublikasi soliq siyosatining xuquqiy asoslari sifatida 1991 yil 31 avgustda qabul qilingan O’zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to’g’risidagi qonuni, O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O’zbekiston

¹ O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 iyundagi PF-5468-sonli “O’zbekiston Respublikasining Soliq siyosatini takomillashtirish Konsepsiysi to’g’risida” gi Farmoni

Respublikasining Korxonalar, tashkilotlar, birlashmalardan olinadigan soliqlar to'g'risidagi (1991 yil 15 fevral), O'zbekiston Respublikasining fuqarolari, ajnabiy fuqarolar va fuqaroligi bo'limgan shaxslarning daromad solig'i to'g'risidagi (1991 yil 15 fevral), Mahalliy soliqlar va yig'imlar to'g'risidagi (1993 yil 7 may) Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va Vazirlar Mahkamasining Qarorlari kabi me'yoriy xujjatlarini qayd etish mumkin. 1997 yilda va 2019 yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Yangi Soliq Kodeksi va O'zbekiston Respublikasining Davlat soliq xizmati to'g'risidagi qonuni mazkur qonun hujjatlarining huquqiy bazasini yanada kengayishiga xizmat qildi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida fuqarolarning soliqlar, yigimlar va boshqa majburiy to'lovlarni o'z vaqtida to'lash majburiyatlari ko'rsatilgan. Unda shunday deyilgan: Fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va yig'imlarni to'lashga majburdirlar.²

Soliq muayyan iqtisodiy maqsadlarni ko'zlashdan tashqari jamiyatning ijtimoiy tarkibiga ta'sir o'tkazish imkoniyatini yaratadi, ular vositasida aholining daromadalari darajasi boshqarib turiladi. Aholini kam ta'minlangan va yordamga muhtoj tabaqalarini himoyalangan holda juda ko'p daromad oluvchi tabaqalar daromadlarining salmoqli qismi byudjetga jalb etib boriladi.

Iqtisodiyot real sektori tarkibidagi tarmoqlarning rivojlanish istiqbollarini belgilashda soliqlar va soliqqa tortishning qanday rol o'ynashi mumkinligi soliqlarning paydo bo'lishi va ularning amaliyotda qo'llanilishining dastlabki kunlaridanoq o'zini namoyon etib kelmoqda. Misol uchun, bobomiz sohibqiron Amur Temurning quyidagi fikricha "...kimda kim biror sahroni obod qilsa yoki koriz (yer ostidan qurilgan ariq) qursa, yo biron bir bog' ko'kartirsa, yoxud biron xarob bo'lib yotgan erni obod qilsa, birinchi yili undan hech

² O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. "O'zbekiston" NMIU, 2015y. 51-modda.17-bet

narsa olmasinlar, ikkinchi yili raiyat o'z roziligi bilan berganini olsinlar, uchinchchi yili esa qonun qoidaga muvofiq xiroj olsinlar".³

Yuqorida keltirilgan fikr korxonalar taraqqiyot istiqbollarini belgilash bilan soliqlar va soliqqa tortish masalalari o'rtasida qanchalik bog'liqlik borligini yaqqol ko'rsatmoqda.⁴

Klassik siyosiy iqtisodning namoyondalari bo'lган A.Smit va D.Rikardolarning asarlarini o'rganish ham alohida ahamiyatga ega. Chunki soliq va soliqqa tortish masalalari o'rtasida bog'liqlikning qanchalik muhimligi hozirgi paytda ham o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q.

Bu borada soliq va soliqqa tortish masalalarini tadqiq etishda O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar ham munosib hissalarini qo'shmoqdalar. Jumladan, Jo'raev A.S., Malikov T.S., Jalolov I.E., Yahyoev Q.A., Haydarov N.H., Toshmurodova B.E. va ko'pgina iqtisodchi olimlarning darslik, o'quv qo'llanma hamda ilmiy ishlarida Respublikamiz soliq tizimining rivojlanishiga salmoqli hissalarini qo'shganlar. Iqtisodiy taraqqiyot va uning yuqori sur'atlarini ta'minlash maqsadida soliq yukini kamaytirish, imtiyozlar tizimini kengaytirish, soliq stavkalarini pasaytirish, soliqqa tortiladigan aylanmani qisqartirish va shu kabi dolzarb muammolarni yechimi o'z aksini topgan.

Soliq sohasidagi islohotlarning zarurligi faqat iqtisodiy qayta qurishlar bilan emas, balki siyosiy munosabatlarning tubdan o'zgartirilishi, demokratik tizimlarning vujudga kela borishi bilan ham ifodalananadi.

"Soliq va soliqqa tortish" fanini o'rganish jarayonida talabalar soliq va majburiy to'lovlarni mazmun-mohiyatini bilishlari, ularni hisoblash va budjetga o'tkazish tartiblarini bilishlari, soliq sohasidagi axborotlarni yig'ish, shu bilan birga rivojlangan mamlakatlarni soliq siyosati va soliqqa tortish tizimi tajribalarini o'rgangan holda, iqtisodiyotimiz ravnaqi uchun ularni oqilona qo'llash, takomillashtirishga oid ko'nikmalarga ega bo'lish, ular uchun umumiyl

³ Temur tuzuklari. –T; G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1996 y. 122-123 betlar

⁴ Malikov T.S., Jalilov P.T Byudjet-soliq siyosati.- T; "Akadem nashr", 2011y. 408 bet

asosga ega bo'lgan soliq tamoyili, soliq tizimi va shart-sharoitlarini puxta egallangan bo'lishi zarur. Talabalar ushbu fanni o'zlashtirish orqali soliqning mamlakat yuksalishining va aholi farovonligi oshishining moliyaviy-iqtisodiy asosi ekanligini tushunib yetadilar. Natijada, talabalarda vatanparvarlik, kelgusida o'z korxonasi va jamoasiga sadoqatlilik hissiyotlarini kuchaytirish imkoniyatini yaratadi.

Ushbu o'quv qo'llanma ta'lim tizimida soliq sohasidagi bilimlarini o'rgatishga respublikamizda amalga oshirilayotgan soliq sohasidagi islohotlarni talabalarga yetkazish, ushbu ta'lim yo'nalishlari uchun istiqbolli dasturlarni ishlab chiqish, o'quv qo'llanmalar va darsliklar tayyorlash, soliq sohasidagi xorijiy soliq tizimidagi amal qilinayotgan usullar, ilg'or pedagogik texnologiyalarni ta'lim tizimida tadbiq etishni amalga oshirish mamlakatimiz e'tiborida bo'lgan asosiy vazifalardan hisoblanadi.


O'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasining "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi qonuni, "Yangi soliq kodeksi", O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari hamda boshqa soliq qonunchiligiga oid me'yoriy hujjatlar asosida tayyorlandi.

O'quv qo'llanmaning har bir bobining oxirida yuridik va jismoniy shaxslarni soliqqa tortishga, soliqlarning huquqiy asoslarini qamrab olishga harakat qilingan test savollari, topshiriqlar, nazorat savollari keltirilgan. Ushbu test va nazorat savollari va topshiriqlar talabalarni o'zlarining ustida yanada ko'proq ishlashlariga, fanni chuqurroq o'rganishga yordam beradi degan umiddaman.

I BOB. O'ZBEKISTONDA SOLIQLARNING TUZILISH ASOSLARI

Reja:

- 1.1. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimi va uning tarkibi.
- 1.2. Soliqlar va boshqa majburiy to'lov larning elementlari hamda soliq stavkalarining turlari.
- 1.3. O'zbekiston Respublikasining soliq siyosati.
- 1.4. Soliq mexanizmi tushunchasi va tarkibi.



Tayanch so'z va iboralar: soliqlar va soliqqa tortish, soliq tizimi, soliq siyosati, yuridik shaxs, jismoniy shaxs, to'g'ri soliqlar, egri soliqlar, inflyatsiya.

1.1. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimi va uning tarkibi


Soliq tizimi mohiyati jihatidan bir xil bo'lган va markazlashgan pul fondiga tushadigan soliq turlarining yig'indisidir.

Qonun chiqaruvchi idoralar tomonidan belgilangan va ijrochi idoralar tomonidan undiriladigan soliqni tashkil etish usullari, elementlari va tamoyillari majmuiga soliqqa tortish tizimi deb ataladi. Bunda tizim iqtisodiy kategoriyanı o'rganish hamda soliq undirishni tashkil qilish masalalarini o'z ichiga oladi. Bu tizimning roli va strukturasi jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy tuzumi bilan aniqlanadi. O'zbekiston Respublikasining soliqqa tortish tizimi o'z mazmuniga ko'ra soliq elementlari, ularni tashkil qilish tamoyillari va usullarini o'rganishdir.

Bir xil mohiyatga ega va o'zaro munosabatda bog'liq bo'lган markazlashgan pul fondini va davlatning boshqa fondlarini majburiy tashkil etadigan soliq va yig'imlar turlarining yig'indisiga "Soliq tizimi" deb ataladi. Bu ta'rifda soliq va yig'imlar yagona mohiyat, ya'ni majburiy xarakterga ega bo'lган munosabat va ularning bir biri bilan bog'liqligi va nihoyat byudjetga tushishligini ko'rsatadi.

Bu O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi (yangi tahriri) mazmuniga mos keladi. Soliq siyosati va soliq mexanizmi jamiyatda

soliqlarning o'rnini aniqlab beradi va bu narsa davlatning faoliyati bilan uzviy bog'langandir.




1-rasm. Soliqlarning ijtimoiy va moddiy mazmuni.

Ularning har ikkalasi doimiy harakatda bo'lib, davlatning iqtisodiy siyosatiga bevosita bog'liq bo'ladi. Yangi iqtisodiy konsepsiyalarga muvofiq ravishda soliq siyosati va soliq mexanizmi qayta ko'rib chiqiladi.

Umum davlat soliqlari hamda mahalliy soliqlar va yig'imlar, ularni o'rnatish, o'zgartirish va bekor qilishning prinsip, shakl va

metodlari, to'lash va ularning to'lanishini ta'minlash bo'yicha choralarni qo'llash, soliq nazoratini amalga oshirish, javobgarlikka tortish va soliq qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlik choralari majmuiga soliq tizimi deyiladi.



2-rasm. Soliqlarning ta'rifi

Zamonaviy soliq tizimi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollarini hisobga olgan holda bozor munosabatlarining talablariga asoslanadi.

Byudjet daromadlarini shakllantirishda soliqlar hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan

mablag'lar bir qismining davlat ixtiyoriga majburiy va qaytarilmaydigan tarzda o'tkazuvchi to'lovlarga soliqlar deyiladi. Ular mamlakat milliy daromadining bir qismi bo'lib, byudjet tizimining barcha bo'g'inlari bo'ylab jalb qilinadi, qonunga muvofiq oldindan belgilangan miqdorda va muddatlarda davlatning ixtiyoriga borib tushuvchi yuridik va jismoniy shaxslarning majburiy to'lovlardan iboratdir. Soliqlarsiz davlat faoliyat ko'rsata olmaydi. Chunki ular bozor munosabatlari va xususiy mulkchilik hukmronligi sharoitida daromadlarni byudjetga jalb qilishning asosiy metodi bo'lib hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida amalda bo'lgan, Soliq Kodeksida nazarda tutilgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar tizimi quyidagi jadvalda keltirilgan. (1.1.1- jadval)

1.1.1- jadval

O'zbekiston Respublikasida amalda bo'lgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar tizimi Umumdavlat soliqlari⁵

Nº	Soliqlarning turlari	Respublika byudjeti	Mahalliy byudjet
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i;		
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;		
3	Qo'shilgan qiymat solig'i		
4	Aksiz solig'i		
5	Yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar;		
6	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;		

1.1.2- jadval


Nº	Soliqlarning turlari	Respublika byudjeti
1	Mol-mulk solig'i;	
2	Yer solig'i;	
3	Yagona soliq	
4	Ijtimoiy soliq	
5	Yakka tartibdagi tadbirkorlarning daromadlariga soliq	

⁵ O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi (yangi taxriri). Toshkent "NORMA" 30.12.2019y 16-modda

Mahalliy soliqlar va yig’imlar. Boshqa majburiy to’lovlar.

1.1.3- jadval

Nº	Majburiy to’lovlarning turlari	Respublika byudjeti
1	Ijtimoiy soliq;	
2	Davlat boji	
3	Bojxona to’lovleri	
4	Ayrim turdag'i tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdag'i xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'im.	



3-rasm. Soliq tizimini guruhanishi

Bugungi kunda yengil sanoat korxonalarining Davlat byudjeti bilan byudjetga to'lovlar bo'yicha aloqalari mol-mulk solig'i, foydadan olinadigan soliq, yer solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz

solig'i, import boj poshlinalari, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, mahalliy va boshqa soliqlar yordamida amalga oshirilib kelinmoqda. Mamlakatimizda soliq tizimida 2006 yildan boshlab ekologiya solig'i bekor qilingan.

Respublikamiz yengil sanoat korxonalarini tomonidan byudjetga to'lanadigan soliqlar summalarini salmog'ining dinamikasi yoki ularning tarkibiy tuzilmasi va uning 2005-2019 yillar davomida o'zgarib kelmoqda.

Xususan; mol-mulk solig'i bo'yicha jami soliqlar tarkibida uning ulushi 2005 yilda 17,8% dan 2009 yilda 4,4% ni tashkil etgan. 2005-2009 yillar oralig'ida ulushi sezilarli darajada bo'lган. 2013 yildan boshlab bu ko'rsatkich oldingi yillarga nisbatan kamaygan (2%) va bu jarayon 2015 yilgacha davom etgan. 2011-2019 yillar orasida jami soliqlar tarkibida mol-mulk solig'ining ulushi yildan yilga o'sib borgan.

Soliq tizimini guruhlanishi. Soliqqa tortishning obyekti hamda soliq to'lovchi va davlat o'rtaсидаги о'заро munosabatlarga bog'liq ravishda soliqlar ikki guruhgaga bo'linadi.

1. To'g'ri (bevosita) soliqlar
2. Egri (bilvosita) soliqlar

1. To'g'ri (bevosita) soliqlar tarkibiga subyektga tegishli bo'lган bevosita daromadlar va mol-mulkdan olinadi. Misol uchun korxonalarining daromadi (foydasi) dan olinadigan soliq, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i, korxonaning mol-mulkidan olinadigan soliq va boshqalar shular jumlasidandir.

2. Egri (bilvosita) soliqlar. Tovarlar va xizmatlarga nisbatan o'rnatiladi va tovar to'lanadigan baho yoki xizmatning ta'rifi tarkibida bo'ladi. Qo'shilgan qiymat solig'i, aksizlar, bojxona bojlari va boshqalar egri soliqqa misol bo'la oladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda soliq siyosatiga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Shu o'rinda to'g'ri soliqlarning stavkalarini yildan yilga pasayib borayotganligini alohida qayd etish lozim. Lekin shunga qaramasdan, to'g'ri soliqlarni miqdor jihatdan oshib borishini

soliq stavkasining pasayishi hisobiga soliqqa tortish bazasining kengayib borishi bilan izohlash mumkin.

1.2. Soliqlar va boshqa majburiy to’lovlarining elementlari hamda soliq stavkalarining turlari

Soliqlar va boshqa majburiy to’lovlar soliq to’g’risidagi qonun hujjatlarida soliq to’lovchilar, shuningdek ushbu soliq yoki boshqa majburiy to’lovnini hisoblab chiqarish va to’lash uchun zarur elementlar belgilab qo’yilgan. Soliq elementlari soliq solish obyekti, soliq solinadigan baza, stavka, hisoblab chiqarish tartibi, soliq davri, soliq hisobotini taqdim etish tartibi va to’lash tartibi kabi tushunchalarini o’z ichiga oladi. Soliqlar va boshqa majburiy to’lovlarining elementlari soliq Kodeksining 69-moddasida huquqiy asoslab berilgan⁶.

Soliq to’g’risidagi qonun hujjatlarida soliqning barcha elementlari aniqlab qo’yilgan taqdirdagina ushbu soliq belgilangan deb hisoblanadi.

Bunday soliq elementlariga quyidagilar kiradi:

- 1) soliq solish obyekti;
- 2) soliq bazasi;
- 3) soliq stavkasi;
- 4) soliq davri;
- 5) soliqni hisoblab chiqarish tartibi;
- 6) soliq hisobotini taqdim etish tartibi;
- 7) soliqni to’lash tartibi.

Soliqni belgilashda soliq imtiyozlari va ularning qo’llanilishi uchun asoslar nazarda tutilishi mumkin.

Soliq solish obyekti – soliq to’lovchida soliq yoki boshqa majburiy hisoblab chiqarilishi va to’lanishi yuzasidan majburiyat keltirib chiqaruvchi mol-mulk, harakat, harakat natijasidir.

⁶O’zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi (yangi taxriri). Toshkent “NORMA” 30.12.2019y 6-bob.69-modda

Soliq baza – soliq solish ob'ektining soliq yoki boshqa majburiy to'loving stavkasi tadbigan belgilangan ko'rsatkichlardi qiymat, miqdor, fizik va boshqa tavsiyalarini ifodalaydi.

Soliq stavka – soliq solinadigan bazaning o'lchov birligiga nisbatan hisoblanadigan foizlardagi yoki mutloq summadagi miqdorini ifodalaydi.

Soliq davri – soliq davri u tugaganidan keyin soliq solinadigan baza aniqlanadigan hamda soliq yoki boshqa majburiy to'lov summasi hisoblab chiqariladigan davrdir. Soliq davri bir necha hisobot davriga bo'linishi mumkin.

Ularning yakunlari bo'yicha hisob-kitoblarni taqdim etish hamda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'lanishi lozim bo'lgan summalarini to'lash majburiyati yuzaga keladi.


Soliqni hisoblab chiqarish tartibi – soliq va boshqa majburiy to'lojni hisoblab chiqarish tartibi soliq davri uchun soliq solinadigan bazadan, stavkadan, shuningdek imtiyozlar mavjud bo'lsa, shu imtiyozlardan kelib chiqib, soliq va boshqa majburiy to'lov summasini hisoblash qoidalarini belgilaydi. Soliq va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish soliq to'lovchi tomonidan mustaqil ravishda amalga oshiriladi.

Soliq hisobotini taqdim etish tartibi – soliq hisobotini soliq to'lovchi tomonidan Soliq Kodeksida belgilangan muddatlarda taqdim etiladi. Soliq hisobotini soliq to'lovchi hisobga qo'yilgan joydagi davlat soliq xizmati organiga taqdim etiladi. Ayrim turdag'i soliqlar bo'yicha soliq hisoboti ham Soliq Kodeksida nazarda tutilgan hollarda obyektlar bo'yicha hisobga qo'yilgan joy bo'yicha soliq to'lovchi tomonidan taqdim etiladi.

Soliqni to'lash tartibi – soliqni hisoblab chiqarish tartibi soliq bazasidan, soliq stavkasidan, shuningdek mavjud bo'lgan taqdirda, soliq imtiyozlaridan kelib chiqqan holda soliq davri uchun soliq summasini hisob-kitob qilish qoidalarini belgilaydi.

Soliqni hisoblab chiqarish soliq to'lovchi tomonidan mustaqil ravishda amalga oshiriladi. Soliqni to'lash soliqning to'liq summasi bo'yicha yoki ushbu Kodeksda nazarda tutilgan boshqacha tartibda

amalga oshiriladi. Agar soliq bo'yicha soliq davri bir necha hisobot davrini tashkil etsa, ulardan har birining natijalari bo'yicha joriy to'lovlar to'lanadi.



4-rasm. Soliqlarning asosiy elementlari

O'zbekiston soliq qonunchiligidagi soliq stavkalarining quyidagi turlari mavjud va ular quyidagilar:

- 1) Proporsional soliq stavkasi,

- 2) Progressiv soliq stavkasi,
- 3) Regressiv soliq stavka
- 4) Nolli soliq stavkasi turlariga bo'linadi.

Proporsional soliq stavkasi. Bunda oborot, xarajat oshgan taqdirda ham stavka o'zgarmaydi. Masalan, qo'shilgan qiymat solig'ida ob'ekt 10 ming so'm bo'lsa ham, 100 ming so'm bo'lsa ham, 1 mln. so'm bo'lsa ham stavka (15 foiz) saqlanib qolaveradi, ya'ni proporsiya o'zgarmaydi.

Progressiv soliq stavkasi. Bu stavkada daromad yoki boshqa obyekt qiymati oshib borish bilan birga soliq stavkasi ham oshib boradi. Masalan, 2018 yilgacha O'zbekiston Respublikasida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i progressiv soliq stavkalari qo'llanilgan. Jismoniy shaxslar oladigan daromadi qanchalik ko'p bo'lsa, soliq stavkasi ham ko'paygan.

Regressiv stavka. Bu soliq stavkasida daromad oshishi bilan yoki soliq obyekti o'zgarishi bilan soliq stavkasi kamayib boradi. Eksportchi korxonalar uchun erkin almashtiriladigan valyuta realizatsiyasi miqdoriga qarab kamayuvchi koeffitsientlar belgilanadi.

Nolli soliq stavkasi. Bu stavka faqat qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha: eksportga tovar qat'iy valyutaga sotsa, qishloq xo'jaligi uchun yoqilg'i, moylash materiallari va mineral o'g'itlar sotilganda hamda chet el elchixonalarida ishlaydigan xorijiy davlatlar fuqarolariga tovarlar (ishlar, xizmatlar) sotilsa qo'llaniladi, ya'ni bu yerda sotish oborotiga stavka soliq nolli stavka hisoblanadi. Byudjetga ham shu tovarlar bo'yicha soliq to'lanmaydi. Shu tovarlarni ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan xom ashyo, materiallar, yoqilg'ilarga to'langan qo'shilgan qiymat solig'i hisobga olinadi va yil oxirida qolsa qaytarib beriladi.

Soliq imtiyozlari - bu soliqdan qisman, to'liq va vaqtinchalik yengilliklar berish va soliq bazasini kamaytirish yo'li bilan imtiyozlar berishni ifoda etadi.

Shunindek soliq imtiyozlari deganda, soliq to'lovchilarni soliq va yig'implarni to'lashdan qisman, vaqtinchalik va to'liq ozod etish

tushuniladi. Imtiyozlar to'g'ridan to'g'ri to'lanadigan soliq summasidan berilishi mumkin. Aytaylik, korxona bolalar kiyimi ishlab chiqarishga ixtisoslashgan bo'lsa, daromadga soliqdan belgilangan foiz o'rniliga imtiyozli soliq to'laydi. Bu qisman ozod qilishga ham kiradi. Imtiyozlar vaqtinchalik ham bo'lishi mumkin. Jumladan, fermer xo'jaliklari yangi tashkil etilgan davrdan boshlab ikki yilgacha daromad solig'ini to'lashdan ozod etiladi.

Bizning soliq qonunchiligidan soliq to'lashdan to'la ozod qilish hollari ko'p uchraydi. Masalan, korxonada jami ishlovchi xodimlar sonidan 50 foizidan ko'prog'ini nogironlar, mehnat faxriylari tashkil etsa, yoki 75 foizidan ko'prog'i mакtab va maxsus o'quv yurti talabalaridan iborat bo'lsa, qo'shilgan qiymat solig'i, foyda solig'i va boshqa soliqdan tamomila ozod etiladi.

Jismoniy shaxslarning daromad solig'i bo'yicha xorijiy mamlakatlarning vakolatxonalarida va elchixonalarida ishlovchi chet ellik xodimlar, mutaxassislar soliqdan mutlaqo ozod etiladi. Bulardan tashqari, soliq bazasini kamaytirish orqali byudjetga to'lanadigan soliq summasini qisqartirish ham imtiyoz turkumiga kiradi. Masalan, yuridik shaxslar o'z daromadlarini investitsiyaga sarflasa, yoki uning uchun olgan uzoq muddatli kreditlarni qaytarishsa, soliqqa tortiladigan bazadan 50 foizi kamaytiriladi. Umuman olganda, imtiyozlar turkumiga soliqqa tortilmaydigan daromad turkumlari ham kiradi. Masalan, fuqarolarning daromad solig'i bo'yicha bir qator soliqqa tortilmaydigan daromad mavjud. Soliq qonunchiligi amaliyotida imtiyozlar turi juda ko'p bo'lgani bilan ulardan foydalanish ancha murakkab.

1.3. O'zbekiston Respublikasining soliq siyosati

O'zbekiston Respublikasi soliq siyosatining huquqiy asoslari mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab kuchga kirdi.

O'zbekiston Respublikasining 1991 yil 31 avgustdag'i "O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida"gi Qonunida "...shu kundan e'tiboran O'zbekiston Respublikasi o'zining mustaqil soliq siyosatini olib boradi",-deb ko'rsatilgan. Qolaversa

davlatning soliq siyosati asosi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham qayd qilingan.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab soliq sohasida o'ndan ortiq qonunlar qabul qilingan edi. Shulardan eng asosiylari O'zbekiston Respublikasining "Korxonalar, tashkilotlar va birlashmalar solig'i to'g'risida" va "O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va fuqaroligi bo'lмагanlarning solig'i to'g'risida"gi qonunlari va ularga kiritilgan o'zgartirishlar va to'ldirishlar bo'ldi. Soliqning huquqiy asosi 1997 yil 24 aprelda O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan hamma soliqni o'zida mujassamlashtirgan Soliq Kodeksi bo'ldi. U soliq siyosatini amalga oshirishga katta huquqiy asos yaratdi. Har qanday tadbir, ish, faoliyat ilgaridan belgilanib, aniqlab, rejalashtirib, ishlab chiqilgan siyosatni amalga oshiradi.

Hozirgi vaqtida O'zbekiston Respublikasida 2019 yil 30dekabridan boshlab soliqning huquqiy asosi sifatida Soliq Kodeksining yangi tahriri kuchga kirdi. Bunda mamlakatdagi qabul qilingan hamma soliqlarni o'zida aks ettirgan.

Siyosat deganda, davlatning ilgaridan rejalashtirib, aniqlab turib, amalga oshiradigan chora tadbirlari yig'indisi tushuniladi.

Soliq siyosati – davlatning soliq borasidagi farmon, qonun va qarorlari ijrosini ta'minlash hamda uni tashkil qilish uchun ishlab chiqilgan chora-tadbirlar faoliyatlar yig'indisidir. Faqat mustaqil davlatgina o'zining mustaqil soliq siyosatiga ega bo'la oladi.

Soliq siyosatini ishlab chiqish moliya-iqtisodiy munosabatlardan kelib chiqadi. Davlat soliq siyosati Respublika iqtisodiyotini barqarorlashtirish va rivojlantirishga, bozor munosabatlarini boshqarishga har tomonlama faol ta'sir ko'rsatadi. Soliq pul munosabatlarini ifoda etib, iqtisodiy munosabatlarning tarkibiy bo'lagi, bozor iqtisodiyotining zaruriy qismidir.

Jahon soliq siyosati tajribasida soliqqa tortishning quyidagi yo'naliшlariga katta e'tibor beriladi:

1. Har xil mulk shakllariga moslangan korxona va tashkilotlarning xo'jalik yuritishiga mumkin qadar iqtisodiy sharoit yaratish;

2. Ijtimoiy-zaruriy umumdavlat vazifalarini bajarish uchun davlatni kerak bo'lган moliyaviy manbalar bilan ta'minlash;

3. Bozor iqtisodiyoti sharoitida yangi ijtimoiy-iqtisodiy omillarni tashkil qilishda qatnashish, ishsizlarni ish bilan ta'minlash, iqtisodiy nochorlarga yordam berish.

Hozirgi paytda O'zbekiston Respublikasida soliq siyosatining ikki yo'nalishi mavjud:

1. Korxona va tashkilotlarga nisbatan soliq siyosati. Eng avvalo, korxona va tashkilotlarni modernizatsiya sharoitidagi erkinligini hisobga olish.

2. Soliq siyosatida axolining turli guruhlariga nisbatan xilma-xil yondoshishidir. Nochor, kam ta'minlanganlarga iloji boricha soliqdan ko'proq imtiyozlar berish va kam kuch sarflab ko'p daromad topuvchilarga nisbatan yuqori progressiyali soliq stavkalarini qo'llashdan iborat.

1.4. Soliq mexanizmi tushunchasi va tarkibi.

Soliq mexanizmi bu subyektiv tushuncha bo'lib, o'z ichiga soliq turlari, elementlari, tashkil qilish usullari, soliq qonunchiligi, soliqni hisoblash va to'lash ustidan davlat nazoratini o'tkazishni oladi.

Soliq mexanizmi byudjet mexanizmi tarkibiga kiradi. Soliq mexanizmi deganda soliqqa tortish bilan bog'liq bo'lган soliqni tashkil qilishning barcha elementlari yig'indisi tushuniladi. Bunday elementlarga soliq obyekti, subyekti, manbai, soliq stavkasi, to'lov muddatlari, soliq huquqi va hujjatlari kiradi. Soliq mexanizmi soliq tizimining amaliyotga tatbiq etilishini ifodalaydi.

Soliq mexanizmidan foydalanish soliq elementlarining yig'indisidan samarali foydalanish maqsadida ishlab chiqilgan tushunchadir. Bu mexanizm tarkibida soliq va boshqa to'lovlar kabi elementlar borligini aytib o'tish zarur. Shu mexanizm tarkibida soliq

aksariyat uzoq yillar harakat qilsa, ularning elementlari (masalan, stavkasi) tez-tez o'zgarib turishi mumkin.

Soliq mexanizmini shunday takomillashtirish lozimki, byudjetga soliq to'liq va o'z vaqtida tushsin. Bu ular bir vaqtning o'zida tovar ishlab chiqarishni kengaytirish va ko'p daromad olish imkonini bersin, eksportga mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirib, qat'iy valyutalarga ega bo'lsin.

Hozirgi vaqtning soliq siyosati soliq mexanizimni ana shu yo'naliishda takomillashtirib bormoqda. Bu esa bozor iqtisodiyoti talablariga mos tushib, iqtisodiyotni barqarorlashtirish imkonini bermoqda.

Soliq mexanizmining yo'naliishi soliq siyosatidan kelib chiqadi. Shu sababli soliq siyosati yo'naliishi o'zgarsa, soliq mexanizmining keraksiz elementlari chiqarib tashlanadi va yangi elementlar kiritiladi. Masalan, mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab bozor iqtisodiyoti talablariga mos kelmaydigan soliq bekor qilinib, yangi soliq (QQS, aksiz va boshqa) vujudga keldi. Soliq mexanizmiga o'zgarishlar kiritilib, takomillashtirilib boriladi.

Qisqacha xulosalar

Soliq siyosati soliqning jamiyatdagi rolini belgilaydi. Soliq siyosatida davlat islohatlarni asta-sekin bosqichma bosqich olib borilmoqda. Modernizatsiya sharoitida tartib qoidalarning kundalik hayotimizga tobora singib borayotganligi, tadbirkorlikning keng tarqalayotganligi, davlat tomonidan har tomonlama rag'batlantirilayotganligi, soliq to'lovchilarning soliq va boshqa majburiy to'lovlarni o'z vaqtida to'lashi, soliqga oid qonunlardan etarli darajada xabardor bo'lishi va ularga og'ishmay amal qilishini taqozo etmoqda. Aholining xuquqiy bilimi, saviyasi va madaniyatini hozirgi kun talablariga javob beradigan darajada yuksaltirish bugunning eng dolzarb masalalaridan ekanligi tan olindi va ushbu muammo davlat siyosatining ustuvor yo'naliishlaridan biri ekanligi e'lon qilindi.

Fuqarolarning soliq qonunchiligi sohasida yetarli saviyaga va huquqiy ongga ega bo'lishlari jamiyat huquqiy madaniyatini yuksaltirishning muhim tarkibiy qismi sanaladi.

Soliqqa tortish tizimi qonun chiqaruvchi idoralar tomonidan belgilangan va ijrochi idoralar tomonidan undiriladigan Soliqni tashkil etish usullari, elementlari va tamoyillari majmuidan iborat. O'zbekiston Respublikasining soliqqa tortish tizimi o'z mazmuniga ko'ra soliq elementlari, ularni tashkil qilish tamoyillari va usullarining o'rgatishdan iboratdir

Nazorat va muhokama uchun savollar.

1. Davlat soliq siyosati nimani bildiradi?
2. Soliq mexanizmi nima?
3. Soliq tizimi va soliqqa tortish tizimi tushunchalari nimani ifodalaydi?
4. Soliq stavkalarining qanday turlari mavjud?
5. Soliq imtiyozlari nimani ifodalaydi? Bu masalada qanday muammolar mavjud?

Mavzuga oid topshiriqlar:

Topshiriq-1. Guruh kichik jamoalarga bo'linadi. Har bir jamoaga «Soliq – bu» yozuvi tushirilgan varaqlar tarqatiladi va uni to'ldirish talab qilinadi (3×4 texnologiyasi).

Topshiriq-2. «Soliq modernizatsiya sharoitida zarur!» bu jumlanı talabalar quyidagi tartibda yoritib berishlari kerak (FSMU texnologiyasi).

F – fikringizni bayon eting.

S – fikringizni bayoniga biron sabab ko'rsating.

M – ko'rsatilgan sababni tushuntiruvchi, isbotlovchi misollar keltiring.

U – fikringizni umumlashtiring.

Testlar.

1. Soliq to'lovchi va davlat o'rta sidagi o'zaro munosabatlar nechta guruhga bo'linadi?

- A) ikki guruhga
- V) to'rt guruhga
- S) uch guruhga
- D) guruhga bo'linmaydi

2. Soliq siyosati deganda nimani tushunasiz?

A) umumdavlat soliqlarini

V) davlatning soliq borasidagi farmon, qonun va qarorlari ijrosini ta'minlash

S) mahalliy soliqlar va yig'implari

D) davlat islohotlarni asta-sekin bosqichma bosqich olib borishi

3. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi (yangi tahriri) qachon qabul qilindi?

A) 30.12.2019y

V) 01.01.2020y

S) 05.05.2020y

D) 30.12.2018y

4. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini 2019 yildagi soliq stavkasini miqdori qancha?

A) 25%

V) 20%

S) 14%

D) 30%

5. Tovarlarni realizatsiya qilish bo'yicha oborotlar tarkibiga nimalar kiradi?

A) ortib jo'natilgan mahsulot

V) bajarilgan ishlar

S) ko'rsatilgan xizmatlar

D) a, v, s javoblar yig'indisi

II-BOB. "SOLIQ VA SOLIQQA TORTISH" FANINING PREDMETI VA VAZIFALARI.

Reja:

2.1.Soliq va soliqqa tortish" fanining predmeti va o'rganish usullari.

2.2."Soliq va soliqqa tortish" fanini iqtisodiy fan ekanligi, uning boshqa fanlar bilan aloqadorligi.

2.3.Soliqning funksiyalari va tamoyillari (prinsiplari).

2.4."Soliq va soliqqa tortish" fanining soliq sohasidagi mutaxassis xodimlarni tayyorlashdagi o'rni.

Tayanch so'z va iboralar: soliqlar, soliqqa tortish, to'lovlar, soliq tizimi, soliq siyosati, davlat byudjeti, soliq to'lovchilar, soliq xizmati.

2.1. "Soliq va soliqqa tortish" fanining predmeti va o'rganish usullari.

Har qanday fan o'zining predmetiga, ya'ni izlanish obyektiga ega bo'ladi. Shu bois "Soliq va soliqqa tortish" fanining predmeti soliqlar va soliq mexanizmini ya'ni soliqqa tortish bilan bog'liq bo'lgan soliqlarni barcha elementlari yig'indisini har taraflama o'rganishdir. Soliq mexanizmi soliq tizimining amaliyatga tadbiq etilishini ifodalaydi. Bu harakat soliqqa tortish jarayonini pul munosabatlarining ko'rinishlaridan biri bo'lib soliq to'lovchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) bilan soliq undiruvchi davlat o'rtasidagi munosabatlarni ifodalaydi. Fanning mohiyati shu o'rtadagi munosabatni chuqur o'rganish, ularni to'g'ri tashkil etilishini ta'minlashdan iborat. To'g'ri tashkil etish deganda, soliq munosabatida qatnashuvchi tomonlarning iqtisodiy manfaatini inobatga oluvchi munosabatni tashkil qilish tushuniladi. Davlat byudjetiga soliq undirish soliq to'lovchilarning ishlab chiqarishni rivojlantirish rejasidan kelib chiqqan holda bozor iqtisodiyoti



talablariga asoslangan munosabatlarni tashkil etishga harakat qilishdir. Talabalar "Soliq va soliqqa tortish" fanini chuqur o'rganish orqali amaliyotda soliq tushumlari rejalarini bajarishda ham katta muvaffaqiyatlarga erishish mumkinligini anglaydi.

Fanning vazifasi talabalarni va boshqa soliq faoliyati bilan bog'liq xodimlarni soliqlarga oid nazariy va amaliy bilimlarni egallashlari hamda amaliyotga tadbiq etish yo'l-yo'riqlarini ko'rsatishdan iboratdir.

Shunindek, «Soliq va soliqqa tortish» fanining asosiy vazifasi rivojlangan xorijiy mamlakatlar soliq amaliyotini o'rganish asosida qilingan xulosalar, ularning tajribalarini mamlakatimiz iqtisodiyotiga moslab tadbiq eta oladigan, nazariy, ilmiy va amaliy jihatdan bilimga ega bo'lgan yuqori malakali kadrlarni tayyorlashdan iborat.

«Soliq va soliqqa tortish» fanining usuli – bu ushbu fanni o'zlashtirish uchun nimalarni bilish lozimligi tushiniladi. Demak bu fanni o'rganish uchun talaba respublikamizdagi soliq qonunchiligidagi belgilangan barcha soliqlar, to'lovlar va majburiy ajratmalarini bilishlari kerak bo'ladi.

2.2. "Soliq va soliqqa tortish" fanini iqtisodiy fan ekanligi, uning boshqa fanlar bilan munosabati

«Soliq va soliqqa tortish» fani soliq harakatlarini va soliq mexanizmini har taraflama chuqur o'rganish asosida takrorlanib turadigan munosabatlarni tartibga solib o'rgatadi. "Soliq va soliqqa tortish" fani soliq amaliyotidagi eng to'g'ri, eng mukammal va progressiv voqealarni o'rganish asosida, amaliyot uchun qo'llanish uslublarini o'rgatadi. Shu bilan birga soliq nazariyasini rivojlantirish asosida iqtisodiyotni rivojlantiruvchi soliq mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etishni ta'minlaydi. "Soliq va soliqqa tortish" fani nazariy jihatdan ishlab chiqarilgan yangi asoslangan yondashuvlarni amaliyotga tadbiq etish yo'nalishlarini belgilaydi. Shuning uchun nazariy bilimlarga ega bo'lgan amaliyotchi amaliyotda katta muvaffaqiyatlarga erishish imkonini oshadi. «Soliq va soliqqa tortish» fani «Iqtisodiy nazariya» fani bilan chambarchas bog'liqdir va

uning maxsus bo'limi, ya'ni chuqurlashtirilgan va kengaytirilgan bo'limidir. Chunki, «Soliq va soliqqa tortish» fanining qonuniyatları umumiqtisodiy nazariya qonuniyatlaridan chetga chiqib keta olmaydi, ularga asoslanadi.

Shuningdek bu fan «Moliya» fani bilan ham chambarchas bog'liqdir, chunki Soliq moliya munosabatlarining tarkibiga kiradi. Shuning uchun «Moliya» ham, soliq ham pul munosabatlarini ifodalaydi. Ularning ikkalasi uchun yagona asos pul munosabatlarining mavjudligidir. Lekin, soliq keyinchalik o'ziga xos bo'lgan pul munosabatini, ya'ni soliq to'lovchilar bilan davlat o'rtasidagi majburiy pul munosabatini ifodalaydi.

Bu fan «Davlat byudjeti», «Soliq nazariyasi», «Rivojlangan xorijiy mamlakatlar Solig'i tizimi», «Buxgalteriya hisobi», «Soliq huquqi», «Moliyaviy menejment», «Chet mamlakatlar moliya tizimi», «Moliya va soliqlar» fanlari bilan ham chambarchas bog'liqdir.

2.3. Soliqning funksiyalari va tamoyillari (prinsiplari).

Soliqlar faqat iqtisodiy kategoriya bo'lib qolmasdan, balki moliyaviy kategoriya hamdir. Ular moliyaviy munosabatlarga xos bo'lgan umumiy xususiyatlarni ifoda etadi, o'zining farqlanuvchi belgilari va xususiyatlariga, o'z harakat shakliga, ya'ni moliyaviy munosabatlarning barcha to'plamidan ajratib turadigan funksiyalariga ega.

Soliqlarning funksiyalari ularning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va ichki mazmunini ochib beradi. Hozirgi sharoitda soliqlar ikki funksiyani bajaradi:

- 1) Fiskal funksiyasi;
- 2) Tartibga solish (rag'batlantirish) funksiyasi.

Bu funksiyalarning har biri soliqlarning moliyaviy kategoriya sifatida alohida tomonlarini namoyon etadi.

1. Soliqlarning fiskal funksiyasi ularning asosiy funksiyasi bo'lib, bu barcha davlatlar uchun xarakterlidir. Bu funksiya yordamida davlat pul fondlari, ya'ni davlatning faoliyat ko'rsatishi uchun moddiy asos yaratiladi. Xuddi shu funksiyaning o'zi milliy daromad qiymatining

bir qismini jamiyatning eng kam ta'minlangan ijtimoiy qatlamlari foydasiga qayta taqsimlash uchun real imkoniyatni vujudga keltiradi.

Jamiyat rivojlanishi iqtisodiy darajasining oshib borishiga muvofiq ravishda soliqlar fiskal funksiyasining ahamiyati ham o'sib boradi. Insoniyat taraqqiyotining XX asri va XXI asrining boshlari soliqlarni undirish hisobidan davlat daromadlarining juda katta o'sishi bilan xarakterlanadiki, bu narsa, o'z navbatida, davlat funksiyalarining kengayishi va hokimiyat tepasida bo'lgan ayrim ijtimoiy guruhrar tomonidan ma'lum bir siyosatning hayotga tadbiq etilishi bilan bog'liqdir. Keyingi yillarda davlat iqtisodiy va ijtimoiy (sotsial) tadbirlarga, mudofaa qobiliyatini mustahkamlash va boshqaruv apparatini saqlashga katta miqdordagi moliyaviy mablag'larni sarflamoqda.

Soliqlarning fiskal funksiyasi iqtisodiy munosabatlarga davlatning aralashuvi uchun ob'ektiv shart-sharoitni yaratadi, ya'ni u tartibga solish funksiyasini taqazo etadi.

2. Tartibga solish (rag'batlantirish) funksiyasi qayta taqsimlash jarayonlarining faol ishtirokchisi sifatida soliqlarning takror ishlab chiqarishga uning sur'atlarini rag'batlantirib yoki to'sqinlik qilib, kapitalning jamg'arilishini kuchaytirib yoki susaytirib, aholining to'lovga qobiliyatli talabini kengaytirib yoki qisqartirib keskin ta'sir ko'rsatishi mumkinligini anglatadi. Milliy daromadni mobilizatsiya qilishning soliq metodini davlat tomonidan kengaytirilishi orqali soliqlarning ishlab chiqarish jarayoni ishtirokchilari bilan doimiy ravishda to'qnash kelishiga sabab bo'lib, bu narsa unga mamlakat iqtisodiyotiga va takror ishlab chiqarishning barcha bosqichlariga ta'sir ko'rsatish uchun real imkoniyat yaratadi.

Ilmiy-texnika taraqqiyoti sharoitida ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi ishlab chiqarish jarayoniga davlatning aralashuvi uchun ehtiyojni vujudga keltiradi. Bu narsa soliqni tartibga solishni (rag'batlantirishni) yangi pag'onaga ko'tardi.

Amaldagi Soliq kodeksining 7-moddasida soliq solish prinsiplarining huquqiy asoslari yoritib berilgan va u quyidagilardan iborat:

- 1) majburiylik prinsipi;
- 2) soliq solishning aniqligi va soliq organlarining soliq to'lovchilar bilan hamkorligi prinsipi;
- 3) adolatlilik prinsipi;
- 4) soliq tizimining yagonalik prinsipi;
- 5) oshkorlik prinsipi;
- 6) soliq to'lovchining haqligi prezumpsiyasi prinsiplariga asoslanadi.

1. Majburiylik prinsipi

Har bir shaxs ushbu Kodeksda belgilangan soliqlar va unda nazarda tutilgan yig'implarni to'lashi shart.

Hech kimga soliqlar va yig'implarning barcha alomatlariga ega bo'lган, biroq ushbu Kodeksda nazarda tutilmagan yoxud uning normalari buzilgan holda belgilangan soliqlar va yig'implarni to'lash majburiyati yuklatilishi mumkin emas.

2. Soliq solishning aniqligi va soliq organlarining soliq to'lovchilar bilan hamkorligi prinsipi

Soliqlarni va yig'implarni belgilovchi soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari, agar ushbu Kodeksda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, soliq to'lovchilarni hamda ushbu soliqlarning va yig'implarning boshqa barcha elementlarini, shu jumladan ularni to'lash muddatlari va tartibini aniqlab berishi kerak.

Soliq organlari soliq munosabatlari doirasida soliq to'lovchilar bilan soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarini to'g'ri bajarish maqsadida hamkorlik qilishi shart. Bunda soliq organlari soliq to'lovchilarning qonuniy faoliyatiga asossiz to'siqlar yaratishga haqli emas, soliq to'lovchilar esa soliq organlari o'z vakolatlarini amalga oshirishi uchun shart-sharoit yaratishi kerak.

3. Adolatlilik prinsipi

Soliqlar va yig’imlar kamsitish xususiyatiga ega bo’lishi hamda ijtimoiy, irqiy, milliy, diniy va boshqa shu kabi mezonlardan kelib chiqqan holda qo’llanilishi mumkin emas.

Mulkning shakliga, jismoniy shaxslarning fuqaroligiga yoki kapitalning kelib chiqish mamlakatiga qarab farqlangan soliq stavkalarini, soliq imtiyozlarini yoki boshqa afzalliklarni belgilashga yo’l qo’yilmaydi.

Fuqarolarning o’z konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirishiga to’sqinlik qiladigan soliqlarni belgilashga yo’l qo’yilmaydi.

4. Soliq tizimining yagonaligi prinsipi

Soliq tizimi O’zbekiston Respublikasining butun hududida yagonadir.

O’zbekiston Respublikasining yagona iqtisodiy makonini buzuvchi, xususan, O’zbekiston Respublikasining hududi doirasida tovarlarning (xizmatlarning) yoki moliyaviy mablag’larning erkin muomalada bo’lishini bevosita yoki bilvosita cheklab qo’yadigan soliqlar belgilanishiga yo’l qo’yilmaydi.

5. Oshkoraliq prinsipi

Soliq to’g’risidagi qonun hujjatlari rasman e’lon qilinishi shart.

Rasman e’lon qilinmagan soliq to’g’risidagi qonun hujjatlari kuchga kiritilmagan hujjat sifatida huquqiy oqibatlarni keltirib chiqarmaydi.

6. Soliq to’lovchining haqligi prezumpsiyasi prinsipi

Soliq to’g’risidagi qonun hujjatlaridagi barcha bartaraf etib bo’lmaydigan qarama-qarshiliklar va noaniqliklar soliq to’lovchining foydasiga talqin etiladi.

2.4. "Soliq va soliqqa tortish" fanining soliq sohasidagi mutaxassis xodimlarni tayyorlashdagi o’rni.

Soliq sohasidagi mutaxassis xodimlari o’zlariga qonun hujjatlarida yuklangan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishlari uchun faqat soliqlarni nazariy jihatlarni bilibgina qolmasdan, undagi

soliqning mohiyati va zarurligi, ular uchun umumiy asosga ega bo'lgan soliq tamoyili, soliqqa tortish tizimi, soliqqa oid me'yoriy asoslarni puxta egallagan bo'lishi zarur. Buning uchun esa "Soliq va soliqqa tortish" fanini chuqr o'rganish kerak.

"Soliq va soliqqa tortish" fani pul munosabatlarini ifodalovchi soliq tizimiga oid quyidagi harakatlarni o'z ichiga oladi:

- soliqning mohiyati, tushunchalari, ularni tashkil qilish asoslari,
- soliqning modernizatsiya sharoitida zarurligi, ularning to'g'ri va egri soliqqa bo'linishi,
- byudjetga tushish nuqtai nazaridan umum davlat solig'i va mahalliy soliqqa bo'linishi va boshqa iqtisodiy guruhlar,
- soliq stavkalari va turlari, ularni amaliyatga tatbiq etish usuli va uslublari, soliq tizimiga oid boshqa harakatlarni o'z ichiga oladi.

Shuningdek, bu fan soliq xizmati xodimlari, soliq sohasi vakillari, talabalar va boshqalarni soliqqa oid ilmiy salohiyatini oshirishda katta rol o'ynaydi.

Qisqacha xulosalar.

Iqtisodiyot, uning talab va taklif, raqobat va qiymat qonunlari «Soliq va soliqqa tortish» fanining asosiy negizidir. Davlat mamlakatda yaratilgan yalpi ichki mahsulot qiymatini qayta taqsimlaydi va soliqlardan taqsimlash kategoriyasi sifatida o'zining hamma ijtimoiy talablarini qondirishda foydalana oladi.

Nazorat va muhokama uchun savollar.

1. «Soliq va soliqqa tortish» fanini o'qitishning zarurligi nimada?
2. «Soliq va soliqqa tortish» fanining predmeti va uning vazifalari nimada?
3. Fanning nazariy va amaliy asosi nimalardan iborat?
4. «Soliq va soliqqa tortish» fani mazmunida nimalarni o'rgatish maqsadi yotadi va uning kadrlarni tayyorlashdagi roli qanday?
5. «Soliq va soliqqa tortish» fani qaysi fanlar bilan chambarchas bog'liq?

Mavzuga oid topshiriqlar: Topshiriq - 1. Quyida keltirilgan tushunchalarga ta’rif bering («Tushunchalar taxlili» usuli)

Tushunchalar	Izoh	Qo’shimcha fikrlar
Soliq siyosati		
Soliq mexanizmi		
Soliq tizimi		
Soliq subyekti		
Soliq obyekti		
Soliq manbai		
Soliq stavkasi		
Soliq yuki		

Topshiriq - 2. Soliqlarni turkumlang. (*Charxpakal texnologiyasi*)

Soliqlarning turlari	Umumdavlar soliqlari	Mahalliy soliqlar	Bevosita soliqlar	Bilvosita soliqlar
1.Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig’i				
2.Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig’i				
3.Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig’i				
4.Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig’i				
5.Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk				

solig'i				
6.Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i				
7.Qo'shilgan qiymat solig'i				
8.Aksiz solig'i				
9.Suv resurslaridan foydalanganligi uchun soliq				
10.Davlat boji				

Talabalar o'zlashtirishini baholash mezonlari:

To'g'ri javoblar soni: Bahosi

- 9-10-----a'lo
- 7-8 ----- yaxshi
- 5-6 -----qoniqarli
- 4 ----- qoniqarsiz

Testlar.

1. Soliq tushunchasi nimani anglatadi?

- A) davlat byudjetiga tushadigan pul, iqtisodiy va qonun bilan belgilangan majburiy munosabatlar;
- V) fuqarolarning badallari;
- S) chet el mamlakatlarining moliyaviy yordamlari;
- D) turli yig'imlar;

2. Davlat byudjeti xarajatlarining tarkibi nimalardan iborat?

- A) iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishga;
- V) mamalakat mudofasini mustahkamlashga;
- S) ijtimoiy madaniy tadbirlarga, mamlakatning boshqaruviga;
- D) yuqoridagilarning hammasi;

3. Umum davlat soliqlari tarkibiga qanday soliqlar kiradi?

A) yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i

V) qo'shilgan kiymat solig'i, aksiz solig'i, er qa'ridan foydalanganlik uchun soliq, mol-mulk solig'i

S) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq

D) a, s javoblarning hammasi

4. Soliq foyda miqdoriga qarab qanday bo'linadi?

A) proporsional soliq, progressiv soliq, regressiv soliq;

V) progressiv soliq;

S) regressiv soliq;

D) proporsional soliq

5. Soliq stavkasi kim tomonidan belgilanadi?

A) korxona tomonidan;

V) moliya vazirligi tomonidan;

S) davlat soliq qo'mitasi tomonidan;

D) Respublika Vazirlar Mahkamasi tomonidan.

III-BOB. YURIDIK SHAXSLARDAN OLINADIGAN FOYDA SOLIG'I

Reja:

3.1.Yuridik shaxslar foydasidan undiriladigan soliqni iqtisodiy mohiyati.

3.2.Yuridik shaxslarning soliqqa tortiladigan daromadlari.

3.3.Foya solig'i bo'yicha soliq solinadigan baza.

3.4.Foya solig'i stavkalari, to'lash muddatlari va tartibi.

Tayanch so'z va iboralar: soliqlar va soliqqa tortish, foya solig'i, soliqqa tortiladigan daromad, soliq tizimi, soliq siyosati, yuridik shaxs, jismoniy shaxs, to'g'ri soliqlar, egri soliqlar, infliyatsiya

3.1. Yuridik shaxslar foydasidan undiriladigan soliqni iqtisodiy mohiyati

Foya solig'i yuridik shaxslarning hamma faoliyatidan olgan daromadlari (foydasi) bir qismini byudjetga majburiy to'lovidir. Bu yerda soliq to'lovchilar soliqqa tortish maqsadida korxonalar, tashkilotlar, birlashmalar shu jumladan kichik biznes subyektlari o'zida, ixtiyorida mulki bo'lib, o'z majburiyatlarini shu mulklar bilan qaytara oladigan, bankda hisob raqamiga ega bo'lган va mustaqil buxgalteriya balansi bo'lган korxona va tashkilotlardir.


Yuridik shaxslardan olinadigan foya solig'i 2008 yil 1 yanvaridan kuchga kirgan. Soliq kodeksining 23-moddasiga ko'ra foya solig'i umum davlat solig'i tarkibiga kirib, u davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda asosiy manbalardan biri hisoblanadi.

Shuni ta'kidlash lozimki modernizatsiya davrida yuridik shaxslardan olinadigan foya solig'i 2020 yil 1 yanvaridan kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi (yangi tahriri) ning 32 moddasida yangicha talqin qilingan.

Yuridik shaxslar va ularning alohida bo'linmalariga quyidagilar yuridik shaxslar xisoblanadi:



1) O'zbekiston Respublikasining qonun hujjaligiga muvofiq tashkil etilgan yuridik shaxslar (O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari);



5-rasm. Yuridik shaxslardan undiriladigan soliq va boshqa majburiy to'lovlarining turkumlanishi.

Yuridik shaxslar va ularning alohida bo'linmalariga quyidagilar yuridik shaxslar xisoblanadi:

1) O'zbekiston Respublikasining qonun hujjaligiga muvofiq tashkil etilgan yuridik shaxslar (O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari);

2) chet davlatlarning qonun hujjaligiga muvofiq tashkil etilgan, fuqarolik huquqiy layoqatiga ega bo'lgan chet el yuridik shaxslari (shu jumladan kompaniyalar va boshqa korporativ tuzilmalar);

3) xalqaro tashkilotlar.

Soliq to'lovchi to'g'risidagi hisob ma'lumotlari

Ushbu Kodeksning maqsadlari uchun soliq to'lovchi to'g'risidagi hisob ma'lumotlari deganda soliq to'lovchi tomonidan soliq organlariga taqdim etilgan ma'lumotlar, shuningdek ushbu Kodeksda nazarda tutilgan tartibda organlar, muassasalar va tashkilotlar tomonidan yuborilgan ma'lumotlar tushuniladi.

Yuridik shaxs to'g'risidagi hisob ma'lumotlari tarkibiga quyidagilar kiradi, xususan:

- 1) soliq to'lovchining identifikatsiya raqami;
- 2) to'liq va qisqartirilgan nomi;
- 3) joylashgan yeri (pochta manzili);
- 4) tashkiliy-huquqiy shakli;
- 5) davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sana, joyi va raqami;
- 6) ustav fondining (ustav kapitalining) miqdori
- 7) alohida bo'linmalar to'g'risidagi ma'lumotlar;
- 8) O'zbekiston Respublikasining rezidentlari bo'lgan ishtirokchilar soliq to'lovchisining identifikatsiya raqami, chet ellik ishtirokchining mamlakati hamda har bir muassisning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushi ko'rsatilgan holda ishtirokchilarning to'liq tarkibi — tijorat tashkilotlari uchun.

Jismoniy shaxslar to'g'risidagi hisob ma'lumotlari tarkibiga ularning quyidagi shaxsiy ma'lumotlari kiritiladi:

- 1) soliq to'lovchining identifikatsiya raqami;
- 2) familiyasi, ismi, otasining ismi;
- 3) fuqaroligi;
- 4) jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami - O'zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun;
- 5) pasportining seriyasi va raqami, berilgan sanasi va joyi;
- 6) yashash joyi (manzili).

3.2. Yuridik shaxslarning soliqqa tortiladigan daromadlari

Yuridik shaxslarning soliqqa tortiladigan jami daromadlari yuridik shaxs tomonidan O'zbekiston Respublikasidagi va uning hududidan tashqaridagi manbalardan hisobot (soliq) davri mobaynida olingan daromadlaridan iboratdir. (297-modda)

Yuridik shaxslarning soliqqa tortiladigan jami daromadlariga xususan, quyidagi daromadlar kiradi:

- 1) tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromad;
- 2) kredit (qarz, mikrokredit va boshqa moliyaviy operatsiyalar) bo'yicha mukofot tarzidagi daromad;
- 3) sug'urta, qayta sug'urta tashkilotining sug'urta, qayta sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha daromadi;
- 4) REPO operatsiyalar bo'yicha daromad;
- 5) qimmatli qog'ozlar va (yoki) muddatli bitimlarning moliyaviy vositalariga doir operatsiyalar bo'yicha olingan daromad;
- 6) asosiy vositalarning va boshqa mol-mulkning chiqib ketishidan olingan daromad;
- 7) moliyaviy ijara (lizing) shartnomasiga binoan mol-mulkni berish bo'yicha pul mukofoti tarzidagi daromad;
- 8) mol-mulkni mulk ijarasiga (ijaraga) berishdan olingan daromad,
- 9) royalty;
- 10) tekin olingan mol-mulk (olingan xizmatlar);
- 11) inventarizatsiya natijasida aniqlangan ortiqcha tovar-moddiy zaxiralarning va boshqa mol-mulkning qiymati tarzidagi daromad;
- 12) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda majburiyatlarni hisobdan chiqarishdan olingan daromad;
- 13) talab qilish huquqidan o'zganing foydasiga voz kechish shartnomasi bo'yicha olingan daromad;
- 14) ilgari chegirib tashlangan xarajatlar yoki zararlarning o'rmini qoplash tarzidagi daromad;
- 15) xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklardan olinadigan daromad;
- 16) birgalikdagi faoliyatda ishtirok etishdan olingan daromad;

17) qarzdor tomonidan e'tirof etilgan yoxud qarzdor tomonidan sudning qonuniy kuchga kirgan hujjati asosida shartnoma majburiyatlarini buzganlik uchun to'lanishi lozim bo'lgan jarimalar, penyalar va boshqa sanksiyalar, shuningdek zararlarning (ziyonning) o'rmini qoplash summalari;

18) kursdagi ijobiy farq;

19) dividendlar va foizlar;

20) ishonchli boshqaruv muassisi tomonidan mol-mulkni ishonchli boshqarishdan olingan daromad;

21) shakllantirilish xarajatlari belgilangan tartibda va shartlarda xarajatlar tarkibiga qabul qilingan, qayta tiklangan zaxiralar summalari;

22) aksiyador, ishtirokchi yuridik shaxs foydasiga o'z ulushining (ulushi bir qismining) qiymatini olishdan voz kechgan taqdirda, mazkur yuridik shaxsning ustav fondi (ustav kapitali) kamayishi munosabati bilan olgan daromad;

23) korxonani mol-mulk majmui sifatida sotishdan olingan daromad;

24) narxlarga tuzatishlar kiritish tufayli olingan daromad;

25) chet el kompaniyasining foyda tarzidagi daromadi;

26) boshqa daromadlar.

Daromadlar soliq to'lovchi tomonidan olingan daromadlarni tasdiqlovchi birlamchi hujjatlar va boshqa hujjatlar, shu jumladan elektron hujjatlar, shuningdek soliqni hisobga olishga doir hujjatlar asosida aniqlanadi.

Jami daromad ushbu bo'lim maqsadlarida pul, natura shaklida va boshqa shakllarda kelib tushgan barcha tushumlardan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Soliq to'lovchi tomonidan olingan, qiymati chet el valyutasida ifodalangan daromadlar qiymati milliy valyutada ifodalangan daromadlar bilan birgalikda hisobga olinadi.

Agar daromadni buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq e'tirof etish daromadni ushbu Kodeksga muvofiq

aniqlash va e'tirof etish tartibidan farq qilsa, mazkur daromad soliq solish maqsadlarida ushbu Kodeksda belgilangan tartibda hisobga olinadi.

Agar ushbu bo'limda boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlarini qo'llash chog'ida aktivlar va majburiyatlarning qiymati o'zgarganligi munosabati bilan buxgalteriya hisobida aks ettirilgan daromadlarga soliq solish maqsadidagi daromadlar sifatida qaralmaydi, bundan haqiqatda olingen daromadlar mustasno.

Agar ushbu Kodeksda boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, daromadni e'tirof etish sanasi buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq aniqlanadi.

3.3. Foyda solig'i bo'yicha soliq solinadigan baza.

Foyda solig'i bo'yicha aniqlanadigan, soliq solinishi lozim bo'lган foyda summasi soliq bazasi hisoblanadi. (Soliq kodeksi 296-modda)

Soliq bazasini belgilangan tartibda va shartlarda aniqlashda soliq to'lovchi daromadlarining va xarajatlarining (zararlarining) ayrim turlari maxsus qoidalar bo'yicha inobatga olinishi yoki inobatga olinmasligi mumkin.

Soliq to'lovchi foydani va zararni hisobga olishning umumiyligi tartibidan farq qiladigan tartibi nazarda tutilgan operatsiyalar bo'yicha daromadlarning (xarajatlarning) alohida-alohida hisobini yuritadi.

Soliq bazasi, soliq davri boshlanganidan e'tiboran ortib boruvchi yakun bilan aniqlanadi.

Soliq to'lovchi tomonidan hisobot (soliq) davrida ko'rilgan zararlar soliq solish maqsadlarida soliq bazasini belgilangan tartibda va shartlarda kamaytiradi.

Soliq bazasi nazorat qilinadigan chet el kompaniyalarining belgilanadigan umumiyligi foydasini ham o'z ichiga oladi.

Soliq bazasiga ushbu bo'limda belgilangan hollarda va tartibda tuzatishlar kiritiladi.

Soliq to'lovchining daromadlariga va xarajatlariga (zararlariga) ba'zi hollarda tuzatishlar kiritiladi.

Natura shaklidagi daromadlar va xarajatlar, agar ushbu qismda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, soliq to'lovchi tomonidan bitimning haqiqiy narxidan kelib chiqqan holda inobatga olinadi. Agar bunday bitimdagi tovarlarning (xizmatlarning) narxi ularning bozor narxidan farq qilsa va bunday farqlanish soliq to'lovchining soliq bazasi kamayishiga yoki zarari ko'payishiga olib kelsa, soliq bazasi belgilanadigan bozor narxlaridan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Foyda solig'ini to'lovchilari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- 1) O'zbekiston Respublikasining soliq rezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar;
- 2) O'zbekiston Respublikasining norezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar, shuningdek O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasalar orqali amalga oshiradigan, yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi chet el tuzilmalari;
- 3) O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan daromadlar oluvchi O'zbekiston Respublikasi norezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar;
- 4) soliq to'lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining mas'ul ishtirokchilari bo'lgan yuridik shaxslar;
- 5) soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olgan daromadlari bir milliard so'mdan ortiq bo'lgan yoki o'z ixtiyori bilan foyda solig'ini to'lashga o'tgan yakka tartibdagi tadbirkorlar;
- 6) oddiy shirkat shartnomasi (birgalikdagi faoliyat to'g'risidagi shartnama) doirasida amalga oshiriladigan faoliyat bo'yicha oddiy shirkatning ishonchli shaxsi.

Foyda solig'ini obyekti bo'lib, soliq to'lovchi tomonidan olingan foyda foyda solig'i bo'yicha soliq solish obyekti hisoblanadi.

Ushbu bo'lim maqsadida quyidagilar foyda deb e'tirof etiladi:

- 1) yuridik shaxs uchun — ushbu bo'limda nazarda tutilgan jami daromad va xarajatlar o'rtasidagi farq;

2) faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiruvchi norezident uchun Kodeksda belgilangan o'ziga xos xususiyatlar inobatga olingan holda, nazarda tutilgan doimiy muassasaning faoliyati bilan bog'liq bo'lган jami daromad, shu jumladan bunday doimiy muassasaning faoliyati bilan bog'liq bo'lган, O'zbekiston Respublikasidan tashqaridagi manbalardan olingan daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi farq;

3) norezident uchun - O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromadlar;

4) yakka tartibdagi tadbirkor uchun – nazarda tutilgan jami daromad va xarajatlar o'rtasidagi farq;

5) zimmasiga oddiy shirkat ishlarini yuritish yuklatilgan shaxs uchun – birgalikda ishlab chiqarilgan tovari (ko'rsatilgan xizmatni) realizatsiya qilishdan olingan daromad va birgalikda ishlab chiqarilib realizatsiya qilingan tovarga (xizmatga) to'g'ri keladigan birgalikdagi faoliyatga kiritilgan mablag'lar summasi o'rtasidagi farq.

3.4. Foyda solig'i stavkalari, to'lash muddatlari va tartibi

Yuridik shaxslarning foyda solig'i stavkalari har yili Oliy Majlis tomonidan Vazirlar Mahkamasining yangi yilga byudjet parametrlarini ko'rib chiqqanda tasdiqlanadi.

Yuqori chegara stavkasi 1998 yilda 36%, 2005 yilda 15%, 2006 yilda 12%, 2014 yilda 8%, 2015 yilda 7,5%, 2018 yilda 14%, 2020 yilda-15% qilib belgilangan.

Soliq to'lovchilar ko'rsatilgan faoliyatning barcha turlari bo'yicha belgilangan soliq stavkasini qo'llaydi.

Soliq to'lovchilar, agar o'zi ishlab chiqargan qishloq xo'jaligi mahsulotini realizatsiya qilishdan olingan daromadlari jami daromadning 90 foizdan ko'prog'ini tashkil etsa, faoliyatning barcha turlari bo'yicha 0 foiz miqdorida soliq stavkasini qo'llashga haqlidir.

O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi (yangi taxriri)da 2020 yil 1 yanvaridan boshlab yuridik shaxslarning foydasiga soliq quyidagicha belgilandi.(3.4.1-jadval)

3.4.1-jadval

Yuridik shaxslar foydasiga soliq stavkalari⁷

T/r	Soliq to'lovchilar	Soliq stavkalari, foizlarda
1	Banklar	20
2	Quyidagi soliq to'lovchilar: sement (klinker) ishlab chiqarishni amalga oshiruvchi; polietilen granulalar ishlab chiqarishni amalga oshiruvchi; faoliyatining asosiy turi mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatishdan iborat bo'lgan	20
3	O'zi ishlab chiqqagan o'z qishloq xo'jaligi mahsulotini realizatsiya qilishdan olingan foyda bo'yicha ushbu Kodeksning 57-moddasida nazarda tutilgan mezonlarga javob beruvchi qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari va baliq xo'jaligi korxonalari	0
4	Ijtimoiy sohada faoliyatni amalga oshiruvchi soliq to'lovchilar	0
5	Qo'shimcha manbalardan daromadlar oluvchi byudjet tashkilotlari	0
6	Tovarlarni (ishlarni) eksportga realizatsiya qilishdan olingan foyda	0
7	Bozor va savdo komplekslarida xizmat ko'rsatishdan olingan foyda	20
8	Tovarlarning (xizmatlarning) elektron savdosini amalga oshiruvchi elektron tijorat sub'ektlarining milliy	7,5

⁷ O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi (yangi taxriri). Toshkent "NORMA" 30.12.2019y 47-bob.337-modda 245-246 betlar

	reestriga kiritilgan soliq to'lovchilar	
9	Yagona ishtirokchilari nogironligi bo'lgan shaxslarning jamoat birlashmalari bo'lgan va umumiylar sonida nogironligi bo'lgan shaxslar kamida 50 foizni tashkil etadigan va nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnatiga haq to'lash jamg'armasi mehnatga haq to'lash umumiylar fondining kamida 50 foizini tashkil etadigan soliq to'lovchilar	0
10	O'zbekiston Respublikasi Xalq banki tomonidan fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag'lardan foydalanishdan olinadigan daromadlar	0
11	Dividendlar tarzidagi daromadlar	5
12	Qolgan soliq to'lovchilar, bundan 1 – 11-bandlarda ko'rsatilganlar mustasno	15

Ijtimoiy sohada faoliyatni amalga oshiruvchi soliq to'lovchi ushbu belgilangan mezonlarga rioya etmagan taqdirda, mazkur shartlarga rioya etmaganlik ro'y bergen soliq davrining boshlanishidan e'tiboran soliq stavkasini ilgari o'tgan soliq davrlari uchun aniqlashtirilgan soliq hisobotini taqdim etgan holda qo'llaydi.

Soliq to'lovchilar, agar ko'rsatilgan faoliyat turlarini amalga oshirishdan olingan daromadlar joriy hisobot (soliq) davri yakunlari bo'yicha jami daromadning kamida 90 foizini tashkil etsa, 7,5 foiz miqdoridagi soliq stavkasini qo'llashga haqli.

Qo'shimcha manbalardan daromad oluvchi byudjet tashkilotlari, basharti bo'shatilayotgan mablag'lardan qonun hujjalarda belgilangan tartibda byudjet tashkilotlarining moddiy-texnika va ijtimoiy bazasini mustahkamlash, o'z xodimlarini moddiy rag'batlantirish uchun maqsadli tarzda foydalansa, 2023 yilning 1 yanvariga qadar 0 foiz miqdoridagi soliq stavkasini qo'llaydi. (Soliq Kodeksi 337-modda)

O'zida ishlovchilarning umumiy o'rtacha yillik sonining 3 foizidan ko'prog'i nogironligi bo'lgan shaxslarni tashkil etadigan yuridik shaxslar uchun soliq stavkasi ushbu moddada belgilangan normadan ortiqcha ishga joylashtirilgan nogironlarning har bir foiziga soliq stavkasining bir foizi hisobidan kamaytiriladi.

Soliq to'lovchilar tomonidan, agar tovarlarni (xizmatlarni) eksport qilishdan olinadigan daromadlar jami daromadning kamida 15 foizini tashkil etsa, qo'llaniladi.

Tovarlar eksport qilinganda, shu jumladan tovar vositachi (ishonchli vakil) orqali realizatsiya qilinganda, 0 darajali foiz miqdoridagi soliq stavkasi soliq to'lovchilar tomonidan, tovarlarning eksportini tasdiqllovchi hujjatlar mavjud bo'lganda, qo'llaniladi.

Tovarlar eksport qilinganda, 0 darajali foiz miqdoridagi soliq stavkasi soliq to'lovchilar tomonidan, tovarlarni chet el valyutasida eksport qilish yuzasidan daromadlar tovarlar (xizmatlar) eksportga chiqarilgan kundan e'tiboran bir yuz sakson kalendar kuni ichida kelib tushmagan taqdirda, qo'llanilmaydi.

Soliq davri kalendar yil soliq davridir. Yilning choragi hisobot davridir.

Soliqni to'lash muddatlari. Hisobot davri yakunlari bo'yicha soliq summasi soliq davrining boshidan oshib boruvchi yakun bilan, agar ushbu moddada boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, soliq bazasining soliq stavkasiga muvofiq bo'lgan foizlardagi ulushi sifatida hisoblab chiqariladi.

Soliq hisoboti barcha soliq to'lovchilar tomonidan har bir hisobot va soliq davri o'tganidan keyin soliq bo'yicha hisobda turgan joyidagi soliq organiga taqdim etiladi.

Soliq hisoboti quyidagi muddatlarda taqdim etiladi:

- 1) hisobot davri yakunlari bo'yicha – hisobot davridan keyingi oyning yigirmanchi kunidan kechiktirmay;
- 2) soliq davri yakunlari bo'yicha – soliq davri o'tgandan keyingi yilning 1 martidan kechiktirmay.

Chet davlatning qonun hujjatlariga va (yoki) O’zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasiga muvofiq haqiqatda to’langan (ushlab qoltingan) foyda solig’ining summasi yoki ushbu chet davlatda olingan daromadlardan olinadigan aynan o’xhash turdagи soliq O’zbekiston Respublikasida foyda solig’ini to’lash hisobidan soliq to’lovchida ushbu moddada belgilangan tartibda va miqdorlarda hisobga olinishi lozim.

Foyda solig’i summasi yoki O’zbekiston Respublikasi hududidan tashqaridagi manbalardan olingan daromadlardan olinadigan aynan o’xhash turdagи soliqni hisobga olish bir vaqtning o’zida quyidagi shartlarga rioya etilgan holda amalga oshiriladi:

- 1) O’zbekiston Respublikasida soliq solinishi lozim bo’lgan daromad bo’yicha;
- 2) O’zbekiston Respublikasi bilan xalqaro shartnoma mavjud bo’lganda;
- 3) bunday soliq to’langanligini (ushlab qoltinganligini) tasdiqlovchi hujjat mavjud bo’lganda.

Foyda solig’ining yoki O’zbekiston Respublikasidan tashqarida to’langan (ushlab qoltingan), aynan o’xhash turdagи soliq hisobga olinadigan summasining miqdori soliq to’lovchi ko’rsatilgan daromad olinishi lozim bo’lgan (olingan) soliq davri uchun to’lashi lozim bo’lgan foyda solig’i summasidan oshib ketishi mumkin emas.

Qisqacha xulosalar

Yuridik shaxslarning to’laydigan soliq ichida ularning foydasiga soliq byudjet daromadlari tarkibida katta o’rin egallaydi. Bu soliq to’g’ri soliq bo’lgani uchun xo’jalik subyektlarining to’g’ridan to’g’ri moliyaviy ahvoli bilan bog’liq va unga ta’sir etadi. 1995 yil yanvar oyidan boshlab soliqning rag’batlantiruvchi rolini kuchaytirish maqsadida mamlakatimizda korxonalarning foydasidan olinadigan soliq joriy etildi. SHu bilan birga soliq to’lovchilarning ayrim toifalari uchun daromad solig’i saqlab qolindi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Yuridik shaxslar foydasiga soliq qaysi soliq tarkibiga kiradi ?
2. Foyda solig'ini to'lovchilari kimlar ?
3. Foyda solig'ini obyektiga nimalar kiradi ?
4. Yuridik shaxslar foydasiga 2019 yilda soliq stavkalari nechi foizni tashkil etadi?
5. Yuridik shaxslar foydasiga soliqni hisoblash va to'lash tartibi qanday amalga oshiriladi ?

Mavzuga oid topshiriqlar:

Topshiriq-1. Foyda solig'i to'lovchisi bo'lgan "Zafar nomli to'qimachilik korxona" yuridik shaxsning soliq solinadigan foydasi 1,5 milliard so'm bo'lgan

Hisobot davri uchun korxona to'lashi lozim bo'lgan foyda solig'i necha so'mga teng? (soliq stavkasi 15%)

Topshiriq-2. Yengil sanoat tarkibidagi "E'zoza" nomli tikuv korxonasi, yotoqxona xalatini tikib chiqaradi.

Korxona ko'rsatkichlari quyidagicha:

1. Yotoqxona xalatini tikish uchun 8115,0 ming so'mga gazlama va boshqa kerakli narsalar sotib olgan;
2. Ulardan 1000 ta yotoqxona xalatini ishlab chiqargan;
3. Yotoqxona xalatining (bir donasi) tannarxi 150000 so'm, sotish narxi QQSSiz 190 000 so'm;

Ishlab chiqarilgan yotoqxona xalatlari quyidagicha tarqatilgan:

500 tasi ichki bozorda sotilgan, 400 tasi tashqi bozorda sotilgan, 50 tasi o'z ishchilariga 120 000 so'mdan berilgan, 40tasi kasalxonaga tekinga berilgan, 10 tasi xodimlarning tug'ilgan kunlariga sovg'a qilingan.

Keltirilgan ma'lumotlar asosida quyidagilarni aniqlang:

1. Korxonaning jami daromadi va xarajatlari
2. Soliqqa tortiladigan bazasini
3. Foyda solig'i summasini
4. Qo'shilgan qiymat solig'ini
5. Soliq bazasini aniqlashda tashqi bozorda sotilgan yotoqxona xalatining qiymati qachon hisobga olinadi va qachon hisobga olinmaydi?

Testlar

1. Hozirgi kundagi foyda solig'ining stavkasi qancha?

A) 10 %; S) 36 %; D) 20 %; C) 15 %

2. Xorijiy korxonalar uchun foyda solig'i bo'yicha qanday imtiyozlar bor?

A) ustav fondida 40 % sarmoya bo'lganda;

V) ustav fondida 50% va undan yuqori sarmoya bo'lib, olingan foyda ishlab chiqarishni kengaytirish uchun sarflanganda dastlabki ikki yil soliq to'lamaydi;

S) ustav fondida 50 % sarmoya bo'lsa yetarli;

D) ustav fondidagi sarmoyaga bog'liq emas

3. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i qachondan kuchga kirgan?

A) 2008 yil 1 yanvaridan kuchga kirgan.

V) 2010 yil 1 yanvaridan kuchga kirgan

S) 2015 yil 1 yanvaridan kuchga kirgan

D) 2020 yil 1 yanvaridan kuchga kirgan

4. Soliq kodeksining 23-moddasiga ko'ra foyda solig'i qanday soliq tarkibiga kiradi?

A) umumdavlat solig'i tarkibiga kiradi

V) Mahalliy soliqlar tarkibiga kiradi

S) Respublika byudjetiga

D) Maxalliy byudjetga

5. 2020 yil 1 yanvaridan kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi (yangi tahriri)ning nechinchi moddasida foyda solig'iga ta'rif berilgan?

A) 32- moddasida S) 20-moddasida

V) 16- moddasida D) 45-moddasida

4- BOB. JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG’I.

Reja:

- 4.1.Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig’i va uning o’ziga xosligi.
- 4.2.Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig’i soliq solish obyekti va soliqqa tortiladigan baza.
- 4.3.Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadi tarkibi, stavkalari va soliqdan beriladigan imtiyozlar.
- 4.4. Jami yillik daromad to’g’risidagi deklaratsiya.



POJŠČ ME

Tayanch so’z va iboralar: rezident va norezidentlar, jismoniy shaxslarning daromad solig’i, deklaratsiya, soliq ob’ekti, soliq to’lovchilar, soliq stavkasi, soliq bo’yicha imtiyozlar.

4.1.Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig’i va uning o’ziga xosligi

Jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliq – davlat byudjeti daromad manbalaridan biri bo’lib, u umum davlat soliqlari tarkibiga kiradi. Uning o’ziga xos xususiyati shundaki, soliq jismoniy shaxslarning bevosita daromadlaridan olinadi.

Soliq jismoniy shaxslarning bevosita daromadlaridan olinishiga qarab, jami daromadga kiritilmaydigan daromadlarga va jami daromadga kiritiladigan daromadlarga bo’linadi. Mazkur soliq kodeksining 369-moddasida jami daromadga kiritilmaydigan daromadlar quyidagicha talqin qilingan.

Quyidagilar jami daromad tarkibiga kiritilmaydi:

- 1) O’zbekiston Respublikasining davlat mukofotlariga va davlat pul mukofotlariga sazovor bo’lgan soliq to’lovchi olgan bir yo’la beriladigan davlat pul mukofoti yoki shunga teng bahodagi esdalik sovg’alarining qiymati, shuningdek O’zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O’zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasining qarori asosida bir yo'la beriladigan pul mukofoti va sovg'alar;

2) donorlik uchun pul mukofotlari, shuningdek tibbiyot muassasalarining xodimlari tomonidan qon olganlik uchun olinadigan summalar;

3) olingan alimentlar;

4) fuqarolar tomonidan olinadigan sug'urta tovoni summalari;

5) qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda va tartibda to'lanadigan stipendiyalar;

6) qonun hujjatlariga muvofiq uy-joy kommunal xizmatlar haqqini to'lash bo'yicha har oylik kcompensatsiya pul to'lovlar;

7) davlat pensiyalari, ijtimoiy sug'urta (homiladorlik va bola tug'ilganda beriladigan tug'ish nafaqlari, qo'shimcha dam olish kuni, dafn etish) bo'yicha nafaqalar;

8) majburiy jamg'arib boriladigan pensiya badallari, ular bo'yicha foizli daromadlar, shuningdek jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlar;

9) qonun hujjatlarida belgilanadigan tartibda o'zini o'zi band qilgan shaxslarning mehnat faoliyati natijasida olingan daromadlar;

10) O'zbekiston Respublikasi va O'zbekiston Respublikasi rezidentlari bo'lган yuridik shaxslar tomonidan chiqarilgan xalqaro obligatsiyalar bo'yicha daromadlar.

Jismoniy shaxs foydasiga amalga oshiradigan quyidagi xarajatlariga soliq to'lovchining daromadi sifatida qaralmaydi:

1) mehnat sharoitlari noqulay bo'lган ishlarda band bo'lган xodimlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sut, davolash-profilaktika oziq-ovqati, gazlangan sho'r suv, shaxsiy himoya va gigiena vositalari bilan ta'minlash bo'yicha xarajatlari;

2) kasaba uyushmasi qo'mitasi tomonidan amalga oshiriladigan to'lovlar, shu jumladan a'zolik badallari hisobidan kasaba uyushmasi a'zolariga beriladigan moddiy yordam, bundan kasaba uyushmasi qo'mitasining xodimlariga mehnat vazifalarini bajarganlik uchun beriladigan pul mukofotlari va boshqa to'lovlar mustasno;

3) favqulodda holatlar munosabati bilan yetkazilgan zararlar summasi doirasida beriladigan moddiy yordam summalari;

4) xodimlarni ish joyiga olib borish va olib qaytish bo'yicha xarajatlari;

5) diniy rasm-rusumlar va marosimlarni, bayram tantanalarini o'tkazish, vakillik xarajatlari, shahar yo'lovchilar transportida xodimlarning xizmat qatnovlari uchun foydalaniladigan yo'l kartochkalarini olish, shuningdek yuridik shaxsning xodimlarning mehnat va dam olish sharoitlarini ta'minlash bilan bog'liq hamda muayyan jismoniy shaxslarning daromadi hisoblanmaydigan boshqa xarajatlari;

6) xodimga xizmat vazifalarini bajarish uchun zarur bo'lgan maxsus kiyim-bosh, maxsus poyabzal, formalii kiyim-bosh berish xarajatlari yoki ularni pasaytirilgan baholarda sotish munosabati bilan qilingan xarajatlar, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda ayrim toifadagi xodimlarni o'z xizmat vazifalarini bajarishi chog'ida oziq-ovqat bilan ta'minlash bo'yicha xarajatlari;

7) xodim boshqa joyga ishga o'tkazilganda yoxud ko'chib borganda ko'chish, mol-mulkini ko'chirib borish, joy ijarasi (yo'l xarajatlari uchun beriladigan pul) bilan bog'liq xarajatlarni to'lash yoki bu xarajatlarning o'rmini qoplash xarajatlari;

8) xizmat safarlariga oid kompensatsiya to'lovlari;

9) qonun hujjatlarida nazarda tutilgan normalar doirasida xodimga to'lanadigan kompensatsiya to'lovlari (kompensatsiyalar);

10) mehnatda mayib bo'lganlik yoki sog'liqqa boshqacha tarzda shikast etganlik bilan bog'liq zararning o'rmini qoplash bo'yicha quyidagi miqdordagi to'lovlari:

jabrlanuvchi mehnatda mayib bo'lganiga qadar olgan o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan foiz hisobidagi, uning kasbga oid mehnat qobiliyatini yo'qotganlik darajasiga muvofiq belgilanadigan har oylik to'lovlari (voyaga yetmagan shaxs mehnatda mayib bo'lib qolgan taqdirda, zararning o'rni uning ish haqi (daromadi) miqdoridan kelib chiqqan holda, lekin qonun hujjatlarida belgilangan mehnatga haq

to'lashning eng kam miqdorining 1,76 baravaridan kam bo'lмаган miqdorda qoplanadi);

maxsus tibbiy parvarishga muhtoj jabrlanuvchilarga qo'shimcha xarajatlar uchun oyiga mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 70,3 foizi miqdoridagi to'lovlari;

jabrlanuvchining maishiy parvarishi uchun qo'shimcha xarajatlar tariqasida har oyda mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 17,6 foizi miqdoridagi to'lovlari;

xodimning sog'lig'iga shikast yetkazilganligi munosabati bilan ish beruvchi tomonidan bir yo'la to'lanadigan nafaqa tariqasida jabrlanuvchining yillik o'rtacha ish haqi miqdoridagi to'lovlari;

11) boquvchisi vafot etganligi munosabati bilan quyidagi miqdordagi to'lovlari:

marhumning o'rtacha ish haqining vafot etgan boquvchining qaramog'ida bo'lgan va uning vafoti munosabati bilan zararni undirishga haqli bo'lgan mehnatga qobiliyatsiz shaxslarga to'g'ri keladigan ulushi miqdoridagi to'lovlari;

boquvchisi vafot etganligi munosabati bilan zararni undirishga haqli bo'lgan shaxslarga bir yo'la to'lanadigan nafaqa tariqasida marhumning o'rtacha yillik ish haqining olti baravari miqdoridagi to'lovlari;

12) talabalarning ta'lim olishi uchun O'zbekiston Respublikasining oliy o'quv yurti bilan to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha pulli-kontrakt asosida o'tkaziladigan to'lovlari;

13) xodimlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash xarajatlari.

4.2. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i soliq solish obyekti va soliqqa tortiladigan baza

Jismoniy shaxslar daromadiga **soliqni to'lovchilari** bo'lib, moliya yilda soliqqa tortiladigan daromadga ega bo'lgan har qanday jismoniy shaxs hisoblanadi.

Soliqqa tortish maqsadida jismoniy shaxslar daromadi rezidentlar va norizidentlar daromadiga bo'linadi.

Soliq to'lovchining jami daromadi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining **soliq solish obyekti** deb hisoblanadi. Soliq Kodeksiga muvofiq belgilanadigan jami yillik daromad hisoblanadi. (Soliq Kodeksi 365-modda)

Soliq bazasi quyidagilar hisoblanadi:

1) O'zbekiston Respublikasining rezidentlari bo'lgan jismoniy shaxslar uchun - soliq imtiyozlarini hisobga olgan holdagi jami daromadlari;

2) O'zbekiston Respublikasining norezidentlari bo'lgan jismoniy shaxslar uchun - soliq imtiyozlari qo'llanmagan holdagi jami daromadlari.

Soliq bazasini aniqlashda soliq to'lovchining ham pul shaklida, ham natura shaklida olgan daromadlari yoki daromadlarni tasarruf etish uchun yuzaga kelgan huquqlari, shuningdek moddiy naf tarzidagi daromadlari hisobga olinadi. Bunda soliq to'lovchining alohida turdag'i daromadlari belgilangan shartlarda va tartibda jami daromad tarkibida hisobga olinishi yoki hisobga olinmasligi mumkin.

Soliq to'lovchining chet el valyutasida ifodalangan daromadlari, haqiqatda daromadlar olingan sanadagi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo'yicha milliy valyutaga qayta hisob-kitob qilinadi.

Turli soliq stavkalari bo'yicha solinadigan soliq bazasi alohida aniqlanadi.

Soliq bazasi, soliq davri boshidan e'tiboran o'sib boruvchi yakun bilan aniqlanadi.

Soliq bazasi nazorat qilinadigan chet el kompaniyalarining ushbu Kodeksning yig'ma foydasini ham o'z ichiga oladi. Soliq bazasiga ushbu bo'limda belgilangan hollarda va tartibda tuzatish kiritiladi.

Agar soliq to'lovchining daromadidan uning o'z farmoyishiga, sudning yoki boshqa organlar va tashkilotlarning qaroriga ko'ra ushlab qolishlar amalga oshirilsa, bunday ushlab qolishlar soliq bazasini kamaytirmaydi.

4.3. Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadi tarkibi, stavkalarini va soliqdan beriladigan imtiyozlar.

Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadi tarkibiga soliq to'lovchi olishi mumkin bo'lgan, yoki tekinga olgan pul, yoki buyum shaklida olgan mablag'lari kiradi. (Soliq Kodeksi 370-modda)

Jismoniy shaxslarning jami daromadlari tarkibi 4 guruxga bo'linadi.

1. Mehnatga xaq to'lash tarzidagi daromadlar;
2. Jismoniy shaxslarning mulkiy daromadlari;
3. Moddiy naf tarzidagi daromadlar;
4. Boshqa daromadlar.

1. Mehnatga haq to'lash shaklida olinadigan daromadlarga ish beruvchi bilan mehnatga oid munosabatlarda bo'lgan va tuzilgan mehnat shartnomasiga (kontraktiga) muvofiq ishlarni bajarayotgan xodimlarga hisoblanadigan hamda to'lanadigan quyidagi barcha to'lovlar mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar deb ataladi:


-mehnatga haq to'lashning qabul qilingan shakllari va tizimlariga muvofiq ishbay narxlardan, tarif stavkalaridan va mansab maoshlaridan kelib chiqqan holda hisoblab chiqarilgan, haqiqatda bajarilgan ish uchun hisoblangan ish haqi;

- ilmiy daraja va faxriy unvon uchun ustamalar;
- rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar;
- kompensatsiya to'lovleri (kompensatsiya);
- ishlanmagan vaqt uchun haq to'lash;
- haqiqatda bajarilgan ish uchun haq hisoblangan boshqa to'lovlar.

Mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar jumlasiga quyidagilar ham kiradi:

O'zbekiston Respublikasining Mudofaa, Ichki ishlari va Favqulodda vaziyatlar vazirliklarining, O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati, O'zbekiston Respublikasi Milliy gardiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat xavfsizlik xizmatining, harbiy xizmatchilariga, ichki ishlari organlarining oddiy askarlar, serjantlar va ofitserlar tarkibiga hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining va boshqa harbiy xizmat nazarda

tutilgan idoralar xodimlariga xizmatni o'tashi (xizmat majburiyatlarini bajarishi) munosabati bilan to'lanadigan pul ta'minoti, pul mukofotlari va boshqa to'lovlar.



6- rasm. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i

Rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

- 1) yillik ish yakunlari bo'yicha pul mukofoti;
- 2) yuridik shaxsning mukofotlash to'g'risidagi nizomida nazarda tutilgan rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar;

- 3) kasb mahorati, murabbiylik uchun tarif stavkalariga va maoshlarga ustamalar;
- 4) ta'tilga qo'shimcha haqlar hamda moddiy yordam;
- 5) ko'p yil ishlaganlik uchun pul mukofoti va to'lovlar;
- 6) ratsionalizatorlik taklifi uchun to'lov;
- 7) mehnat natijalari bilan bog'liq bo'limgan bir yo'la beriladigan mukofotlar.

Mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadga kiritiladigan **kompensatsiya to'lovlar** jumlasiga quyidagilar kiradi:

1) tabiiy-iqlim sharoitlari noqulay bo'lgan joylardagi ishlar bilan bog'liq qo'shimcha to'lovlar (ish staji uchun ustamalar, baland tog'li, cho'l va suvsiz hududlarda ishlaganlik uchun belgilangan koeffitsientlar bo'yicha to'lovlar). Bunda yuridik shaxslar xodimlarining cho'l va suvsiz joylarda, baland tog'li va tabiiy-iqlim sharoiti noqulay hududlarda ishlaganlik uchun ish haqiga koeffitsientlar hisoblashning eng yuqori summasini aniqlash hisoblash sanasida belgilangan mehnatga haq to'lash eng kam miqdorining 1,41 baravari miqdorida belgilanadi;

2) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan kasblar va ishlar ro'yxati bo'yicha og'ir, zararli, o'ta zararli mehnat sharoitlarida ishlaganlik uchun ustamalar, shu jumladan shunday sharoitlardagi uzlusiz ish staji uchun ish haqiga ustamalar;

3) texnologik jarayon jadvalida nazarda tutilgan tungi vaqtida, ish vaqtidan tashqari, dam olish kunlarida va bayram (ishlanmaydigan) kunlarida ishlaganlik uchun tarif stavkalariga hamda maoshlarga ustamalar va qo'shimcha to'lovlar;

4) ko'p smenali rejimda ishlaganlik, shuningdek bir necha kasbda, lavozimda ishlaganlik, xizmat ko'rsatish doirasi kengayganligi, bajariladigan ishlar hajmi ortganligi, o'zining asosiy ishi bilan bir qatorda ishda vaqtincha bo'limgan xodimlarning vazifalarini bajarganlik uchun ustamalar;

5) doimiy ishi yo'lda kechadigan, harakatlanish va (yoki) qatnov tusiga ega bo'lgan xodimlarning, shuningdek doimiy ishi ishlarning

vaxta usulida bajarilishini nazarda tutadigan xodimlarning ish haqiga qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha to'lanadigan ustamalar;

6) ish beruvchi joylashgan yerdan (yig'ilish punktidan) ishslash joyigacha borish va u yerdan qaytish uchun vaxtada ishslash jadvalida nazarda tutilgan ishlar vaxta usulida bajarilgan holda yo'lga ketadigan kunlar, shuningdek xodimlar meteorologik sharoitlar sababli va transport tashkilotlarining aybi bilan yo'lda ushlanib qolgan kunlar uchun tarif stavkasi yoki maosh miqdorida to'lanadigan summalar;

7) yer osti ishlarida doimiy band bo'lган xodimlarga ularning stvoldan ishslash joyiga borish va u yerdan qaytish uchun shaxtada (konda) harakatlanishining me'yoriy vaqtini uchun to'lanadigan qo'shimcha haqlar;

8) qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha dala ta'minoti;

9) xizmat safarlari vaqtida qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha kundalik xarajatlar uchun haq (sutkalik pullar);

10) ishlar vaxta usulida tashkil etilganda, ish vaqtini umumlashtirilgan holda hisobga olinayotganda va qonun hujjatlarida belgilangan boshqa hollarda xodimlarga ish vaqtining belgilangan davomiyligidan ortiq ishlaganligi munosabati bilan beriladigan dam olish kunlari (otgullar) uchun to'lovlar;

11) xizmat safarlari uchun xodimning shaxsiy avtomobilidan yoki xizmat maqsadlari uchun uning boshqa mol-mulkidan qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha foydalanganlik uchun to'lovlar;

12) mehnatda mayib bo'lganlik yoki sog'liqqa boshqacha tarzda shikast yetganlik bilan bog'liq zararning o'rnini qoplash uchun ko'rsatilgan miqdorlardan ortiqcha olingan summalar;

13) oziq-ovqat va yo'l chiptalarining qiymati yoki oziq-ovqat va yo'l chiptalarining qiymatini qoplash.

Ishlanmagan vaqt uchun haq to'lash jumlasiga quyidagilar kiradi:

1) qonun hujjatlariga muvofiq:

a) yillik asosiy (uzaytirilgan asosiy) ta'til uchun to'lov, shuningdek ushbu ta'tildan foydalanilmaganda, shu jumladan xodim bilan mehnat shartnomasi bekor qilinganda pullik kompensatsiya to'lovi;

b) noqulay va o'ziga xos mehnat sharoitlarida, shuningdek og'ir va noqulay tabiiy-iqlim sharoitlarida ishlaganligi uchun ayrim tarmoqlarning xodimlariga beriladigan qo'shimcha ta'til uchun to'lov;

v) o'qish bilan bog'liq ta'til va ijodiy ta'tillar uchun to'lov;

g) o'n ikki yoshga to'limgan ikki va undan ortiq bolasi yoki o'n olti yoshga to'limgan nogironligi bo'lgan bolasi bor ayollarga berilgan qo'shimcha ta'til uchun to'lov;

2) asosiy ish haqi qisman saqlab qolning holda majburiy ta'tilda bo'lgan xodimlarga beriladigan to'lovlari;

3) donor xodimlarga ko'rikdan o'tish, qon topshirish va qon topshirilgan har bir kundan keyin beriladigan dam olish kunlari uchun to'lov;

4) O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga muvofiq davlat yoki jamoat vazifalarini bajarganlik uchun mehnatga to'lov;

5) qishloq xo'jaligi va boshqa ishlarga jalb qilinadigan xodimlarning asosiy ish joyi bo'yicha saqlab qolinadigan ish haqi;

6) ma'lum muddatga avvalgi ish joyi bo'yicha lavozim maoshi miqdori saqlab qolning holda boshqa yuridik shaxslardan ishga joylashtirilgan, shuningdek vaqtinchalik vazifani bajarib turgan xodimlarga maoshdagi farq to'lovi;

7) xodimlarga kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimida ishdan ajralgan holda o'qishlari vaqtida asosiy ish joyi bo'yicha ularga to'lanadigan ish haqi;

8) xodimning aybisiz bekor turib qolning vaqt uchun to'lov;

9) mehnat layoqatini vaqtincha yo'qotgan xodimlarga qo'shimcha to'lov;

10) qonun hujjatlariga muvofiq yoki ish beruvchining qarori bilan majburiy progul vaqt uchun yoki kam haq to'lanadigan ishni bajarganlik uchun to'lov;

11) o'n sakkiz yoshga to'limgan shaxslarning imtiyozli soatlariiga, onalarga bolani ovqatlantirishi uchun ishda beriladigan tanaffuslarga, shuningdek tibbiy ko'rikdan o'tish bilan bog'liq vaqt uchun to'lov;

12) asosiy ishidan ozod qilingan va ozod qilinmagan holda xodimlar tayyorlash, ularni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish uchun hamda o'quvchilar va talabalarning ishlab chiqarish amaliyotiga rahbarlik qilish uchun jalb qilinadigan yuqori malakali xodimlari mehnatiga to'lov;

13) ish beruvchining mablag'lari hisobidan to'lanadigan pensiyalar va nafaqalarga qo'shimchalar, stipendiyalar;

14) oliy o'quv yurtini tamomlaganidan keyin yosh mutaxassislarga ta'til vaqt uchun ish beruvchi hisobidan to'lanadigan nafaqalar.

2. Jismoniy shaxslarning mulkiy daromadlari.

Mulkiy daromadlar tarkibiga quyidagilar kiradi:

1) foizlar;

2) dividendlar;

3) mol-mulkni ijara berishdan olingan daromadlar;

4) soliq to'lovchiga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan olingan daromadlar. Mol-mulkni realizatsiya qilishdan olingan daromadlar mazkur mol-mulkni realizatsiya qilish summasining hujjatlar bilan tasdiqlangan uni olish qiymatidan oshgan qismi sifatida aniqlanadi. Mazkur qiymatni tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'limgan taqdirda, mol-mulkni realizatsiya qilish qiymati, ko'chmas mulk bo'yicha esa – kadastr qiymati hamda realizatsiya qilish narxi o'rtasidagi ijobiy farq daromad deb e'tirof etiladi;

5) sanoat mulki obyektlariga, seleksiya yutug'iga oid patent (litsenziya) egasi bo'lgan soliq to'lovchining patentdan boshqa shaxs

foydasiga voz kechganda yoki litsenziya shartnomasi tuzganda olgan daromadi;

6) roylati;

7) ishonchli boshqaruvga berilgan mol-mulk bo'yicha ishonchli boshqaruvchidan olingan daromad;

8) REPO operatsiyalari bo'yicha daromad;

9) chet el kompaniyasining foyda tarzidagi daromadi;

11) oddiy shirkat shartnomasiga (birgalikdagi faoliyat to'g'risidagi shartnomaga) muvofiq ishtirok etishdan olingan daromadlar;

12) mulkiy xususiyatga ega boshqa daromadlar.

3. Moddiy naf tarzidagi daromadlar. Soliq to'lovchi tomonidan moddiy naf tarzida olingan daromadlar quyidagilardan iborat:

1) soliq agenti tomonidan soliq to'lovchi manfaatlarini ko'zlab, tovarlar (xizmatlar), mulkiy huquqlar haqini to'lash, shu jumladan:

soliq to'lovchining bolalarini maktabgacha ta'lim muassasalarida (tashkilotlarida) o'qitish, tarbiyalash haqini to'lash;

soliq to'lovchilarga berilgan uy-joyning kommunal xizmatlar haqini, uy-joydan foydalanish xarajatlarini, yotoqxonadagi joylar haqini yoki ularning o'rmini qoplash qiymatini to'lash;

sanatoriy-kurortlarda davolanish yo'llanmalari qiymatini, dam olish, statsionar va ambulator davolanish haqini yoki ularning o'rmini qoplash qiymatini to'lash;

soliq agentining soliq to'lovchi daromadi bo'lgan boshqa xarajatlarini to'lash;

2) soliq to'lovchining manfaatlarini ko'zlab tekin, shu jumladan hadya shartnomasi bo'yicha berilgan mol-mulkning va ko'rsatilgan xizmatlarning qiymati;

3) tovarlarni (xizmatlarni) soliq to'lovchilarga realizatsiya qilish narxi hamda shu tovarlarning (xizmatlarning) hisoblab chiqarilgan qiymati o'rtasidagi salbiy farq;

4) qonun hujjatlariga muvofiq xodimlarga temir yo'1, aviatsiya, daryo, avtomobil transporti va shahar elektr transportida yurish bo'yicha beriladigan imtiyozlar summasi;

5) jismoniy shaxsning soliq agenti oldidagi qarzining yuridik shaxs qarori bilan hisobdan chiqarilgan summalar;

6) soliq agenti tomonidan to'lovlar hisobiga to'lanib, soliq to'lovchidan ushlab qolinishi lozim bo'lgan, lekin ushlab qolinmagan summalar.

Soliq to'lovchi tomonidan soliq agentidan tovarlar (xizmatlar) olingan taqdirda, ushbu tovarlarning (xizmatlarning) qiymati ularni sotib olish narxidan yoki tannarxidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Soliq to'lovchi tomonidan soliq agentidan aksiz to'lanadigan tovarlar yoki qo'shilgan qiymat solig'i solinadigan tovarlar (xizmatlar) olingan taqdirda, bunday tovarlarning (xizmatlarning) qiymatida aksiz solig'inining va qo'shilgan qiymat solig'inining tegishli summasi hisobga olinadi.

4. Boshqa daromadlar. Soliq to'lovchining boshqa daromadlariga quyidagilar kiradi:

1) fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, xayriya va ekologiya jamg'armalari tomonidan soliq to'lovchilarga beriladigan nafaqalar hamda boshqa turlardagi yordam;

2) hayvonlarni (qoramollarni, parrandalarni, mo'ynali va boshqa hayvonlarni, baliqlarni va boshqalarni) tirik holda hamda ularni so'yib, mahsulotlarini xom yoki qayta ishlangan holda sotishdan, ipak qurtini, chorvachilik, asalarichilik va dehqonchilik mahsulotlarini tabiiy va qayta ishlangan holda sotishdan olingan daromadlar;

3) jismoniy shaxslardan tekin (shu jumladan hadya shartnomalari bo'yicha) olingan mol-mulkning, mulkiy huquqlarning qiymati;

4) musobaqalarda, ko'riklarda, tanlovlarda sovrinli o'rinalar uchun beriladigan sovrinlar, pul mukofotlari;

5) yutuqlar;

6) grant beruvchidan olingan grantlarning, shu jumladan chet davlatlar grantlarining summalar;

7) soliq to'lovchilarning yaratilgan ilm-fan, adabiyot va san'at asarlari (predmetlari) uchun olgan daromadlari;

8) xalqaro sport musobaqalaridagi sovrinli o'rirlarni egallaganligi uchun sportchilar olgan bir yo'la beriladigan pul mukofoti;

9) xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasi (kontrakti) bekor qilinganda mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq beriladigan ishdan bo'shatish nafaqasi va boshqa to'lovlari;

10) quyidagicha ko'rsatiladigan moddiy yordam:

*vafot etgan xodimning oila a'zolariga yoki oila a'zosi vafot etganligi munosabati bilan xodimga ko'rsatiladigan;

*xodimga mehnatda mayib bo'lganligi, kasb kasalligi yoxud sog'lig'iga boshqacha tarzda shikast yetganligi bilan bog'liq holda ko'rsatiladigan;

*bola tug'ilishi, xodim yoki uning farzandlari nikohdan o'tishi munosabati bilan ko'rsatiladigan;

*qishloq xo'jaligi mahsulotlarini berish yoki ularni sotib olish uchun mablag'lar berish tarzida ko'rsatiladigan moddiy yordam;

11) ishlamaydigan pensionerlarga soliq agenti tomonidan to'lanadigan to'lovlari;

12) ma'naviy zararni kompensatsiya qilish bo'yicha pullik to'lovlari;

13) boshqa daromadlari.

Ish beruvchining o'z xodimlarining bevosita yoki bilvosita daromadlarini tashkil etadigan boshqa xarajatlari.

Xodimlarga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilangan me'yorlari doirasida beriladigan xizmat safari to'lovlaringin summasi jami yillik daromadiga kirmaydi. Ammo, xizmat safariga me'yordan ortiq xarajatlar jami yillik daromad tarkibiga kiradi.

Jismoniy shaxslarning mulkiy daromadlariga: foizlar, dividendlar bo'yicha olingan daromadlari va mol-mulkni ijaraga berishdan keladigan daromadlar kiradi.

Jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyatidan keladigan daromadiga tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiyasidan, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan, yakka tartibda amalga oshirilayotgan boshqa faoliyatidan keladigan barcha tushumlar ushbu daromadni topish bilan bog'liq harajatlar, majburiy to'lovlar, chiqimlar va ajratmalar chegirib tashlangan holda kiradi.

Soliq stavkalari. O'zbekiston Respublikasining rezidentlari va norezidentlari bo'lgan jismoniy shaxslar uchun soliq stavkalari quyidagicha;

O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan jismoniy shaxsning daromadlariga, 2020 yilda 12 foizlik soliq stavkasi bo'yicha soliq solinadi.

Dividendlar va foizlar tarzidagi daromadlarga 5 foizlik soliq stavkasi bo'yicha soliq solinadi.

O'zbekiston Respublikasining norezidenti bo'lgan jismoniy shaxsning O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromadlariga quyidagi soliq stavkalar bo'yicha soliq solinadi. (Soliq kodeksi 382-modda)

4.3.1-jadval

O'zbekiston Respublikasining norezidenti bo'lgan jismoniy shaxsning daromadiga soliq stavkalari⁸

T/r	Soliq obyekti	Soliq stavkalari, foizlarda
1	Dividendlar va foizlar	10
2	Ushbu Kodeksga muvofiq aniqlanadigan, xalqaro tashishlarda transport xizmatlari taqdim etishdan olinadigan daromadlar (fraxtdan olinadigan daromadlar).	6

⁸ Ўзбекистон Республикаси Солиқ Кодекси (янги таҳрири). Тошкент “НОРМА” 30.12.2019й 55-боб.382-модда 277-276 бетлар

<p>3 Mehnat shartnomalari (kontraktlari) va fuqarolik-huquqiy xususiyatdagi shartnomalar bo'yicha olingan daromadlar, 1 va 2-bandlarda ko'rsatilmagan boshqa daromadlar</p>	<p>20</p>
---	-----------

Soliq imtiyozlari. Quyidagi daromad turlariga soliq solinmaydi (Soliq kodeksi 378-modda)

1) moddiy yordam summalar:

vafot etgan xodimning oila a'zolariga yoki oila a'zosi vafot etganligi munosabati bilan xodimga beriladigan moddiy yordam summalar mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 4,22 baravarigacha miqdorda;

2) soliq agenti tomonidan quyidagi yo'llanmalar qiymatini to'liq yoki qisman qoplash summalar,

O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan sanatoriy-kurort va sog'lomlashtirish muassasalariga yo'llanmalar qiymatini nogironligi bo'lgan shaxslarga, shu jumladan ushbu ish beruvchida ishlamaydigan nogironligi bo'lgan shaxslarga to'liq yoki qisman qoplash summalar;

3)o'z xodimlariga hamda ularning bolalariga ambulatoriya va (yoki) statsionar tibbiy xizmat ko'rsatilganligi uchun ish beruvchi tomonidan to'langan summalar, shuningdek ish beruvchining davolashga hamda tibbiy xizmat ko'rsatishga, nogironlik profilaktikasi va nogironligi bo'lgan shaxslarning salomatligini tiklashga doir texnik vositalarni olishga oid xarajatlari;

4)O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining O'zbekiston Respublikasidan tashqariga ishlash uchun yuborilishi munosabati bilan qonun hujjatlarida belgilangan summalar doirasida byudjet tashkilotlaridan chet el valyutasida olingan ish haqi summalarini va boshqa summalar;

5) vaqtinchalik bir martalik ishlarni bajarishdan olingan daromadlar, agar bunday ishlarga yollash vaqtinchalik bir martalik ish bilan ta'minlash markazlari ko'magida amalga oshirilayotgan bo'lsa;

6) xalqaro sport musobaqalarida sovrinli o'rirlarni egallaganligi uchun sportchilar olgan bir yo'la beriladigan pul mukofoti;

7) soliq to'lovchilarga xususiy mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan mol-mulkni sotishdan olinadigan daromadlar;

8) xalqaro hamda respublika tanlovlari va musobaqalarida olingan buyum tarzidagi sovrinlarning qiymati;

9) ish beruvchidan soliq davri mobaynida mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 2,11 baravarigacha bo'lgan qiymatdagi:

10) xodimlar natura shaklida olgan sovg'alar;

11) jismoniy shaxslardan meros yoki hadya tartibida, shuningdek tekinga olingan pul va natura shaklidagi daromadlar,

12) davlat zayomining obligatsiyalari bo'yicha yutuqlar, shuningdek O'zbekiston Respublikasining davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha foizlar;

13) jamg'arma sertifikatlari, davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha daromadlar, shuningdek banklardagi omonatlar bo'yicha foizlar va yutuqlar;

14) soliq to'lovchilarning ish haqi va boshqa daromadlarining hayotni uzoq muddatli sug'urtalash (hayot sug'urtasi sohasining barcha toifalarida)

O'zbekiston Respublikasining oliy o'quv yurtlarida ta'lim olish (o'zining, yigirma olti yoshga to'limgan farzandlarining yoki erining (xotinining) ta'lim olishi) uchun to'lov;

Mazkur imtiyoz qarz oluvchiga va birga qarz oluvchilarga, imtiyoz olish huquqiga ega bo'lgan barcha soliq to'lovchilarga berilgan, soliq solinishi lozim bo'lgan daromadlarni kamaytirish summasi soliq davri davomida jami o'n besh million so'mdan oshmagan taqdirda, tatbiq etiladi;

Jismoniy shaxslarni soliq solishdan ozod etish.

Quyidagilarning daromadlariga soliq solinmaydi (Soliq kodeksi 379-modda)

- 1) chet davlatlar diplomatik vakolatxonalarining boshliqlari va xodimlari, konsullik muassasalarining mansabdor shaxslari, ularning o’zlari bilan birga yashaydigan oila a’zolari, agar ular O’zbekiston Respublikasining fuqarosi bo’lmasa — O’zbekiston Respublikasidagi manbalardan olinadigan, diplomatlik va konsullik xizmati bilan bog’liq bo’lmagan daromadlaridan tashqari barcha daromadlari bo’yicha;
- 2) chet davlatlarning diplomatik vakolatxonalariga, konsullik muassasalariga xizmat ko’rsatadigan xodimlar tarkibiga kirgan shaxslar, agar ular O’zbekiston Respublikasi fuqarosi bo’lmasa yoki O’zbekiston Respublikasida doimiy yashamasa — o’z xizmati yuzasidan oladigan barcha daromadlari bo’yicha;
- 3) chet davlatlar diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari xodimlarining uylarida ishlovchilar, agar ular O’zbekiston Respublikasining fuqarosi bo’lmasa yoki O’zbekiston Respublikasida doimiy yashamasa — o’z xizmati yuzasidan oladigan barcha daromadlari bo’yicha;
- 4) xalqaro nohukumat tashkilotlarining mansabdor shaxslari — agar ular O’zbekiston Respublikasining fuqarosi bo’lmasa, ularning ushbu tashkilotlarda olgan daromadlari bo’yicha.

Ayrim toifadagi soliq to’lovchilarning jami daromadini kamaytirish. Quyidagi soliq to’lovchilar qisman (daromadlar qaysi oyda olingan bo’lsa, o’sha oyda har bir oy uchun mehnatga haq to’lashning eng kam miqdorining 1,41 baravari miqdoridagi daromadlar bo’yicha) soliq solishdan ozod etiladi:

- 1) «O’zbekiston Qahramoni», Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni unvonlariga sazovor bo’lgan shaxslar, uchala darajadagi Shuhrat ordeni bilan taqdirlangan shaxslar. Bu imtiyoz tegishinchcha «O’zbekiston Qahramoni» unvoni berilganligi to’g’risidagi guvohnoma, Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni

daftarchalari, orden daftarchasi yoki mudofaa ishlari bo'yicha bo'limning ma'lumotnomasi asosida beriladi;

2) urush nogironlari va ishtirokchilar, shuningdek ularga tenglashtirilgan va doirasi qonun hujjatlarida belgilanadigan shaxslar. Bu imtiyoz urush nogironining (ishtirokchisining) tegishli guvohnomasi yoki mudofaa ishlari bo'yicha bo'limning yoxud boshqa vakolatli organning ma'lumotnomasi asosida, boshqa nogironlarga (ishtirokchilarga) nogironning (ishtirokchining) imtiyozlarga bo'lgan huquqi to'g'risidagi guvohnoma asosida beriladi;

3) bolalikdan nogironligi bo'lgan shaxslar, shuningdek I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar. Bu imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma'lumotnomasi asosida beriladi;

4) sobiq SSSRni, O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish yoki harbiy xizmatning yoxud ichki ishlar organlaridagi xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish chog'ida yaralanganligi, kontuziya bo'lganligi yoki shikastlanganligi oqibatida yoxud frontda bo'lish bilan bog'liq kasallik tufayli halok bo'lgan harbiy xizmatchilarining hamda ichki ishlar organlari xodimlarining ota-onalari va beva xotinlari (beva erlari). Bu imtiyoz «Halok bo'lgan askarning beva xotini (beva eri, onasi, otasi)» yoki «Ichki ishlar organlari halok bo'lgan xodimining beva xotini (beva eri, onasi, otasi)» shtampi qo'yilgan yoxud pensiya guvohnomasini bergen muassasa rahbarining imzosi va ushbu muassasa muhri bilan tasdiqlangan tegishli yozuvli pensiya guvohnomasi asosida beriladi.

5) ikki va undan ortiq o'n olti yoshga to'limgan bolalari bor yolg'iz onalar. Bu imtiyoz har bir bola uchun fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari tomonidan taqdim etiladigan ma'lumotnomasi asosida beriladi;

6) ikki va undan ortiq o'n olti yoshga to'limgan bolalari bor hamda boquvchisini yo'qotganlik uchun pensiya olmaydigan beva ayol va beva erkaklar. Bu imtiyoz arning (xotinning) vafot etganligi to'g'risidagi guvohnoma, bolalar tug'ilganligi to'g'risidagi

guvohnomalar, yangi nikohdan o'tmaganlik hamda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tuman (shahar) bo'limining boquvchisini yo'qotganlik uchun pensiya olinmasligi haqidagi ma'lumotnomasi taqdim etilgan taqdirda beriladi;

7) bolaligidan nogironligi bo'lган shaxs, doimiy parvarishni talab etadigan farzandi bilan birga yashab, uni tarbiyalayotgan ota yoki ona. Bu imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki sog'liqni saqlash muassasasining doimiy parvarish zarurligini tasdiqlovchi tibbiy ma'lumotnomasi asosida beriladi.

Ushbu moddada nazarda tutilgan soliq imtiyozlari tegishli hujjatlar taqdim etilgan taqdirda qo'llaniladi.

Soliq imtiyoziga bo'lган huquq kalendar yil davomida vujudga kelgan taqdirda, soliq imtiyozi unga bo'lган huquqlar vujudga kelgan paytdan e'tiboran qo'llaniladi.

Soliq imtiyozini qo'llash soliq to'lovchining asosiy ish (xizmat, o'qish) joyi bo'yicha, asosiy ish joyi mavjud bo'lмаган taqdirda esa — yashash joyidagi soliq organlari tomonidan jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiya asosida soliqni hisoblab chiqarish chog'ida amalga oshiriladi. Soliq imtiyoziga bo'lган huquq yo'qotilgan taqdirda, soliq to'lovchi imtiyozga bo'lган huquqni yo'qotgan paytidan e'tiboran o'n besh kun ichida bu haqda undan soliqni ushlab qoladigan yuridik shaxsga ma'lum qilishi kerak.

4.4.Jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiya

Jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiya soliq to'lovchining olingan yillik daromadi to'g'risidagi yozma arizasidan iborat bo'ladi (Soliq kodeksi 396-modda).

Jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiyaga to'langan daromadlar va ushlab qolningan soliq summalari to'g'risida soliq agentining O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan

kelishilgan holda tasdiqlangan shakldagi ma'lumotnomasi ilova qilinadi.

Jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiyaning shakli O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda tasdiqlanadi.

Soliq organi tomonidan soliq to'lovchi taqdim etgan jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiyada to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasining kamayishiga olib keluvchi xatolar aniqlangan taqdirda, soliq organi jami yillik daromad haqidagi taqdim etilgan deklaratsiyada aniqlangan xatolar to'g'risida soliq to'lovchiga bildirish xati yuboradi.

Soliq organining xabarnomasini olgan soliq to'lovchi o'n kun ichida jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiyaga zarur bo'lgan o'zgartirishlarni kiritishi shart.

Agar jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiyani o'zgartirish haqidagi ariza soliqni to'lash muddati o'tguniga qadar berilsa, soliq to'lovchi ushbu Kodeksda belgilangan javobgarlikdan ozod etiladi.

Agar jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiyani o'zgartirish haqidagi ariza soliqni to'lash muddati o'tganidan keyin, lekin xatolar soliq organi tomonidan aniqlanguniga qadar berilsa, soliq to'lovchi soliqning yetishmayotgan summasini hamda unga tegishli penyani to'lagan taqdirda, javobgarlikdan ozod etiladi.

Soliq to'lovchi soliq organining taqdim etilgan jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiyada aniqlangan xato to'g'risidagi bildirish xatini olgan kun soliq organi tomonidan xato aniqlangan kun, deb hisoblanadi.

397-modda. Jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiyani taqdim etish tartibi. Soliq to'lovchilar ushbu Kodeksning 393-moddasida ko'rsatilgan daromadlar bo'yicha jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiyani, agar ushbu moddada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, doimiy yashash joyidagi soliq organiga hisobot yilidan keyingi yilning 1 apreliдан kechiktirmay taqdim etadi.

Deklaratsiya qilinishi shart bo'lмаган daromadlarni olgan soliq to'lovchilar doimiy yashash joyidagi soliq organiga jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiyani ixtiyoriy ravishda taqdim etishi mumkin.

Har qanday ketma-ketlikdagi o'n ikki oylik davr ichida jami bir yuz sakson uch kun va undan ortiq muddat O'zbekiston Respublikasining tashqarisida turgan O'zbekiston Respublikasining fuqarolari O'zbekiston Respublikasiga qaytgan sanadan e'tiboran bir oydan kechiktirmay doimiy yashash joyidagi soliq organiga O'zbekiston Respublikasidagi va uning tashqarisidagi manbalardan olgan daromadlari bo'yicha jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiyani ixtiyoriy ravishda taqdim etishi mumkin. Bunda O'zbekiston Respublikasidan tashqarida olingan daromadlar bo'yicha jismoniy shaxs O'zbekiston Respublikasining soliq rezidenti deb e'tirof etish mezonlariga muvofiq kelmagan davr uchun soliq to'lanmaydi.

Grant olgan soliq to'lovchi jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiyani topshirayotganda grant bo'yicha olingan daromad summasini, soliq miqdorini ko'rsatadi, shuningdek vakolatli organning tegishli xulosasini ilova qiladi.

Mol-mulkini ijara ga berishdan to'lov manbaida soliq solinmaydigan daromadlar olayotgan soliq to'lovchilar, shuningdek ushbu Kodeks 385-moddasining uchinchi qismida ko'rsatilgan va jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiya asosida soliq to'laydigan jismoniy shaxslar jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiyani belgilangan muddatlarda taqdim etish bilan bir qatorda dastlabki tarzdagi deklaratsiyani ham quyidagi muddatlarda taqdim etadi:

1) mol-mulkni ijara ga berishdan daromad oladigan soliq to'lovchilar — ijara dan daromadlar paydo bo'lган kundan e'tiboran birinchi oy tugaganidan keyin besh kun muddatda;

2) ushbu Kodeks 385-moddasining uchinchi qismida ko'rsatilgan, jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiya asosida soliqni to'laydigan jismoniy shaxslar — joriy yilning 1 fevralidan

kechiktirmay. Yangi ro'yxatdan o'tgan tadbirkorlik subyektlari — tadbirkorlik subyekti davlat ro'yxatidan o'tkazilgan oyning oxiriga qadar dastlabki deklaratsiyani taqdim etadi.

Ko'chmas mulkning ijara shartnomasi soliq organlarida hisobga qo'yilayotganda dastlabki deklaratsiya taqdim etilmaydi.

Mol-mulkni ijaraga berishdan daromad olish tugagan taqdirda soliq to'lovchi doimiy yashash joyidagi soliq organini bu haqda yozma shaklda xabardor etadi.

Joriy yilning 1 apreliga qadar O'zbekiston Respublikasining rezidentiga aylangan chet ellik jismoniy shaxs oldingi soliq davri uchun jami yillik daromadi to'g'risida deklaratsiya topshiradi.

O'zbekiston Respublikasining rezidenti bo'lган chet ellik jismoniy shaxs ushbu bobda belgilangan tartibga muvofiq soliq solinishi lozim bo'lган daromad keltirayotgan faoliyatini kalendar yili ichida tugatgan va O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga chiqib ketayotgan bo'lsa, uning O'zbekiston Respublikasi hududida turgan davrda joriy soliq davrida haqiqatda olgan daromadlari to'g'risidagi deklaratsiya bu jismoniy shaxs O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga chiqib ketishidan bir oy avval taqdim etilishi lozim. Agar O'zbekiston Respublikasining norezidenti bo'lган chet ellik jismoniy shaxs joriy yilning 1 fevraliga qadar chet elga doimiy yashashga chiqib ketsa, joriy yil uchun daromadlar bo'yicha deklaratsiya taqdim etilmaydi.

Summasini o'zidagi mavjud axborot asosida hisoblashga va to'lanishi lozim bo'lган, hisoblangan soliq summasi to'g'risida soliq to'lovchiga o'n kunlik muddatda to'lov xabarnomasini topshirishga haqli. Soliq to'lovchi tomonidan jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiya yoki to'g'rilangan deklaratsiya taqdim etilgan taqdirda, soliqning yakuniy summasi ushbu deklaratsiyani hisobga olgan holda aniqlanadi.

Qisqacha xulosalar

Soliqqa tortish amaliyotida eng keng tarqalgan soliq turlaridan biri, bu jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i hisoblanadi.

Mamlakatimiz soliq siyosatida soliqqa tortish bo'yicha bir qancha tamoyillar qo'llaniladi. Soliqqa tortishning asosiy tamoyillaridan biri uning adolatlilik tamoyili hisoblanadi. Ushbu tamoyil soliq solish umumiyligi hamda soliq va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlarni belgilashda adolatli yondashishni talab etadi.

Shunga asosan jismoniy shaxslar daromadlariga solinadigan soliq obyekti, bazasi, stavkasi va hisobot tizimi, har bir davlatning soliq siyosati asosidan kelib chiqib belgilab beriladi.

Moliya yilida soliq solinadigan daromadga ega bo'lgan jismoniy shaxslar soliq qonunchiligidagi belgilangan daromadlaridan olinadigan soliqni to'lovchilari hisoblanadi. Soliq qonunchiligiga asosan jismoniy shaxslar soliq solish maqsadida rezidentlar va norezidentlarga bo'linadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar.

1. Jismoniy shaxslar daromadiga soliq to'lovchilari bo'lib kimlar hisoblanadi?
2. Soliq obyekti va jami daromadiga nimalar kiradi?
3. Jismoniy shaxslar daromadiga soliqdan qanday imtiyozlar bor?
4. Daromad solig'dan kimlar to'liq ozod etiladi va imtiyozlar beriladi?
5. Chet ellik jismoniy shaxslarni soliqqa tortishning qanday xususiyatlari bor?
6. Jismoniy shaxslar daromadiga soliq nimalar asosida hisoblanadi?

Mavzuga oid topshiriqlar:

Topshiriq-1. Korxona xodimiga yanvar oyida 3 260,0 ming so'm ish haqi, 850 000 so'm moddiy yordam hisoblandi. Yanvar oyi uchun daromad solig'i miqdorini hisoblang.

Tooprshiriq-2. Korxona xodimiga fevral oyida 2 500,0 ming so'm ish haqi, 515 000 so'm moddiy yordam, moddiy rag'batlantirish uchun qiymati bir million so'mlik gilam sovg'a qilindi. Xodimning qo'liga tegadigan ish haqini hisoblang.

Testlar:

1. Jismoniy shaxslarning jami daromadlari tarkibi nechta guruhga bo'linadi?

A) 4ta, mehnatga haq to'lash tarzidagi, mulkiy daromadlari, moddiy naf tarzidagi va boshqa daromadlar

V) 2ta, jismoniy shaxslarning mulkiy daromadlari va moddiy naf tarzidagi daromadlar

S) 1ta, moddiy naf tarzidagi daromadlar

D) 3ta, mehnatga haq to'lash tarzidagi, mulkiy daromadlari, moddiy naf tarzidagi

2. Hozirgi kundagi daromad solig'idan kasaba uyushmasiga soliq olinadimi va stavkasi kancha?

A) ha, 8 %

V) ha, 6 %

S) ha, 2 %

D) ha, 1 %

E) ha, 4 %

3. Moddiy yordam summasidan soliq olinadimi?

A) ha olinadi

V) vafot etgan xodimning oila a'zolariga yoki oila a'zosi vafot etganligi munosabati bilan xodimga beriladigan moddiy yordam summalarini mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 4,22 baravarigacha miqdorda

S) yo'q olinmaydi

D) ba'zan olinadi

4. Moslikni toping.....

A) pensiyani hisoblash bazaviy miqdori, so'm A) -

238 610so'm

V) mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori, so'm V)-

679 330so'm

S) eng kam yoshga doir pensiyalar, so'm D)- 286 390

D) zarur ish stajiga ega bo'limgan fuqarolarga, so'm S)-
466 680so'm

5. Bir yil mobaynida minimal ish haqining necha baravarigacha teng bo'lgan miqdorda olingan moddiy yordam soliqqa tortilmaydi?

A) 3 baravarigacha;

V) 4 baravarigacha;

S) 6 baravarigacha;

D) 4,22 baravarigacha;

5-BOB: QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I.

Reja:

5.1.Qo'shilgan qiymat solig'inining iqtisodiy mohiyati.

5.2.Qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchilari, soliq solish obyekti, bazasi, soliq stavkalari va soliq bo'yicha imtiyozlari.

5.3.Soliqni hisobga olish, soliqni hisoblab chiqarish va soliqni to'lash tartibi.

5.4.Nol darajali stavka bo'yicha soliq solinadigan aylanma.

Tayanch so'z va iboralar: qo'shilgan qiymat, soliq stavkasi, nolli stavka, soliq obyekti, soliq imtiyozlari, import mahsulotlari, bojxona, schyot-faktura.



5.1. Qo'shilgan qiymat solig'i tushunchasi va iqtisodiy ahamiyati

Qo'shilgan qiymat solig'i har bir ishlab chiqarish bosqichida va realizatsiya jarayonida undiriladigan ko'p qirrali soliqdir. Korxona kundalik xo'jalik faoliyatida mahsulot yetkazib beruvchilardan tovar va xom ashyo sotib oladi va ulardan mahsulot yoki ish, xizmatlar ishlab chiqaradi. Demak qayta ishlab chiqarish, ishlab chiqarish va sotishda qo'shilgan qiymat yaratiladi.

Qo'shilgan qiymat o'zining iqtisodiy mohiyatiga ko'ra, sotilgan mahsulotlar, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlarning qiymati bilan ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan tovarlar, xom ashylar va xizmatlarning qiymati o'rtasidagi farqdan iborat. Qo'shilgan qiymat solig'ini joriy etish va undirish mexanizmi birinchi marta fransuz moliyachisi M. Lore tomonidan ishlab chiqildi. Fransiyada qo'shilgan qiymat solig'i 1968 yildan boshlab joriy etilgan. O'zbekiston soliq tizimida qo'shilgan qiymat solig'i 1992 yildan boshlab amal qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining daromad manbai sifatida qo'shilgan qiymat solig'i hozirga qadar o'zining muhim o'rmini va amaliy ahamiyatini saqlab kelayapti. Ushbu soliq byudjet daromadlarining eng yuqori qismini tashkil etadigan soliq turi hisoblanadi.

Qo'shilgan qiymat solig'i – bu korxona, tashkilot va birlashmalarda shu jumladan kichik biznes subyektlarida yangi yaratilgan (qo'shilgan) qiymatning bir qismini byudjetga majburan olishdir.

Qo'shilgan qiymat solig'inining uchta tomoni bor:

1-tomoni: korxona mahsulot (ish, xizmat) sotib olganda, mahsulot (ish, xizmat) sotuvchilarga to'lanadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi.

2-tomoni: mahsulot, tovar (ish, xizmat) ortuvchi (sotuvchi) korxonalar o'z mahsulotlari (ishlari, xizmatlari) qiymati ustiga qo'yib mahsulot (ish, xizmat) oluvchilar, ya'ni iste'molchilardan undirib olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi.

3-tomoni: mahsulot ortgan (ish, xizmat) ko'rsatgan korxonaning iste'molchilardan olgan qo'shilgan qiymat solig'i summasidan, shu mahsulot (ish, xizmatlarni) ishlab chiqarish uchun mahsulot yetkazuvchilardan olgan, mahsulot (ish, xizmatlarga) qo'shib to'langan.

Qo'shilgan qiymat solig'i summasi ajratib olgan farqi sifatida aniqlab byudjetga to'lanadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasidir. Qo'shilgan qiymat solig'inining asosiy ustunligi shundaki, ishlab chiqarishning har bir bo'g'inida to'langan soliqning miqdorini aniq hisoblash mumkin va eksport subsidiyalari berilgan vaqtdagi qonun buzulishlarining oldini oladi. Qo'shilgan qiymat solig'i ko'pgina mamlakatlarda davlat daromadining 12-30% gacha qismini beradi va bu yalpi milliy mahsulotning 5-10%ga tengdir. Ushbu soliq tushumlari orasidagi ishonarli manbadir va ayniqsa daromad (foyda) lar cheklangan mamlakatlar uchun tegishlidir.

5.2. Qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchilari, soliq solish obyekti, bazasi, soliq stavkalari va soliq bo'yicha imtiyozlar

Soliq to'lovchilar. O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi va (yoki) tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qiluvchi yuridik shaxslar qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchilar deb yuritiladi:

1) O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari (Soliq kodeksi 237-modda);

2) tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadi soliq davrida bir milliard so'mdan oshgan yoxud ixtiyoriy ravishda qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashga o'tgan yakka tartibdagi tadbirkorlar;

3) O'zbekiston Respublikasi hududida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qiluvchi chet el yuridik shaxslari, agar tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish joyi deb O'zbekiston Respublikasida bo'lsa;

4) faoliyatni O'zbekiston Respublikasida doimiy muassasalar orqali amalga oshiruvchi chet el yuridik shaxslari;

5) oddiy shirkat shartnomasi (birgalikdagi faoliyat to'g'risidagi shartnama) doirasida amalga oshiriladigan faoliyat bo'yicha — oddiy shirkatning ishlarini yuritish vazifasi zimmasiga yuklatilgan ishonchli shaxs – oddiy shirkatning ishtirokchisi;

6) O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlarni olib o'tuvchi shaxslar. Mazkur shaxslar bojxona to'g'risidagi qonun hujjalariiga muvofiq qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchilar deb aytildi.

Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliq majburiyatları ushbu bo'limda belgilangan hollarda va tartibda soliq agentlari tomonidan bajariladi.

Quyidagilar qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchilari deb hisoblanmaydi:

1) davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari – o’z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish doirasida;

2) aylanmadan olinadigan soliqni to’lovchi shaxslar.

Soliq to’lovchilar O’zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo’mitasi tomonidan belgilangan tartibda soliq organlarida qo’shilgan qiymat solig’ini to’lovchi sifatida maxsus ro’yxatdan o’tkazish hisobida turadi.

Quyidagilar soliq solish obyekti hisoblanadi (Soliq kodeksi 238-modda):

1) realizatsiya qilish joyi O’zbekiston Respublikasi bo’lgan tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish bo’yicha aylanma;

2) O’zbekiston Respublikasi hududiga tovarlarni olib kirish.

Faoliyatni O’zbekiston Respublikasida doimiy muassasa orqali amalga oshiruvchi chet el yuridik shaxslari tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish bo’yicha aylanmani doimiy muassasaning faoliyatidan kelib chiqqan holda belgilaydi.

Quyidagilar soliq solish obyekti hisoblanmaydi:

1) yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan o’z tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog’liq bo’lmagan shaxsiy (oilaviy) mol-mulkni realizatsiya qilish;

2) yuridik shaxs qayta tashkil etilayotganda uning mol-mulkini huquqiy vorisga (huquqiy vorislarga) o’tkazish;

3) ishonchli boshqaruvning muassisasi tomonidan mol-mulkni ishonchli boshqaruvchiga berish va ishonchli boshqaruv shartnomasining amal qilish muddati tugagan taqdirda, ishonchli boshqaruvchining o’zi ishonchli boshqaruvga berilgan mol-mulkni qaytarishi;

4) milliy valyuta yoki chet el valyutasi muomalasi bilan bog’liq operatsiyalarini amalga oshirish.

Tovarlarni realizatsiya qilish bo’yicha aylanma quyidagilardan iborat:

1) tovarga bo’lgan mulk huquqini pullik asosda, shu jumladan tovarning qarz shartnomasi bo’yicha o’tkazish;

2) tovarni bepul berish, bundan shunday berish iqtisodiy jihatdan o'zini oqlaydigan hollar mustasno;

3) mol-mulkni moliyaviy ijaraga (lizingga) berish;

4) tovarni bo'lib-bo'lib to'lash shartlari asosida berish.

Tovarni realizatsiya qilishdan farq qiluvchi har qanday faoliyat, shu jumladan quyidagilar xizmatlarni realizatsiya qilish bo'yicha aylanma deb aytiladi:

1) pullik asosda xizmatlar ko'rsatish;

2) bepul xizmatlar ko'rsatish, shu jumladan mol-mulkni soliq to'lovchining bepul foydalanishi uchun berish.

Tovarlarni bepul berish yoki bepul xizmatlar ko'rsatish quyidagi shartlardan hech bo'limganda biriga rioya etilganda iqtisodiy jihatdan o'zini oqlaydi:

1) daromad olishga qaratilgan faoliyatni amalga oshirish maqsadida ishlab chiqarilgan bo'lsa;

2) shunday tadbirkorlik faoliyatini saqlash yoki rivojlantirish uchun zarur bo'lsa va xarajatlarning tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liqligi asoslantirilgan bo'lsa;

3) qonun hujjatlarining qoidalaridan kelib chiqsa.

Ushbu bo'limni qo'llash maqsadida quyidagilar ham tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish bo'yicha aylanmadir:

1) yuridik shaxsning ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa sifatida tovarlarni berish (xizmatlar ko'rsatish);

2) oddiy shirkat shartnomasi (birgalikdagi faoliyat to'g'risidagi shartnomasi) ishtirokchilari o'rtasida shunday shartnomasi doirasida tovarlarni berish (xizmatlar ko'rsatish);

3) quyidagilarga tovarlarni berish (xizmatlar ko'rsatish):

a) yuridik shaxs ishtirokchilari tarkibidan ishtirokchi chiqqanda (chiqarilganda) yoki uning yuridik shaxsda ishtirok etish ulushi kamayganda yoxud ishtirokchidan ushbu yuridik shaxsda ishtirok etish ulushi (ulushning bir qismi) yuridik shaxs tomonidan qaytarib sotib olinganda, ishtirokchiga;

b) emitent bo'lgan yuridik shaxs tomonidan aksiyadordan ushbu emitent chiqargan aksiyalarni qaytarib sotib olishda, aksiyadorga;

v) yuridik shaxs tugatilganda, aksiyadorga yoki ishtirokchiga;

4) xarajatlari foyda solig'ini hisoblab chiqarishda chegirilmaydigan, soliq to'lovchining o'z ehtiyojlari uchun soliq to'lovchi tomonidan ishlab chiqargan tovarlarni berish, o'z kuchi bilan xizmatlar ko'rsatish;

5) jismoniy shaxslarga mehnatga haq to'lash yoki dividendlar to'lash hisobiga tovarlarni berish (xizmatlar ko'rsatish);

6) soliq to'lovchi tomonidan o'ziga tegishli mol-mulkni (xizmatlarni), agar bunday mol-mulk (xizmatlar) bo'yicha soliq summasi to'liq yoki qisman hisobga o'tkazilgan bo'lsa, boshqaruv organi a'zolariga, xodimlarga, ularning oila a'zolariga yoxud boshqa shaxslarga soliq to'lovchining tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq bo'limgan shaxsiy maqsadlarda foydalanish uchun berish (xizmatlar ko'rsatish);

7) tovarlarni va boshqa mol-mulkni qaytarish sharti bilan qayta ishslashga berish, agar tovarlar va (yoki) mol-mulk qayta ishslash mahsuli shaklida shartnomada belgilangan muddatda qaytarilmagan bo'lsa;

8) erkin bojxona hududining bojxona tartib-taomiliga soliq to'lamasdan joylashtirilgan tovarni yo'qotish, boshqa holatlarda soliqni to'lash zarur bo'lgan taqdirda;

9) qaytarilishi lozim bo'lgan, ko'p marta muomalada bo'ladigan idishlarning sotuvchi tomonidan berilishi, agar idish bunday idishdagi mahsulotni yetkazib berishga doir shartnomada belgilangan muddatda qaytarilmasa.

Quyidagi shartlardan hech bo'limganda bittasi bajarilgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi hududi tovarlarni realizatsiya qilish joyi deb aytiladi:

1) tovar O'zbekiston Respublikasi hududida turgan bo'lsa va bitim natijasida uning hududidan tashqariga chiqarilmaydigan bo'lsa;

2) tovar jo'natish yoki transportda tashish boshlangan paytda O'zbekiston Respublikasi hududida turgan bo'lsa.

Xizmatlarni realizatsiya qilish joyi. Yuridik shaxs yoki jismoniy shaxs O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyatni amalga oshirsa yoki tursa, O'zbekiston Respublikasi hududi xizmatlarni realizatsiya qilish joyi deb aytildi.

Agar xizmatlarning xaridori O'zbekiston Respublikasi hududida yuridik shaxsni (uning filiallarini yoki vakolatxonalarini) yoki jismoniy shaxsni davlat ro'yxatidan o'tkazish asosida haqiqatda hozir bo'lsa, mazkur hudud xaridorning faoliyatni amalga oshirish joyi deb aytildi. Davlat ro'yxatidan o'tkazilmagan taqdirda, xaridorning O'zbekiston Respublikasi hududida haqiqatda hozir bo'lishi yuridik shaxsning ta'sis hujjatlarida ko'rsatilgan joy yoki uni boshqarish joyi, uning doimiy muassasasi joylashgan yer (agar xizmatlar ushbu doimiy muassasa orqali olingan bo'lsa), jismoniy shaxsning yashash joyi asosida belgilanadi.

Quyidagi hollarda ham O'zbekiston Respublikasi hududi xizmatlarni realizatsiya qilish joyi deb aytildi, agar:

1) xizmatlar O'zbekiston Respublikasi hududida turgan ko'chmas mol-mulk bilan bevosa bog'liq bo'lsa. Bunday xizmatlar jumlasiga, xususan, arxitektura loyihasini ishlab chiqish, qurilish faoliyatini tayyorlash va muvofiqlashtirish, arxitektura va qurilish faoliyati ustidan mualliflik va (yoki) texnik nazorat bilan bog'liq bo'lgan qurilish, montaj qilish, qurilish-montaj xizmatlari, ko'chmas mol-mulkka doir ishga tushirish, sozlash, ta'mirlash, restavratsiya qilish ishlari, ko'kalamzorlashtirish ishlari, shuningdek ko'chmas mol-mulkni ijaraga berish kiradi;

2) xizmatlar O'zbekiston Respublikasi hududida haqiqatda bo'lgan ko'char mol-mulk bilan bevosa bog'liq bo'lsa, bundan transport vositalarini ijaraga berish mustasno. Bunday xizmatlar jumlasiga, xususan, ko'char mol-mulkni montaj qilish, sozlash, yig'ish, ishlov berish, qayta ishlash, ta'mirlash, texnik xizmat ko'rsatish, saqlash kiradi;

3) umumiy ovqatlanish, ko'ngilochar, dam olish va boshqa shunga o'xhash xizmatlar, turizm, mehmonxona xizmatlari va joylashtirushi, madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sport, o'qitish (ta'lim) sohasidagi, shu jumladan malaka imtihonlari o'tkazish, seminarlar, malaka oshirish kurslarini, pullik ko'rgazmalarni, konferensiyalarni, simpoziumlarni va boshqa shunga o'xhash tadbirlarni tashkil etishga doir xizmatlar haqiqatda O'zbekiston Respublikasi hududida ko'rsatilsa. Ushbu bandning qoidalari elektron shaklda ko'rsatiladigan o'qitish (ta'lim) sohasidagi xizmatlarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

4) tashish va (yoki) transportda tashish bo'yicha xizmatlar yoxud bevosita tashish va (yoki) transportda tashish bilan bog'liq xizmatlar quyidagilar tomonidan ko'rsatiladigan bo'lsa:

a) O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari yoki yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan, agar jo'natish punkti va (yoki) belgilangan punkt O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan bo'lsa.

b) chet ellik shaxslar tomonidan, agar jo'natish punkti va belgilangan punkt O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan bo'lsa

5) tovarlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga yetib kelish joyidan O'zbekiston Respublikasi hududidan chiqib ketish joyigacha tashish chog'ida bojxona tranzitining bojxona tartib-taomiliga joylashtirilgan tovarlarni tashish va (yoki) transportda tashish bilan bevosita bog'liq bo'lган xizmatlar, O'zbekiston Respublikasining rezidentlari bo'lган yuridik shaxslar yoki chet el yuridik shaxsining doimiy muassasasi yoxud yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan ko'rsatilsa;

6) havo kemalariga bevosita O'zbekiston Respublikasi aeroportlarida va O'zbekiston Respublikasining havo hududida ko'rsatiladigan xizmatlar;

7) O'zbekiston Respublikasi hududi orqali tabiiy gazni quvurlar orqali tashishni tashkil etish bo'yicha xizmatlar O'zbekiston

Respublikasi rezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar tomonidan ko'rsatilsa;

8) ijaraga berish paytida O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan transport vositalarini qisqa muddatli ijaraga berish bilan bog'liq xizmatlar. Agar xizmatlar transport vositalarini uzoq muddatli ijaraga berish bilan bog'liq bo'lsa. Bunda havo va dengiz kemalariga, vertolyotlarga va temir yo'l transportining harakatdagi tarkibiga nisbatan shartnoma, agarda u 90 kungacha bo'lgan muddatga tuzilgan bo'lsa, qisqa muddatli deb hisoblanadi. Boshqa transport vositalariga nisbatan bunday shartnomalar 30 kungacha bo'lgan muddatga tuzilgan bo'lsa, qisqa muddatli deb hisoblanadi;

9) televidenieda va (yoki) radioda, ommaviy axborot vositalarida va boshqa shakllarda reklamani joylashtirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasining hududida amalga oshiriladigan xizmatlar;

10) ushbu Kodeksning 282-moddasida ko'rsatilgan elektron shakldagi xizmatlar O'zbekiston Respublikasi hududida turgan yoki faoliyatni amalga oshirayotgan shaxslar tomonidan olinsa. Bunda, agar quyidagi shartlardan hech bo'limganda bittasi bajarilsa, O'zbekiston Respublikasining hududi jismoniy shaxs tomonidan elektron shakldagi xizmatlarni olish joyi deb e'tirof etiladi

a) xaridorning yashash joyi O'zbekiston Respublikasi bo'lsa;


b) xaridor tomonidan xizmatlarga haq to'lash uchun foydalilaniladigan bank yoki xaridor tomonidan xizmatlarga haq to'lash amalga oshiriladigan to'lov tizimlarining operatori O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan bo'lsa;

v) xaridor xizmatlarni olish chog'ida foydalangan tarmoqning manzili O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilgan bo'lsa;

g) xizmatlarni olish yoki xizmatlarga haq to'lash uchun foydalilaniladigan telefon raqami mansub bo'lgan mamlakatning xalqaro kodi O'zbekiston Respublikasi tomonidan berilgan bo'lsa.

Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari chetdan qaraganda mahsulot ishlab chiqaruvchi, ish va xizmatlarni bajaruvchi korxona, tashkilot, birlashmadek tuyuladi. Ana shu korxonalar soliqni huquqiy

to'lovchilari bo'ladilar. Aslida esa mazkur korxona, tashkilot va birlashmalar qo'shilgan qiymat solig'ini mahsulot, ish, xizmatni sotib oluvchi korxona, tashkilot va birlashmalar sotib olgan mahsulot, ish, xizmat ustiga qo'yib yuboradilar. Demak, soliqni haqiqiy to'lovchilari shu mahsulot, ish va xizmatni iste'mol qiluvchi korxonalardir. Ularning oxirgi qiymati chakana savdo orqali aholiga yetib boradi va oxirgi iste'molchilar bo'ladi, ya'ni korxona bir vaqtning o'zida ta'minotchiga soliq to'lovchi, tovarlarni sotib oluvchilar uchun esa soliq oluvchi sifatida namoyon bo'ladi. Import qilinadigan tovarlariga nisbatan qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari bo'lib ushbu tovarlarini import qiladigan yuridik shaxslar hisoblanadi.



7-rasm. Qo'shilgan qiymat solig'i obyekti.

Qo'shilgan qiymat solig'inining obyektlari tovar ortish, ishlar va xizmatlar sotish oborotlaridadir. Import qilinadigan tovarlar uchun qo'shilgan qiymat solig'i solinadigan obyekt bo'lib O'zbekiston Respublikasining bojxona qonunlariga binoan belgilangan bojxona rejimlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi hududiga import qilinadigan tovarlar hisoblanadi.

Tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishda soliq bazasi soliq to'lovchi tomonidan o'zi ishlab chiqargan yoki olgan tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishning o'ziga xos xususiyatlariga qarab aniqlanadi.

Tovarlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirishda soliq bazasi soliq to'lovchi tomonidan bojxona to'g'risidagi qonun hujjaligiga muvofiq aniqlanadi.

Soliq bazasini aniqlash vaqtida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushum soliq to'lovchining ushbu tovarlarga (xizmatlarga) pulda va (yoki) natura shakllaridagi to'lov, shu jumladan qimmatli qog'ozlar bilan haq to'lash sifatida olingan barcha daromadlaridan kelib chiqqan holda hisobga olinadi.

Soliq bazasini aniqlash vaqtida soliq to'lovchining chet el valyutasida ifodalangan tushumi (xarajatlari) ushbu Kodeksning 242-moddasida belgilangan tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish bo'yicha aylanma amalga oshirilgan sanada O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo'yicha milliy valyutada qayta hisoblab chiqiladi.

2000 yildan 2018 yilgacha bo'lган davrda qo'shilgan qiymat soliq stavkasi Soliq Kodeksida ko'rsatilgan 20% tashkil qilgan bo'lsa, 2020 yildan 15 % miqdorida belgilanadi. (Soliq kodeksi 258-modda).

Bir oy **soliq davri** hisoblanadi.

Qo'shilgan qiymat solig'idan beriladigan imtiyozlar.

Soliq solishdan ozod etiladigan tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish bo'yicha aylanma (Soliq kodeksi 243-modda).

Quyidagilarni realizatsiya qilish bo'yicha aylanma soliq solishdan ozod etiladi:

- 1) maktabgacha ta'lim muassasalarida (tashkilotlarida) bolalarga qarash bo'yicha xizmatlarni;
- 2) bemorlar va keksalarni parvarish qilish bo'yicha xizmatlarni;
- 3) dafn etish byurolari va qabristonlarning marosim xizmatlarini, diniy ashyolarni, diniy tashkilotlar hamda birlashmalar tomonidan udumlarni va marosimlarni o'tkazishga doir xizmatlarni;
- 4) protez-ortopediya buyumlarini, nogironligi bo'lган shaxslar uchun inventarni, shu jumladan ushbu buyumlar va inventarni ishlab chiqaruvchilar tomonidan realizatsiya qilish, shuningdek nogironlarga ortopedik protezlash, nogironlar uchun mo'ljallangan protez-

ortopediya buyumlari va inventarni ta'mirlash hamda ularga xizmat ko'rsatish bo'yicha xizmatlarni;

5) davolash muassasalari huzuridagi davolash - ishlab chiqarish ustaxonalarining mahsulotlarini ushbu muassasalar tomonidan realizatsiya qilish;

6) ishlovchilari umumiyligi sonining kamida 50 foizi nogironligi bo'lgan shaxslardan iborat bo'lgan hamda nogironligi bo'lgan shaxslar mehnatiga haq to'lash fondi umumiyligi mehnatga haq to'lash fondining kamida 50 foizini tashkil etadigan, yagona ishtirokchisi nogironligi bo'lgan shaxslarning jamoat birlashmalarini hisoblangan yuridik shaxslar tomonidan realizatsiya qilinadigan tovarlar va xizmatlarni;

7) pochta markalarini (kolleksiya qilinadiganlaridan tashqari), markali otkritkalarni, konvertlarni;

8) pensiyalar va nafaqalar to'lashga doir xizmatlarni;

9) byudjet mablag'lari hisobidan bajariladigan ilmiy-tadqiqot va innovatsiya ishlarini. Mazkur soliq solishdan ozod etish tegishli moliya organining byudjetdan mablag'lar ajratish to'g'risidagi xulosasi mavjud bo'lgan taqdirda qo'llaniladi;

10) o'qitish (ta'lim) sohasidagi xizmatlarni, shu jumladan test sinovlari va imtihonlar o'tkazishni tashkil etish xizmatlarini, xususan:

boshlang'ich, o'rta, o'rta maxsus, texnik va kasb-hunar, oliy ta'lim va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim sohasidagi ta'lim xizmatlarini;

ta'lim muassasalari (tashkilotlari), shuningdek kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiradigan tashkilotlar tomonidan ko'rsatiladigan qo'shimcha ta'lim berish bo'yicha xizmatlarni;

muktabgacha ta'lim va tarbiya dasturlari doirasida ta'lim va tarbiyalash faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda bolalarga qarash va ularni parvarishlash bo'yicha xizmatlarni, to'garaklarda, seksiyalarda (shu jumladan sport seksiyalarida) va studiyalarda

voyaga yetmagan bolalar bilan mashg'ulotlar o'tkazish bo'yicha xizmatlarni;

11) tibbiyot muassasalari tomonidan ko'rsatiladigan tibbiy xizmatlarni (bundan kosmetologik xizmatlar mustasno). Xususan:

tibbiy yordamga va sanitariya xizmati ko'rsatishga doir xizmatlar; tashxis qo'yish, profilaktika va davolash bo'yicha xizmatlar;

stomatologik xizmatlar, shu jumladan tishlarni protezlash bo'yicha xizmatlar;

12) veterinariya xizmatlarini. Ushbu bandning maqsadida veterinariya xizmatlari jumlasiga, xususan, quyidagilar kiradi:

veterinariyaga oid xizmatlar ko'rsatish, hayvonlarga tashxis qo'yish va ularni davolash bo'yicha xizmatlar;

hayvonlar va inson uchun umumiyl bo'lgan kasallikkardan aholini himoya qilish;

O'zbekiston Respublikasi hududini hayvonlarning yuqumli kasalliklari kirib kelishidan himoya qilish;

davlat veterinariya xizmati nazorati ostidagi tovarlarning veterinariya va veterinariya-sanitariya xavfsizligini ta'minlash;

13) dori vositalarini, veterinariya dori vositalarini, tibbiyot va veterinariya uchun mo'ljallangan buyumlarni;

14) sanatoriyl-kurort, sog'lomlashtirish xizmatlarini, shuningdek jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarining xizmatlarini. Ushbu bandning maqsadida:

a) sanatoriyl-kurort va sog'lomlashtirish xizmatlari jumlasiga sanatoriylar, shifoxonalar, profilaktoriylar, kurortlar, pansionatlar, dam olish uylari va zonalari, bolalar dam olish oromgohlari hamda boshqa dam olish tashkilotlari tomonidan ularning asosiy faoliyati doirasida ko'rsatiladigan, ular yuridik shaxslar yoki yuridik shaxslarning tarkibiy bo'linmalari tomonidan ko'rsatilishidan qat'iy nazar, yo'llanmalar yoki joysiz davolanish uchun beriladigan hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan xizmatlar kiradi;

b) jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarining xizmatlari jumlasiga, xususan, sport inshootlarida, maktablarda, klublarda sport turlari

bo'yicha o'quv guruhlari hamda jamoalarida sog'lomlashtirish yo'nalishidagi jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini o'tkazishga oid xizmatlar, umumjismoniy tayyorgarlik xizmatlari, sport musobaqalarini yoki bayramlarni, sport-tomosha tadbirlarini o'tkazish bo'yicha xizmatlar, shuningdek mazkur tadbirlarga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish uchun sport inshootlarini ijaraga berish kiradi;

15) yo'lovchilarni yagona tariflar bo'yicha tashish xizmatlarini ko'rsatish:

a) umumiyo foydalanishdagi yo'lovchi tashish shahar transportida va yo'lovchi tashish avtomobil transportida;

b) shahar atrofidagi yo'nalishda temir yo'l transportida;

16) uy-joy fondini saqlash va ta'mirlash yuzasidan aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar. Uy-joy fondini saqlash va ta'mirlash yuzasidan ko'rsatiladigan xizmatlar jumlasiga lift xo'jaliklari, yer resurslari va davlat kadastro, uy-joy fondidan foydalanish, uni saqlash va ta'mirlash boshqarmalari hamda bo'limlarining bevosita aholi tomonidan haq to'lanadigan xizmatlari, shu jumladan ushbu xizmatlarga uy-joy mulkdorlari shirkatlari orqali haq to'lash kiradi;

17) tovarlarni (xizmatlarni), agar tovarlarni berish (xizmatlar ko'rsatish) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida bepul amalga oshirilsa;

18) qimmatbaho metallardan ishlangan bank va o'lchovli quymalarini, qimmatbaho metallardan ishlangan quyma (investitsiya) tangalarni (numizmatika maqsadlari uchun foydalaniladigan tangalardan, shuningdek qimmatbaho metallardan ishlangan chet el tangalaridan tashqari), zargarlik buyumlarini;

19) bojsiz savdo bojxona tartib-taomiliga joylashtirilgan tovarlarni;

20) yuridik va jismoniy shaxslarga muayyan huquqlar berilganda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va vakolatli organlar, tashkilotlar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarni, agar bunday

xizmatlar ko'rsatish shart ekanligi qonun hujjatlarida belgilangan bo'lsa, faoliyatning muayyan sohasida ushbu organlar va tashkilotlarning zimmasiga yuklatilgan alohida vakolatlarni bajarish doirasida davlat boji yoki boshqa to'lovlar undiriladi;

21) byudjet mablag'lari hisobidan bajariladigan yer-kadastr, yer tuzish, tuproqqa oid va geobotanika ishlarini;

22) byudjet mablag'lari hisobidan har yillik mineral xom ashyo bazasini rivojlantirish va qayta tiklash davlat dasturlari doirasida ko'rsatiladigan geologiya xizmatlari;

23) xalqaro moliyaviy institutlarning qarzlari va hukumat tashkilotlarining xalqaro qarzlari hisobidan olinadigan tovarlarni (xizmatlarni), agar qarz shartnomasida ularni soliqdan ozod etish nazarda tutilgan bo'lsa;

24) O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining qo'riqlash bo'linmalari xizmatlarini;

25) telekommunikatsiya tarmoqlarida operativ-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalari, shuningdek mazkur vositalardan foydalanishga hamda ularga xizmat ko'rsatishga doir xizmatlar;

26) moliyaviy xizmatlarni;

28) sug'urta qilish xizmatlarini va boshqa sug'urta xizmatlarini.

Ushbu moddada sanab o'tilgan tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishga doir aylanma soliq to'lovchilarda bunday faoliyatni amalga oshirish uchun tegishli litsenziyalar va boshqa ruxsat etuvchi hujjatlar mavjud bo'lgan taqdirda, agar uning amalga oshirilishini litsenziyalash lozim bo'lsa yoki ruxsat etuvchi hujjatlar talab etsa, qonun hujjatlariga muvofiq soliq solishdan ozod etiladi.

Soliq solinadigan aylanmalarni va ushbu moddaning qoidalariga muvofiq soliq solishdan ozod etiladigan aylanmalarni amalga oshiradigan soliq to'lovchilar aylanmalarning alohida hisobini yuritishi shart.

Soliq solishdan ozod etiladigan moliyaviy xizmatlar (Soliq kodeksi 244-modda).

Quyidagi moliyaviy xizmatlar soliq solishdan ozod etiladi:

1) bank operatsiyalari, xususan:

yuridik va jismoniy shaxslarning pul mablag'larini omonatlarga jalg etish;

yuridik va jismoniy shaxslarning jalb etilgan pul mablag'larini banklar nomidan hamda ularning hisobidan joylashtirish;

yuridik va jismoniy shaxslarning bank hisobvaraqlarini, shu jumladan bank kartalari bo'yicha hisob-kitoblar uchun xizmat qiluvchi bank hisobvaraqlarini ochish hamda yuritish, shuningdek bank kartalariga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq operatsiyalar;

yuridik va jismoniy shaxslarning, shu jumladan vakil banklarning topshirig'iga ko'ra ularning bank hisobvaraqlari bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish;

yuridik va jismoniy shaxslarga kassa xizmatlarini bank kassalari yoki maxsus asbob-uskunalar (bankomat, avtomatik depozit mashinalar va hokazo) orqali ko'rsatish;

chet el valyutasining naqd puldagi va naqd pulsiz oldi-sotdisi (shu jumladan chet el valyutasining oldi-sotdi operatsiyalariga doir vositachilik xizmatlari ko'rsatish).

5.3. Soliqni hisobga olish, soliqni hisoblab chiqarish va soliqni to'lash tartibi.

Soliqni hisoblab chiqarish tartibi (Illovada berilgan)

Soliq bazasini aniqlashda soliq summasi soliq bazasining soliq stavkasiga muvofiq bo'lgan foizli ulushi sifatida hisoblab chiqariladi.

Soliq summasi tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishga doir operatsiyalarning soliq bazasidan, tegishli soliq davriga taalluqli bo'lgan aylanmalarni amalga oshirish sanasidan kelib chiqqan holda, tegishli soliq davrida soliq bazasini ko'paytiradigan yoki kamaytiradigan barcha o'zgartishlar hisobga olingan holda har bir soliq davrining yakunlariga ko'ra hisoblab chiqariladi.

Tovarlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirishda soliqning umumiyligi summasi hisoblab chiqarilgan soliq bazasining

soliq stavkasiga mos keladigan foizli ulushi sifatida hisoblab chiqariladi.

Agar soliq bazasi O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan tovarlarning har bir guruhi bo'yicha alohida aniqlansa, soliq summasi mazkur soliq bazalarining har biri bo'yicha alohida hisoblab chiqariladi. Bunda soliqning umumiy summasi bunday soliq bazalarining har biri bo'yicha alohida hisoblab chiqarilgan soliq summalarini qo'shish orqali hisoblab chiqariladi.

Qo'shilgan qiymat solig'idan bo'nak (avans) to'lovi – bu har oyning ichida avvaldan byudjetga o'n kunliklarda o'tkazib beriladigan summadir. U joriy oyning 15, 25 kunlarigacha va keyingi oyning 5-sanasigacha to'lanishi shart. Uning har safargi bo'nak summasi o'tgan hisobot oyidagi summaning uchdan bir bo'lagi miqdorida aniqlanadi.

Byudjetga to'lanishi lozim bo'lган qo'shilgan qiymat solig'i summasi korxonaning mahsulot (ish, xizmatlar)ni iste'molchiga sotib u bilan birga olgan qo'shilgan qiymat solig'i summasidan, uning o'ziga mahsulot yetkazuvchilar, ish, xizmat ko'rsatganlar mahsulot (ish, xizmatlar) bilan birga to'langan qo'shilgan qiymat solig'i summasini chegirib tashlab, farqi byudjetga to'lanadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi bo'ladi.

Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha haqiqiy hisoblashish har oyning haqiqiy oborotidan kelib chiqib hisoblanadi. Bu yerda har oylik soliq hisobi o'sib boruvchi yakun bilan keyingi oyning 15-sanasidan kechiktirmay soliq to'lovchilar joylashgan soliq idorasiga topshiriladi. Agar soliq hisobida qo'shilgan qiymat solig'i summasi qo'shimcha to'lashga tegishli bo'lib chiqsa, bu summa 5 kun ichida byudjetga o'tkazilishi shart.

5.4.Nol darajali stavka bo'yicha soliq solinadigan aylanma.

Nol darajali stavka bo'yicha soliq solish quyidagilar realizatsiya qilinganda amalga oshiriladi: (Soliq kodeksi 260-modda)

1) O'zbekiston Respublikasi hududidan eksport bojxona tartib-taomiliga olib chiqilgan tovarlar;

2) ilgari O'zbekiston Respublikasi bojxona hududida qayta ishslash bojxona tartib-taomiliga joylashtirilgan, O'zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqilgan tovarlar va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududidan bojxona hududida qayta ishslash bojxona tartib-taomiliga joylashtirilgan tovarlarni qayta ishslash natijasida olingan (hosil bo'lган) tovarlar (qayta ishslash mahsulotlari, chiqindilar va (yoki) qoldiqlar);

3) O'zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqilgan g'amlab qo'yilgan narsalar. Ushbu modda maqsadida havo kemalaridan risoladagidek foydalanilishini ta'minlash uchun zarur bo'lган yoqilg'i va yonilg'i-moylash materiallari;

4) chet eldan keltirilgan tovarlarni tashish vaqtida bojxona tranziti bojxona tartib-taomiliga joylashtirilgan tovarlarni bevosita O'zbekiston Respublikasi hududiga yetib kelish joyidagi bojxona organidan O'zbekiston Respublikasi hududidan chiqib ketish joyidagi bojxona organigacha tashish yoxud transportda tashish bilan bevosita bog'liq bo'lган xizmatlar;

5) xalqaro tashishlar bilan bevosita bog'liq bo'lган xizmatlar.

Tovarlar eksport qilinganligini tasdiqlovchi hujjatlar quyidagilardan iborat:

1) kontrakt (kontraktning belgilangan tartibda tasdiqlangan ko'chirma nusxasi);

2) tovarlarni chiqarishni amalga oshiruvchi bojxona organining tovarlarni O'zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish uchun belgisi qo'yilgan bojxona yuk deklaratsiyasi;

3) O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan o'tkazish punktida joylashgan bojxona organining tovarlar belgilangan mamlakatga jo'natilganligini tasdiqlovchi belgisi qo'yilgan, tovarga ilova qilinadigan hujjatlar.

Tovarlar eksportga vositachi (ishonchli vakil) orqali vositachilik (topshiriq) shartnomasi bo'yicha realizatsiya qilinganda eksportni tasdiqlash uchun komitent (ishonch bildiruvchi) tomonidan qo'shimcha tarzda soliq to'lovchining vositachi yoki ishonchli vakil

bilan tuzilgan vositachilik shartnomasi yoki topshiriq shartnomasi (shartnomaning ko'chirma nusxasi) taqdim etiladi.

Tovarlar eksport qilinganligini tasdiqlash uchun amalga oshirilayotgan faoliyatning turiga qarab boshqa hujjatlar taqdim etilishi mumkin. Soliq to'lovchining amalga oshiriladigan faoliyat turiga qarab nolli soliq stavkasini qo'llash huquqini tasdiqlash uchun zarur bo'lgan hujjatlar ro'yxati hamda ularni taqdim etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilanadi.

Xalqaro tashishlar bilan bog'liq xizmatlarga soliq solish (Soliq kodeksi 263-modda).

Nol stavka bo'yicha soliq solish quyidagilarni realizatsiya qilish vaqida amalga oshiriladi:

1) tovarlarni xalqaro tashish bo'yicha xizmatlarni. Tovarlarni xalqaro tashish deganda tovarlarning jo'natish punkti yoki belgilangan punkti O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida joylashgan taqdirda tovarlarni havo kemalari, temir yo'l transporti va (yoki) avtotransport vositalari orqali tashish tushuniladi;

2) chet eldan keltirilgan tovarlarni tashish chog'ida bojxona tranziti bojxona tartib-taomiliga joylashtirilgan tovarlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga yetib kelish joyidagi bojxona organidan to O'zbekiston Respublikasi hududidan chiqib ketish joyidagi bojxona organigacha tashish yoki transportda tashish bilan bevosita bog'liq bo'lgan xizmatlarni;

3) tashishlar yagona xalqaro tashish hujjatlari asosida rasmiylashtirilgan taqdirda, basharti yo'lovchilarni, pochtani va bagajni jo'natish punkti yoki belgilangan punkti O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida joylashgan bo'lsa, yo'lovchilarni, pochtani va bagajni tashish bo'yicha xizmatlarni;

4) O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga eksport qilinadigan tovarlarni tashish yoki transportda tashish, shuningdek O'zbekiston Respublikasi hududidagi qayta ishslash mahsulotlarini O'zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqish bo'yicha

O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari bo'lgan tashuvchilar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarni. Ushbu bandning qoidalari, basharti tashish hujjatlarida bojxona organlarining belgilari qo'yilgan bo'lsa, qo'llaniladi;

5) havo kemalariga bevosita O'zbekiston Respublikasi aeroportlarida va O'zbekiston Respublikasining havo hududida ko'rsatiladigan xizmatlarni.

Soliqni hisoblab chiqarish tartibi (Ilovada berilgan)

Soliq bazasini aniqlashda soliq summasi soliq bazasining soliq stavkasiga muvofiq bo'lgan foizli ulushi sifatida hisoblab chiqariladi.

Soliq summasi tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishga doir operatsiyalarning soliq bazasidan, tegishli soliq davriga taalluqli bo'lgan aylanmalarni amalga oshirish sanasidan kelib chiqqan holda, tegishli soliq davrida soliq bazasini ko'paytiradigan yoki kamaytiradigan barcha o'zgartishlar hisobga olingan holda har bir soliq davrining yakunlariga ko'ra hisoblab chiqariladi.

Tovarlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirishda soliqning umumiyligi summasi hisoblab chiqarilgan soliq bazasining soliq stavkasiga mos keladigan foizli ulushi sifatida hisoblab chiqariladi.

Agar soliq bazasi O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan tovarlarning har bir guruhi bo'yicha alohida aniqlansa, soliq summasi mazkur soliq bazalarining har biri bo'yicha alohida hisoblab chiqariladi. Bunda soliqning umumiyligi summasi bunday soliq bazalarining har biri bo'yicha alohida hisoblab chiqarilgan soliq summalarini qo'shish orqali hisoblab chiqariladi.

Qo'shilgan qiymat solig'idan bo'nak (avans) to'lovi – bu har oyning ichida avvaldan byudjetga o'n kunliklarda o'tkazib beriladigan summadir. U joriy oyning 15, 25 kunlarigacha va keyingi oyning 5-sanasigacha to'lanishi shart. Uning har safargi bo'nak summasi o'tgan hisobot oyidagi summaning uchdan bir bo'lagi miqdorida aniqlanadi.

Byudjetga to’lanishi lozim bo’lgan qo’shilgan qiymat solig’i summasi korxonaning mahsulot (ish, xizmatlar)ni iste’molchiga sotib u bilan birga olgan qo’shilgan qiymat solig’i summasidan, uning o’ziga mahsulot yetkazuvchilar, ish, xizmat ko’rsatganlar mahsulot (ish, xizmatlar) bilan birga to’langan qo’shilgan qiymat solig’i summasini chegirib tashlab, farqi byudjetga to’lanadigan qo’shilgan qiymat solig’i summasi bo’ladi.

Qo’shilgan qiymat solig’i bo’yicha haqiqiy hisoblashish har oyning haqiqiy oborotidan kelib chiqib hisoblanadi. Bu yerda har oylik soliq hisobi o’sib boruvchi yakun bilan keyingi oyning 15-sanasidan kechiktirmay soliq to’lovchilar joylashgan soliq idorasiga topshiriladi. Agar soliq hisobida qo’shilgan qiymat solig’i summasi qo’shimcha to’lashga tegishli bo’lib chiqsa, bu summa 5 kun ichida byudjetga o’tkazilishi shart.

Qisqacha xulosalar

Qo’shilgan qiymat solig’i yuridik shaxslardan yangi yaratilgan (qo’shilgan) qiymatning bir qismini byudjetga majburan olishdir. Qo’shilgan qiymat solig’i obyekti tovar ortish, ishlar va xizmatlar sotish oborotlaridir. Qo’shilgan qiymat solig’i stavkasi – 15 % ga teng. Qo’shilgan qiymat solig’i bo’yicha haqiqiy hisoblashish har oyning xaqiqiy oborotidan kelib chiqib hisoblanadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Qo’shilgan qiymat solig’i tushunchasi.
2. Soliq subyektlari va obyektiga nimalar kiradi.
3. Soliq stavkalari qanday?
4. Qo’shilgan qiymat solig’ini to’lash va hisobot topshirish tartibi qanday?
5. Qo’shilgan qiymat solig’idan hisobot topshirish tartibi qanday?
6. Qo’shilgan qiymat solig’i import tovarlariga qo’llaniladimi?

Mavzuga oid topshiriqlar:

Topshiriq-1 . Korxona o’zida ishlab chiqargan televizorlarini ya’ni mahsulotlarini o’z ishchilariga 1 500 ming so’mdan sotdi.

Mahsulotning tannarxi 2 000 ming so'mni tashkil qiladi. Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblang.

Torpshiriq-2. Asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati hisobotda qo'shilgan qiymat solig'i hisobga olinib aks ettirilishicha 12 000 ming so'mni, eskirish qiymati 500 ming so'mni va sotish narxi 70 ming so'mni tashkil etadi. Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblang.

Testlar:

1. Qo'shilgan qiymat solig'i 2020 yilda necha foizli stavka bo'yicha to'lanadi?

- A) 10%;
- V) 18%;
- S) 15%;
- D) 10 va 20%;

2. Tovarlarni realizatsiya qilish bo'yicha oborotlar tarkibiga nimalar kiradi?

- A) ortib jo'natilgan mahsulot;
- V) bajarilgan ishlar;
- S) ko'rsatilgan xizmatlar;
- D) a,v,s javoblar yig'indisi;

3. Bojxona organlari import qilinayotgan tovarlar buyicha QQSni respublika byudjetiga necha kun ichida o'tkazishlari kerak?

- A) 1 kun ichida;
- V) 3 kun ichida;
- S) 5 kun ichida;
- D) 10 kun ichida;
- E) 15 kun ichida;

4. Qo'shilgan qiymat solig'i O'zbekiston Respublikasida qachon joriy etilgan?

- A) 1968 yil
- V) 2000 yil
- S) 1992 yil
- D) 1991 yil

5. Qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchilari kimlar?

- A) tadbirkorlar, yakka tartibdagi tadbirkorlar;
- V) O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari;
- S) chet el yuridik shaxslari;
- D) Respublikamizning yuridik shaxslari, chet el yuridik shaxslari, tadbirkorlar.

VI BOB. AKSIZ SOLIG'I

Reja:

- 6.1.Aksiz solig'ining iqtisodiy mohiyati
- 6.2.O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqarilgan va respublikaga import qilinadigan tovarlar uchun aksiz solig'i.
- 6.3.Aksiz solig'i elementlari, stavkalari.
- 6.4.Aksiz solig'ini hisobga olish va buxgalteriyada rasmiylashtirish.



Tayanch so'z va iboralar

Aksiz, aksiz solig'i, aksiz osti tovarlari, shartnomaviy narx, soliq obyekti, soliq to'lovchilar, soliq stavkasi, soliq bo'yicha imtiyozlar, yuklab jo'natilgan tovarlar.

6.1. Aksiz solig'ining iqtisodiy mohiyati

Soliq tizimida eng ichki o'zgaruvchan, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning ko'plab omillari bilan to'qnashuvchi soliq bu - aksiz solig'idir. Aksiz solig'i egri soliq bo'lganligi sababli uning iqtisodiy mohiyati davlat bilan yuridik shaxslar o'rtasida vujudga keluvchi ob'ektiv majburiy to'lovlarga asoslangan moliyaviy munosabatlар orqali tavsiflanadi.

Aksiz solig'i rivojlangan xorijiy davlatlarda ham davlatning umum soliq siyosatida muhim o'rinnegallab kelmoqda. Respublikamizda qo'llanilayotgan aksiz solig'i chet davlatlardagi aksiz solig'i bilan o'xshash tomonlarga, shu jumladan o'ziga xos xususiyatlarga ham egadir, yani soliqqa tortish obyekti bo'lib, belgilangan stavkadagi aksiz solig'i summasini o'z ichiga olgan aksiz osti tovarlarining sotish (shartnomaviy) narxi hisoblanadi. Aksiz stavkasining bunday tartibda o'rnatilish mexanizmi tarixiy shakllanib, o'zini doimo oqlab kelgan.

Aksiz solig'i korxona mahsulotlari va xizmatlari bahosi ustiga yoki ta'rifiga ustama shaklda to'g'ridan to'g'ri kiritiluvchi egri soliq turi tushuniladi. Aksizlar sotilayotgan mahsulot yoki xizmatlar bahosi

ustiga ustama shaklida qo'yiladi va ularning pirovard to'lovchisi bo'lib iste'molchi hisoblanadi.

"Aksiz" fransuzcha so'zdan olingan bo'lib, tarjima qilinganda «kesib olish» ma'nosini anglatadi. O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligidagi aksiz solig'iga quyidagicha izoh berilgan: «Aksiz solig'i sof daromadning narxda va qo'shilgan qiymat solig'iga tortiladigan bazada hisobga olinadigan, egri soliq sifatida byudjetga o'tkaziladigan (undiriladigan) bir qismidan iboratdir.

Egri soliq sifatida aksiz solig'inining qo'shilgan qiymat solig'idan farqlanuvchi xususiyatlari quyidagicha:

- aksiz solig'ida cheklangan turdag'i aksiz osti mahsulotlarini sotish oboroti soliqqa tortiladigan obyekt bo'lib hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, qo'shilgan qiymat solig'idagi soliqqa tortish obyekti bo'lgan ish va xizmatlar aksiz solig'iga tortilmaydi;

- agar qo'shilgan qiymat solig'i tovar ishlab chiqarish va ayirboshlashning barcha bosqichlarida vujudga kelsa va undirilsa, aksizlar esa faqat ishlab chiqarish sohasidagina amal qiladi. Ushbu qoidadan O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kelinayotgan aksiz osti mahsulotlari va tovarlari istisnodir.

Aksiz solig'ini to'lovchilari deb, quyidagi shaxslarga aytiladi (Soliq kodeksi 283-modda):

- O'zbekiston Respublikasi hududida aksiz solig'i solinadigan tovarlar (aksiz to'lanadigan tovarlarni) ishlab chiqaruvchilar;

- Tabiiy gazni iste'molchilarga realizatsiya qilishni amalga oshiruvchilar;

- Benzin, dizel yoqilg'isini yakuniy iste'molchilarga realizatsiya qilishni, shu jumladan avtomobilarga yoqilg'i quyish shoxobchalari orqali, shuningdek gazni avtomobilarga yoqilg'i quyish shoxobchalari orqali realizatsiya qilishni amalga oshiruvchilar. Yakuniy iste'molchilar deganda o'z ehtiyojlari uchun benzin, dizel yoqilg'isi hamda gaz oluvchi yuridik va jismoniy shaxslar tushuniladi;

- O'zbekistoln Respublikasining bojxona hududi orqali aksiz to'lanadigan tovarlarni olib o'tuvchilar;
- telekommunikatsiya mobil aloqa xizmatlarini (aksiz to'lanadigan xizmatlarni) ko'rsatadigan O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari;
- O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiradigan, aksiz solig'i solinadigan tovarlarni ishlab chiqaruvchi yoki shunday tovarlarni olib kirishni amalga oshiruvchi chet el yuridik shaxslari.

Aksiz solig'ini mohiyatidan kelib chiqib quyidagi vazifalarni bajaradigan:

- mamlakat byudjetining muhim daromad manbalaridan biri sanaladi. Soliq tizimi rivojlanish bosqichini boshdan kechirayotgan barcha davlatlar singari, mamlakatimizda ham aksiz orqali daromadlarni tez va oson yig'ish imkoniyatlari yuzaga keladi. Fransuz iqtisodchisi F. Demezon ta'biri bilan aytganda «Aksizning o'zi barcha boshqa soliq tushumlari va undan ham ko'proqni berishga qodirdir»;
- aksiz osti tovarlari iste'molini cheklash (asosan ijtimoiy zararli tovarlar) orqali muayyan bozor doirasida talab va taklifni tartibga solish. Iqtisodiy o'sish doirasini bashqarishda aksiz osti tovarlar ro'yxatini belgilash orqali davlat yalpi talab va taklifni egiluvchanligi ta'minlaydi;
- davlatning milliy bozorni himoya qilish vazifasi aksiz solig'i orqali ta'minlanadiki, bunda yuqori soliq stavkalaridan foydalaniladi;
- aksiz solig'i monopol mavqedagi tovar ishlab chiqaruvchi yoki aniq mahsulot turini progressiv soliqqa tortish vazifasini o'taydi;
- aksiz solig'i aholini boy badavlat qatlamlari daromadlarini qayta soliqqa tortish usuli bo'lib hisoblanadi. Chunki aksiz solig'i asosan nufuzli (qiymati yuqori) tovarlarga qo'llaniladiki, bunday tovarlarni asosiy iste'molchilari boy-badavlat shaxslar hisoblanadi.

Shunday qilib, aksiz solig'i ijtimoiy muhitni ham yaxshilash imkoniyatlarini moliyaviy natijalarning o'sishi orqali ta'minlab berishi mumkindir. Shu bois aksiz solig'inining takomillashtirilishi ijtimoiy-iqtisodiy muhitni yaxshilanishi bilan chambarchas bog'liqdir.

6.2. O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqarilgan va respublikaga import qilinadigan tovarlar uchun aksiz solig'i

Aksiz solig'ini hisoblash tartibi. Alkogolli mahsulotlar bo'yicha mahsulot birligiga (1 litr) aksiz solig'i summasi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$AS = M \times A$$

bunda: M - tayyor alkogolli mahsulotning quvvati (%) (spirit tayyorlangan xom ashyo turidan qat'iy nazar);

A - Aksiz solig'i stavkasi, mahsulot birligiga so'mda.

Boshqa aksiz to'lanadigan mahsulotlar bo'yicha aksiz solig'i summasi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$AS = (O \times A\%) / 100 \%$$

bunda: O - O'z ichiga aksiz solig'ini olgan shartnomaviy (erkin) narx, QQSSiz; A - aksiz solig'i stavkasi.

Aksiz markalari bilan markalangan tovarlar bo'yicha aksiz solig'i to'lashning o'ziga xos xususiyatlari.

O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan aksizli tovarlar.

1. Etil spiriti
2. Vino
3. Kon'jak, aroq va boshqa alkogolli mahsulotlar
4. Pivo
5. O'simlik (paxta) yog'i
6. Sigaretalar (filtrli, filtrsiz, papiroslar)
7. Zargarlik buyumlari
8. "Jeneral Motors O'zbekiston" YoAJ ishlab chiqargan avtomobillar
9. Kumushdan ishlangan oshxonalar anjomlari
10. Qimmatbaho metallar
11. Neft mahsulotlari
12. Tabiiy gaz
13. Ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan sotiladigan suyultirilgan gaz

Aksiz markalari bilan markalangan tovarlar bo'yicha aksiz solig'i umum o'rnatilgan tartib bo'yicha hisoblanadi. Aksiz markalarining nominal qiymati aksiz solig'i to'lovi hisobiga kiritilmaydi.

Berilgan xom ashayodan ishlab chiqariladigan tovarlar bo'yicha aksiz solig'ini hisoblashning o'ziga xos xususiyatlari.

Buxgalteriya hisobi haqidagi qonunchilikka muvofiq berilgan xom ashyo mahsulotni ishlab chiqaruvchi korxona tomonidan balansdan tashqarida hisobga olinadi.

Berilgan xom ashayodan ishlab chiqariladigan mahsulotga aksiz solig'ini hisoblab chiqishda, aksiz to'lanadigan tovarlar realizatsiyasi bo'yicha aylanish (oborot) ushbu tovarlarni ishlab chiqish bo'yicha bajarilgan ishlar qiymati va berilgan xom ashyo qiymatidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

6.3. Aksiz solig'i elementlari

Aksiz solig'i to'lovchilari deb mulk shaklidan qat'iy nazar aksiz to'lanadigan tovarlar ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslar hisoblanadi. Soliq solish maqsadlarida yuridik shaxslar deganda o'zining mulkchiligidida, xo'jalik yuritishida yoki tezkor boshqaruvida mulkka ega bo'lган, shuningdek o'zining majburiyatları bo'yicha ushbu mulk bilan javob beradigan, shuningdek mustaqil balans va hisob-kitob schyotiga ega bo'lган alohida bo'linmalar tushuniladi.

Aksizlanadigan tovarlar uchun **soliq solish obyekti** bo'lib:

- aksiz to'lanadigan tovarlarni realizatsiya qilish, shu jumladan aksiz to'lanadigan tovarlarni boshqa tovarlarga ayirboshlash uchun berish;

- aksiz to'lanadigan tovarlarni yuridik shaxsning ustav fondiga hissa sifatida yoxud oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha sherikning hissasi sifatida berish;

- aksiz to'lanadigan tovarlarni qaytarish sharti bilan qayta ishslash uchun topshirish;

- aksiz to'lanadigan tovarlardan o'z ehtiyojlari uchun foydalanish;

- aksiz to'lanadigan tovarlarni O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga olib kirish;

- benzin, dizel yoqilg'isini yakuniy iste'molchilarga realizatsiya qilish yoki ulardan o'z ehtiyojlari uchun foydalanish;

- aksiz to'lanadigan xizmatlar ko'rsatish;

Quyidagilarga aksiz solig'i solinmaydi:

1) aksiz to'lanadigan tovarlarni eksportga realizatsiya qilish, bundan aksiz to'lanadigan tovarlarning ayrim turlari mustasno;

2) keyinchalik O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan olib chiqib ketilishi sharti bilan «bojxona hududida qayta ishlash» bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlardan ishlab chiqarilgan qayta ishlash mahsuli bo'lган aksiz to'lanadigan tovarlarni topshirishga;

3) O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga:

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda insonparvarlik yordami sifatida;

- davlatlar, hukumatlar, xalqaro tashkilotlar tomonidan xayriya yordami maqsadida, shu jumladan texnik ko'mak ko'rsatish maqsadida;

- O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bo'yicha xalqaro va chet el hukumat moliya tashkilotlari tomonidan berilgan zayomlar (kreditlar) mablag'lari hisobiga, shuningdek grantlar hisobiga yuridik shaxslar tomonidan olib kirilayotgan, aksiz to'lanadigan tovarlarni import qilishga.

4) aksiz to'lanadigan tovarlarni O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga aksiz solig'i solinmaydigan tovarlarni olib kirish normalari doirasida jismoniy shaxslar tomonidan import qilishga. O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga aksiz solig'i solinmaydigan tovarlarni jismoniy shaxslar tomonidan olib kirish normalarining eng yuqori chegarasi qonun hujjalarda belgilanadi;

5) vakolatli davlat organining yozma tasdig'i mavjud bo'lган taqdirda, telekommunikatsiyalar operatorlari va tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalarini sertifikatlashtirish bo'yicha

maxsus organ tomonidan olinadigan tezkor-qidiruv tadbirlari tizimi texnik vositalarini import qilishga.

Aksiz solig'i bo'yicha joriy to'lovlarning summasini aniqlash uchun soliq to'lovchilar joriy soliq davri birinchi oyining 10-kunigacha davlat soliq xizmati organiga joriy soliq davri uchun aksiz to'lanadigan tovarlarni realizatsiya qilishning taxmin qilinayotgan hajmi hamda aksiz solig'inining belgilangan stavkasidan kelib chiqib hisoblangan aksiz solig'inining summasi haqida ma'lumotnomma taqdim etadilar.

6.4. Aksiz solig'ini hisobga olish va buxgalteriyada rasmiylashtirish

Aksiz solig'i to'lash muddatlari va mos ravishda hisob-kitoblarni taqdim qilish muddatlari dam olish (ishlamaydigan kun) yoki bayram kuniga to'g'ri kelsa, u holda ular dam olish yoki bayram kunidan keyingi birinchi ish kuniga ko'chiriladi.

Aksiz solig'inining ortiqcha to'langan summalar kelgusi to'lovlar hisobiga o'tkaziladi yoki to'lovchiga soliq organi tomonidan uning yozma ravishdagi arizasini olingan kundan boshlab 30 (o'ttiz) kunlik muddat ichida (byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzlar bo'lmasligi sharti bilan) qaytarib beriladi.

Aksiz solig'i to'lanadigan tovar O'zbekiston Respublikasi hududida aksiz solig'i to'langan xom ashymdan ishlab chiqarilgan holatlarda, xom ashyo (mahsulot) bo'yicha to'langan aksiz solig'i summasi ishlab chiqarish xarajatlariga kiritilmaydi va tayyor mahsulotga aksiz solig'i summasini hisoblashda hisobga olinadi.

Hisobga o'tkazilishi lozim bo'lган aksiz solig'i summasi ustidan nazoratni amalga oshirish uchun, xom ashyo (mahsulotni) yetkazib beruvchilar tovar-kuzatuv hujjatlarida byudjetga to'lanishi lozim bo'lган ortilgan xom ashyo (mahsulot) bo'yicha aksiz solig'i summasini alohida qatorda ko'rsatishlari shart.

Agar, sotib olinayotgan aksiz solig'i solinadigan xom ashyo (mahsulot) bo'yicha aksiz solig'i summasi tovar-kuzatuv hujjatlarida alohida ajratib ko'rsatilmagan bo'lsa, u hisob-kitob yo'li bilan

hisoblab chiqarilmaydi va tayyor mahsulot bo'yicha hisobga kiritilmaydi.

Hisobga o'tkazilishi lozim bo'lgan aksiz solig'i summasi alohida mufassal (analitik) schyotda hisobga olinadi va tegishli ulushlarda 6410 - "Byudjet bilan hisob-kitoblar" schyotining debetiga xom ashyoni ishlab chiqarishga sarflanishi sari hisobdan chiqarilib boriladi.

Aksiz markalarini sotib olishda boshqa joriy aktivlar schyotining debetida va pul vositalarining hisobi schyotining kreditida buxgalteriya yozuvi yozib qo'yiladi.

Mahsulotni markirovkalash uchun aksiz markalari ishlatalgan sari quyidagi buxgalteriya yozuvi yozib boriladi: davr xarajatlari hisobi schyotining debeti va boshqa joriy aktivlar schyotining krediti.

Soliq to'lovchilar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

Aksiz solig'inining to'g'ri hisoblash va byudjetga to'lash ustidan nazorat davlat soliq organlari tomonidan O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, O'zbekiston Respublikasining "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi qonuni va O'zbekisgon Respublikasining boshqa qonun hujjatlariga muvofiq ravishda amalga oshiriladi.

Aksiz solig'i summasi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$AS = O \times A\% / 100\%$$

Aksiz solig'ini to'lash tartibi.⁹

Aksiz solig'i summasi byudjetga quyidagi muddatlarda to'lanadi

- Soliqni to'lash soliq hisobotini taqdim etish muddatida kechiktirmay amalga oshiriladi;
- Import qilinadigan tovarlar bo'yicha soliqni to'lash bojxonasi to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda amalgam oshiriladi;
- Aksiz markalari bilan tamg'alanishi lozim bo'lgan olib kiriladigan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha soliq aksiz markalar olinguniga qadar to'lanadi.

⁹ Ўзбекистон Республикаси Солиқ Кодекси (яңги таҳрири). Тошкент “НОРМА” 30.12.2019й 40-боб.293-модда 203 бет.

Aksiz to'lanadigan tovarlarni aksiz markalari bilan tamg'alash

O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqariladigan, shuningdek uning bojxona hududiga import qilinadigan tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda aksiz markalari bilan tamg'alanishi shart.

Soliq soluvchi tomonidan, realizatsiyaning haqiqiy xajmidan kelib chiqqan xolda hisoblangan aksiz solig'inining summasi, byudjetga to'lanadi.

Realizatsiya kuni deb tovar - kuzatuv hujjalarda ko'rsatilgan tovar ortilgan kun hisoblanadi.

Dekadali to'lovlar bo'yicha aksiz solig'inining kelib tushgan summasi davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq to'lovchilarining shaxsiy schyotlarining soliqni "hisoblash" va "to'lash" ustunlarida bir vaqtning o'zida aks ettiriladi.

Soliq to'lovchi o'zi ro'yxatdan o'tgan joydagi tegishli soliq xizmati organiga aksiz solig'i bo'yicha hisob-kitoblarni har oyda, hisobot oyidan keyin keluvchi oyning 20 sanasigacha muvofiq shaklda taqdim qilinadi. Aksiz solig'i to'lash muddatlari va mos ravishda hisob-kitoblarni taqdim qilish muddatlari dam olish (ishlamaydigan kun) yoki bayram kuniga to'g'ri kelsa, u holda ular dam olish yoki bayram kunidan keyingi birinchi ish kuniga ko'chiriladi. Hisobot davri mobaynida dekadali to'lovlar bo'yicha to'langan aksiz solig'i summalarini tegishli hisobot davri uchun hisoblangan soliq summasida hisobotga o'tkaziladi.

Aksiz solig'inining ortiqcha to'langan summalarini kelgusi to'lovlar hisobiga o'tkaziladi yoki to'lovchiga soliq organi tomonidan uning yozma ravishdagi arizasini olingan kundan boshlab 30 kunlik muddat ichida (byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzlar bo'lmasligi sharti bilan) qaytarib beriladi.

Qisqacha xulosalar.

Aksizlar sotilayotgan mahsulot yoki xizmatlar bahosi ustiga ustama shaklida qo'yiladi va ularning pirovard to'lovchisi bo'lib iste'molchi hisoblanadi. Aksiz solig'iga cheklangan turdag'i aksiz osti mahsulotlarini sotish oboroti soliqqa tortiladigan obyekt hisoblanadi. Aksiz solig'i to'lovchilar bo'lib aksiz osti mahsulotlarini sotib oluvchi va qayta sotuvchi tashkilotlar hisoblanadi. Aksiz solig'i o'z mohiyatiga ko'ra tovar bahosiga kiritiluvchi va oxirgi iste'molchi tomonidan to'lanadigan soliqdir.

Nazorat savollari

1. Aksiz tushunchasi va aksiz solig'i nimani ifoda etadi?
2. Aksiz solig'i to'lovchilar qanday guruhlanadi?
3. Aksiz osti tovarlarini aniqlash mezonlari qanday?
4. Aksiz solig'i obyekti nimalardan iborat?
5. Aksiz solig'ini hisobga olish tartibi qanday?
6. Aksiz solig'i hisobini taqdim etish va soliqni to'lash muddatlari qanday?

Mavzuga doir topshiriqlar

Topshiriq-1. Korxona turli markali vino va aroq mahsulotlarini ishlab chiqaradi. 2020 yilda korxonada 9 ming dal aroq (etil spirti ulushi 40% dan ortiq) va 3,5 ming dal vino mahsulotlari ishlab chiqarildi. Hisobot davri uchun aksiz solig'ini hisoblang.

Topshiriq -2. “ALKO Pyat” - aroq zavodi 2019 yilda 40% o'tkirlikdagi, 0,5 l sig'imli “Marvarid” markali aroqdan 2560 butilka ishlab chiqardi va 2100 butilka realizatsiya qildi. Hisobot yili uchun aksiz solig'i solinadigan bazani va soliq summasini hisoblang.

Topshiriq -3. “Dilyor avtokorxona” joriy yil sentyabr oyida 88 000,0 ming so'm chakana narx bo'yicha “Neksiya” avtomobilini realizatsiya qildi. Avtomobilning chakana bahosi dillerning 925 ming so'm vositachilik haqini ham o'z ichiga olgan. Aksiz solig'i bo'yicha soliq solinadigan baza va soliq summasini hisoblang.

Topshiriq -4. Korxona o'zi ishlab chiqargan aksiz tovarlarni boshqa korxonaning ustav kapitaliga ulush sifatida bermoqda. Hissa

tarzida berilayotgan mahsulotlarning tannarxi 10 000 ming so'mni tashkil etadi va ular tannarx bo'yicha kiritilmoqda. Aksiz solig'i, QQS va ulushning umumiy qiymatini hisoblang.

Testlar

1. Aksiz solig'ini kimlar to'laydi?

- A) Aksiz solig'iga tortiladigan tovarlar ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslar
- B) Aksiz solig'iga tortiladigan tovarlar ishlab chiqaruvchi jismoniy shaxslar
- C) Aksiz solig'iga tortiladigan tovarlar ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslar va import qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslar
- D) Aksiz solig'iga tortiladigan tovarlarni eksport qiluvchi yuridik shaxslar.

2. Egri soliqlar keltirilgan javobni ko'rsating?

- A) QQS, aksiz solig'i, bojxona bojlari, transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va suyultirilgan gaz ishlatganlik uchun soliq
- B) Aksiz solig'i, jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va suyultirilgan gaz ishlatganlik uchun soliq, yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq;
- C) Bojxona bojlari, aksiz solig'i, mol-mulk solig'i;
- D) QQS, aksiz solig'i, yer solig'i.

3. Soliq imtiyozining turlarini ko'rsating?

- A) Butunlay ozod etish, oz muddatga ozod etish;
- B) Butunlay, vaqtinchalik, qisman;
- C) Vaqtincha, uzoq muddatga, to'liq;
- D) Qisqa muddatga, uzoq muddatli, butunlay

4. Egri soliqlar bu?

- A) Tovarlar va xizmatlarga ustama soliq.
- B) Daromad soliqlari.
- C) Ta'riflarga ustama to'lovlar.
- D) Mulk solig'i.

5. Quyidagi obyektlaridan qaysi biri QQS nol darajali stavka bo'yicha soliqqa tortiladi?

- A) Tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning sotilishi bo'yicha aylanmalar
- B) Xalqaro tashishlar buyicha aylanma summasi
- C) O'zi ishlab chiqargan qishloq xo'jalik mahsulotlarining sotilishi;
- D) Xorijiy valyutadagi eksport tovarlarning aylanma summalarini

VII BOB. YURIDIK SHAXSLARNING MOL-MULKIGA SOLINADIGAN SOLIQ

Reja:

7.1.O’zbekiston Respublikasi soliq tizimida mol-mulk solig’ining iqtisodiy mohiyati va elementlari

7.2.Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig’ini to’lovchilari

7.3.Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig’ini ob’ekti.

7.4.Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig’ini stavkalari, soliqni hisoblash va to’lash tartibi.



Tayanch so’z va iboralar: korxona mol-mulki, yuridik shaxslarning mol-mulk solig’i, mol-mulklar qiymati, o’rtacha qoldiq qiymat, muddatida o’rnatilmagan uskunalar, soliq to’lovchilar, soliq stavkasi, soliq bo’yicha imtiyozlar.

7.1. O’zbekiston Respublikasi soliq tizimida mol-mulk solig’ining iqtisodiy mohiyati

Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig’i to’g’ri soliqlar tarkibiga kiradi va mohiyatiga ko’ra bu soliq asosiy fondlar shaklidagi resurslarga nisbatan belgilangan soliq hisoblanadi. Bu soliq bo’yicha tushumlar summasi to’liq mahalliy byudjetlarga tushadi.

Soliq tizimida mol-mulk solig’ini joriy etishdan maqsad, *birinchidan*, korxonalar o’zlarining xo’jalik faoliyatini yuritishda ortiqcha va foydalanilmayotgan mol-mulkini sotishga qiziqishini uyg’otish bo’lsa, *ikkinchidan*, korxonalar balansidagi mol-mulkdan samarali foydalanishni rag’batlantirishdan iborat. Yuqorida keltirilgan mol-mulk solig’i Qoraqolpog’iston Respublikasi va viloyatlar, hamda Toshkent shahar hokimiyat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Mol-mulk solig’i O’zbekiston Respublikasining 1991 yil 15 fevralidan qabul qilingan “Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to’g’risida”gi Qonuniga asosan joriy etiladi va korxonalarning ishlab chiqarish fondlariga to’lov hamda transport vositalariga solinadigan soliq bekor qilinadi.

Yuridik shaxslar mol-mulki soliqqa tortiladigan obyekt sifatida, asosiy vositalarning o'rtacha yillik balans qiymatini hisoblash jarayonida asosiy vositalarning boshlang'ich qiymatidan eskirish summasi chegirilganidan keyin qolgan qoldiq qiymati bo'yicha hisoblanadi.

Korxonalarning mol-mulkiga solinadigan soliq, asosan, joylardagi mahalliy byudjetlar daromad qismini shakllantiradi. Undirilgan mol-mulk solig'i summasi teng ulushlarda mahalliy byudjetlarga o'tkaziladi. Mamlakatimizda mol-mulk soliqni joriy etishdan quyidagi maqsadlarda ko'zda tutilgan:

- korxonalar o'zlarining xo'jalik faoliyatini yuritishda ortiqcha va foydalanilmayotgan mol-mulkini sotishga qiziqishni uyg'otish;

- xo'jalik yurituvchi subyektlar balansidagi mol-mulkdan samarali foydalanishni rag'batlantirish.

Hozirgi paytda mol-mulk soliqlaridan keladigan daromad yetakchi salmoqqa ega bo'lmasa-da, bu soliqlar soliq tizimida o'ziga xos o'rinn tutadi. Shuningdek, mol-mulk solig'i davlat byudjetiga daromadni ta'minlash bilan birga, daromad va mulk taqsimotidagi nomutanosiblikni bartaraf etishning muhim vositasi hisoblanadi. Mulk soliqlarining asl maqsadi davlat byudjeti manfaatlariga va korxonalar manfaatlariga xizmat qilishdan iborat.

Korxonalar mol-mulkini soliqqa tortish mexanizmi – bu yuridik shaxslar mol-mulkiga soliq solish bilan bog'liq bo'lgan, soliqni tashkil qilishda bevosita ishtirok etuvchi elementlar majmui hisoblanadi. Bu majmua: soliq subyekti, soliq obyekti, soliqqa tortish birligi, soliq stavkasi, soliqqa tortiladigan baza, soliq imtiyozlari, soliqni to'lash muddatlari va boshqa elementlardan iborat.

7.2. Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ini to'lovchilari

O'zbekiston Respublikasi hududida soliq solinadigan mol-mulkka ega bo'lgan yuridik shaxslar va O'zbekiston Respublikasi hududida ko'chmas mulkka ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasining

norezidenti bo'lgan yuridik shaxslar mol-mulk solig'i to'lovchilari hisoblanadi (Soliq kodeksi 410-modda).

Soliqqa tortish maqsadlarida yuridik shaxslar deganda mulkchiligida, xo'jalik yuritishda yoki tezkor boshqaruvida mol-mulkka ega bo'lgan va o'z majburiyatlari bo'yicha ana shu mol-mulk bilan javob beruvchi, shuningdek mustaqil balansga va hisob-kitob raqamiga ega bo'lgan har xil turdag'i korxonalar va tashkilotlar, shu jumladan ularning alohida bo'linmalari tushuniladi.

7.3. Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ini obyekti

Soliq kodeksning 411-moddasiga binoan ko'chmas mulk yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq solish obyekti hisoblanadi.

Ko'chmas mulk jumlasiga quyidagilar kiradi:

- binolar va inshoatlar;
- qurilishi tugallanmagan obyektlar (24 oy ichida);
- temir yo'llar, magistral quvurlar, aloqa va elektr uzatish liniyalari, shuningdek mazkur obyektlarning ajralmas texnologik qismi bo'lgan inshoatlar;
- qurilish tashkilotlari yoki imoratlarni quruvchilar balansida keyinchalik sotish uchun ko'rsatilgan turar joy ko'chmas mulk obyektlari, ko'chmas mulk obyekti foydalanishga topshirilgandan keyin 6 oy o'tgach.

Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'inining soliq solish bazasi bo'lib:

- asosiy vositalarning o'rtacha yillik qoldiq qiymati (moliyaviy ijara (lizing) shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalar);
- nomoddiy aktivlarning o'rtacha yillik qoldiq qiymati;
- belgilangan muddatlarda tugallanmagan qurilish ob'ektining qiymati;
- me'yordagi muddatlarida o'rnatilmagan uskunalarining qiymati hisoblanadi.

Ko'chmas mulkning qoldiq qiymati mol-mulkning boshlang'ich (tiklanish) qiymati bilan soliq to'lovchining hisob siyosatida belgilangan usullaridan foydalanilgan holda ishlab chiqilgan amortizatsiya miqdori o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi. Bunda to'liq amortizatsiya qilingan biro bo'yicha uning uch yilda kamida bir marta aniqlanadigan qayta baholangan (bozor) qiymati soliq bazasidir.

7.4. Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ini stavkalari, soliqni hisoblash va to'lash tartibi

Mol-mulk solig'i stavkalari quyidagi 7.4.1-jadvalda keltirilgan

7.4.1-jadval

Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i STAVKALARI¹⁰

№	Soliq to'lovchilar	Soliq solinadigan bazaga nisbatan %larda soliq stavkalari
1	Yuridik shaxslar	2
2	Qurilishi tugallanmagan obyektlar	4
3	Temir yo'llar, magistral quvurlar, aloqa va elektr uzatish liniyalari, shuningdek mazkur obyektlarning ajralmas texnologik qismi bo'lgan inshoatlar	0,2
4	Konservatsiya qilinishi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan qabul qilingan ko'chmas mulk va tugallanmagan qurilish obyektlari	0,2

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga 2 foiz stavkasi bo'yicha soliq solinadi.

¹⁰Ўзбекистон Республиқаси Солиқ Кодекси (янги таҳрири). Тошкент “НОРМА” 30.12.2019й 59-боб.415-модда. 29-293-бетлар.

Soliqni hisoblash va to'lash tartibi. Yuridik shaxslar byudjetga joriy to'lovlар summasini hisobot yili mol-mulkining o'rtacha yillik qoldiq qiymatidan va soliq stavkasidan kelib chiqib mustaqil ravishda belgilaydilar.

Byudjetga joriy to'lovlarni to'lash har oyning 20-kunidan kechiktirmay, yillik soliq summasining 1/12 qismi miqdorida to'lanadi. Byudjetga joriy to'lovlarni hisoblab chiqarish va to'lash uchun soliq to'lovchilar mol-mulkning tegishli yilga o'rtacha yillik qoldiq qiymatidan va belgilangan soliq stavkasidan kelib chiqadilar va joriy yilning 10 yanvarigacha davlat soliq xizmati organlariga yuridik shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig'i hisobini taqdim etadilar.

Birinchi chorak, yarim yillik, 9 oy va yil tugashi bilan to'lovchi hisobot davri uchun mol-mulkning haqiqatda o'rtacha qoldiq qiymatidan kelib chiqib yil boshidan o'sib boruvchi yakun bilan mol-mulk solig'i hisob-kitobini mustaqil ravishda amalga oshiradi va davlat soliq xizmati organlariga moliyaviy hisobotlarni taqdim etish uchun belgilangan muddatlarda taqdim etadi. (Ilovada berilgan)

Mol-mulkning qoldiq qiymati va imtiyoz taqdim etish muddatini ko'rsatgan holda korxona mol-mulki o'rtacha qoldiq qiymatining hisob-kitobi va soliq undirilmaydigan mol-mulk ro'yxati mol-mulk solig'inining hisob-kitobiga majburiy ilovalar hisoblanadi.

Ortiqcha to'langan soliq summalar, agar soliqlar va yig'imlar bo'yicha qarz mavjud bo'lmasa, to'lovchining yozma arizasiga ko'ra bo'lg'usi to'lovlar hisobiga qayd etiladi yoki 30 kun ichida qaytariladi.

Byudjet bilan hisob-kitoblarning buxgalteriya hisobi byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzni hisobga olish hisobvarag'i bo'yicha yuritiladi.

Hisoblab yozilgan soliq summasi quyidagicha aks ettiriladi:

9400 «Davr xarajatlarini hisobga olish» hisobvarag'i debeti;

6400 «Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzlarni hisobga olish» hisobvarag'i krediti.

Byudjetga o'tkazilgan soliq summalar quydagicha aks ettiriladi:

6400 «Byudjetga to’lovlar bo’yicha qarzlarni hisobga olish» hisobvarag’i debeti;

5100 «Pul mablag’larini hisobga olish» hisobvarag’i krediti.

Qisqacha xulosalar

Xozirgi paytda mol-mulk soliqlaridan keladigan daromad yuqori salmoqqa ega bo’lmasada, bu soliqlar soliq tizimida o’ziga xos o’ringa ega shuningdek, mol-mulk solig’i davlat byudjetida daromadni ta’minalash bilan birga, daromad va mulk taqsimotidagi nomutanosiblikni bartraf etishning muhim vositasi hisoblanadi. Mulk solig’ining maqsadi davlat byudjeti manfaatlariga va korxonalar manfaatlariga xizmat qiladi.

Korxonalar mol-mulkiga solinadigan soliq, asosan joylardagi mahalliy byudjetlar daromad qismini shakllantiradi. Undirilgan mol-mulk solig’i summasi teng ulushlarda mahalliy byudjetlarga o’tkaziladi.

Mamlakatimizda mol-mulk solig’ini joriy etishdan asosiy maqsad, korxonalar o’zlarining xo’jalik faoliyatini yuritishda ortiqcha va foydalanilmayotgan mol-mulkini sotishga qiziqishi uyg’onadi hamda xo’jalik yurituvchi subyektlar balansidagi mol-mulkdan samarali foydalanishni rag’batlantiradi.

Mol-mulk solig’i mavjud ishlab chiqarishni ekstensiv kengaytirishni jilovlash vazifalarini hal qilishga ham samarali ta’sir qiladi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Yuridik shaxslarning mol-mulk solig’ini to’lovchilariga kimlar kiradi?
2. Mol-mulkning o’rtacha yillik (choraklik, 6 oylik, 9 oylik) qoldiq qiymati qanday tartibda hisoblanadi?
3. Yuridik shaxslar mol-mulk solig’i stavkasini kim belgilaydi?
4. Ushbu soliqdan qanday imtiyozlar mavjud?
5. Mol-mulk solig’i hisobini taqdim etish tartibi.
6. Ushbu soliqni to’lash muddatlari qanday?

Mavzuga doir topshiriqlar

Topshiriq-1. “O’zbekiston” paxta tozalash korxonasi asosiy vositalarining mulk solig’i bo’yicha joriy to’lovlar hisoblab chiqarilgan o’rtacha yillik qoldiq qiymati 22 000 ming so’mni tashkil etgan. Mulk

solig'inining yil uchun hisoblangan summasi 820 ming so'm. Yil davomida 500 ming so'm to'langan. Dekabrda (10 sanada) yangi uskuna sotib olinib foydalanishga topshirildi. Qayta hisob-kitobdan keyin o'rtacha yillik qoldiq qiymat 22 600 ming so'mni tashkil etdi.

Aniqlang:

1. Qayta hisob-kitob qilingandan keyin yil uchun mulk solig'ini hisoblang
2. Qayta hisob-kitob qilingandan keyin byudjetga to'lanadigan mulk solig'ini hisoblang

Topshiriq-2. To'qimachilik korxonasini yil boshiga mol-mulkini qoldiq qiymati 100 mln. so'mni tashkil qiladi. Korxona shu yilning 15 aprelida 50000 ming so'mlik asosiy vositalarni sotib oldi va 20 iyunda 22 mln so'mlik nomoddiy aktivlarni hisobdan chiqardi. Korxona bir yarim yillik uchun qancha miqdorda mol-mulk solig'ini to'lash kerak?

Testlar

1. Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti markazlashgan holda qaysi soliqlarni to'laydilar?

- A) Mol-mulk va foyda solig'ini;
- B) QQS va foyda solig'ini;
- C) Aksiz va mol-mulk solig'ini;
- D) QQS va mol-mulk solig'ini.

2. Quyida qayd etilgan soliqlarning qaysi biri egri soliqlar guruhiga kiradi?

- A) Foyda solig'i
- B) QQS
- C) Jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliq
- D) Yer solig'i

3. Soliq obyekti deganda -

- A) Soliq undiruvchilar tushuniladi
- B) Soliq to'lovchilar tushuniladi
- C) Foyda, mol-mulk qiymati, yer maydoni
- D) Soliq bazasiga nisbatan belgilangan me'yor

4. Yuridik manzilgohi o'zgarganda korxona necha kun ichida soliq idoralarini xabardor kilish kerak?

- A) 3 kun ichida
- B) 1 oy ichida
- C) 1 yil ichida
- D) 10 kun ichida

5. Yuridik shaxslar uchun mol-mulk solig'inining stavkasi qancha?

- A) 2 % V) 5% S) 4,5 % D) 7,5 %

VIII BOB. JISMONIY SHAXSLARNING MOL-MULKIGA SOLINADIGAN SOLIQ

Reja:

- 8.1. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'inining iqtisodiy mohiyati.
- 8.2. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i elementlari.
- 8.3. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'idan imtiyozlar.
- 8.4. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ini hisoblash va to'lash muddatlari.



Tayanch so'z va iboralar: jismoniy shaxslar, jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'i, baholangan va baholanmagan uylar, soliq obyekti, soliq stavkasi, soliq bo'yicha imtiyozlar.

8.1. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'inining iqtisodiy mohiyati

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq – bu bevosita mahalliy soliq turi bo'lib, u o'zining ushbu sifati bilan moddiy boyliklarni olish va jamg'arish jarayonida undiriladi. Bu real soliqdir, («real» atamasi (inglizcha real-mulk) ayni ushbu soliq birinchi galda fuqaro egalik qilinadigan mol-mulk solinishi bilan bog'liq). Bu muntazam soliq hisoblanadi, ya'ni u yilda bir marta muntazam ravishda undiriladi. Nihoyat bu hududiy soliq bo'lib, u O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan va unda ro'yxatga olingan ko'chmas mulk uchun to'lanadi. Mol-mulk solig'i mutanosib (proporsional) soliqdir.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni huquqiy tartibga solishning asosiy manbalariga O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 60- bobning 418-423 moddalarida o'z aksini topgan.

8.2. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i elementlari

Soliq kodeksning 419-moddasiga muvofiq "Mulkida soliq solinadigan mol-mulki bo'lgan jismoniy shaxslar, shu jumladan chet el fuqarolari, agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, shuningdek yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq to'lovchilaridir. Agar mol-mulk mulkdorining joylashgan yerini aniqlash imkonи bo'lmasa, bu mol-mulk qaysi shaxsning egaligida va (yoki) foydalanishida bo'lsa, o'sha shaxs soliq to'lovchidir".

Soliq kodeksning 419-moddasiga muvofiq soliq solish obyekti O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan uy joylar, kvartiralar, dala hovli imoratlari, garajlar va boshqa imoratlar, joylar, inshootlar soliq solish obyektidir.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkini baholash bo'yicha vakolatli organ tomonidan aniqlangan soliq solish obyektining bahosi mavjud bo'limgan taqdirda, mol-mulkning qonun hujjatlari bilan belgilanadigan shartli qiymati soliq solinadigan bazadir.

Bitta jismoniy shaxs bir nechta soliq solish obyekti bo'yicha to'lovchi bo'lgan taqdirda, soliq solinadigan baza har bir obyekt bo'yicha alohida-alohida hisoblab chiqiladi.

O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirmaydigan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari uchun O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan, ularga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan ko'chmas mulk soliq solish obyektidir. Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ O'zbekiston Respublikasining norezidenti tomonidan mulk qilib olingan (realizatsiya qilingan) ko'chmas mulk obyekti to'g'risidagi ma'lumotlarni ushbu ob'ektlar joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organiga ro'yxatdan o'tkazilganidan keyin o'n kun ichida ma'lum qilishi shart.

Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ tomonidan belgilanadigan soliq solish obyektlarining inventarizatsiya qiymati to'lovchilar uchun soliq solinadigan bazadir.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkini baholash bo'yicha vakolatli organ tomonidan aniqlangan soliq solish obyektining inventar bahosi mavjud bo'lмаган taqdirda, mol-mulkning qonun hujjatlari bilan belgilanadigan shartli qiymati soliq solinadigan bazadir.

Yangi qurilgan yoki sotib olingan mulklar bo'yicha soliq kelgusi yil boshidan boshlab hisoblanadi.

Meros bo'yicha mol-mulkdan soliq merosxo'rlardan meros ochilgan paytdan boshlab undiriladi. Mol-mulk yo'q qilingan, butunlay vayron bo'lган oydan e'tiboran to'xtatiladi.

Mol-mulkka mulk huquqi kalendar yil davomida bir mulkdordan boshqasiga o'tganda soliqni birinchi mulkdor o'sha yilning 1 yanvaridan bu mol-mulkka mulk huquqini yo'qotgan oyning boshigacha to'laydi, ya'ni mulkdor esa mulk huquqini qo'lga kiritgan oydan e'tiboran to'laydi.

Kalendar yil davomida imtiyozga ega bo'lish huquqi paydo bo'lган taqdirda mol-mulk solig'i ana shunday huquq vujudga kelgan oydan e'tiboran qayta hisoblab chiqiladi.

8.2.1-jadval

2020 yil uchun jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'i stavkalari¹¹

Soliq solish ob'ektlari	Soliq stavkalari, foizlarda (%da)
1. Uy joylar, kvartiralar, dala hovli imoratlari (umumiyligi maydoni 200 kv.m. dan ortiq bo'lганлари bundan mustasno) boshqa imoratlar, binolar va inshoatlar qiymatidan	0,2
2. Shaharda joylashgan uy-joylar va	

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi (yangi taxriri). Toshkent "NORMA" 30.12.2019y 422-modda. 296-bet. 2019 yil 30 dekabr.

kvartiralar: umumiylar maydoni quyidagicha bo'lgan turar joylar:	
200 kv.m. dan 500 kv.m. gacha	0,25
500 kv.m. dan ortiq	0,35
3. Boshqa aholi puktlarda joylashgan umumiylar maydoni 200 kv.m dan ortiq bo'lgan uy joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari:	0,25
4.Tadbirkorlik faoliyati uchun yoxud yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijara berishda foydalaniladigan soliq solish obyektlari, shuningdek tadbirkorlik faoliyati va daromad olish uchun mo'ljallanmagan ko'chmas mulk obyektlari	2

8.3. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'idan imtiyozlar.

Quyidagi jismoniy shaxslarning mulkida bo'lgan mol-mulk soliq solishdan ozod etiladi:

- «O'zbekistan Qahramoni», Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni unvonlariga sazovor bo'lgan, uchala darajali Shuhrat ordeni bilan taqdirlanganlar;

- urush nogironlari va qatnashchilari, shuningdek ularga tenglashtirilgan shaxslar, ichki ishlar va davlat xavfsizligi organlari tarkibida xizmat qilgan shaxslarning, harakatdagi armiya tarkibiga kirgan harbiy qismlar, shtablar va muassasalarda shtatdagi lavozimlarni egallagan shaxslar;

- Qahramon onalar, shuningdek o'n nafar va undan ortiq farzandi bor ayollarning;

- Pensionerlarning (60 kv.m. gacha), shuningdek 1 va 2 guruh nogironlarining;

- Muddatli xizmat harbiy xizmatchilari va ularning oila

a'zolarining xizmatni o'tash davrida;

- Harbiy xizmat majburiyatlarini bajarishda yarador, kontuziya bo'lganlik yoki shikastlanganlik oqibatida yoki frontda bo'lish tufayli orttirilgan kasallik oqibatida halok bo'lgan harbiy xizmatchilarining ota-onalari va boshqa turmush qurmagan rafiqalariga soliq imtiyozi faqat ular yangi nikohdan o'tmagan taqdirda beriladi;

- O'zbekistan Respublikasi Mudofaa, Ichki ishlar, Favqulodda vaziyatlar vazirliklari, milliy xavfsizlik xizmati harbiy xizmatchilarini jumlasidan bo'lgan nogironlarning ichki ishlar organlarining xizmat vazifasini ado etayotganda yarador, kontuziya bo'lganlik yoki shikastlanganlik oqibatida nogiron bo'lib qolgan boshliqlar va oddiy xizmatchilar jumlasidan bo'lgan shaxslarning mulklari soliqdan ozod etiladi.

Ushbu moddada nazarda tutilgan imtiyozlar mol-mulk egasining tanloviga binoan mol-mulkning faqat bir obyektiga taalluqli bo'ladi. Masalan, ikkita uy bo'lsa, bittasiga beriladi.

Yil mobaynida soliq to'lovchilarda mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyoz olish huquqi paydo bo'lgan, taqdirda ularga soliq to'lashdan imtiyoz huquqi paydo bo'lgan oydan boshlab beriladi.

Yil mobaynida mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyoz yo'qotilgan holatda mulklarni soliqqa tortishdan imtiyoz huquqi yo'qotilgan oydan keyingi oydan boshlab soliqqa tortiladi.

Imtiyozlar faqat mol-mulk imtiyoziga ega bo'lgan shaxsning mulki bo'lgandagina berilishi mumkin.

8.4. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ini hisoblash va to'lash muddatlari.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq soliq organlari tomonidan hisoblab chiqiladi. Buning uchun kommunal xizmat ko'rsatish idoralarining inventarizatsiya qiymati asos qilib olinadi. Bu yerda imoratlar, binolar va inshootlar bo'yicha har yil 1 - yanvar holatidagi qiymat olinadi. Kommunal idoralar inventarizatsiya qilmagan bo'lsa – mazkur obyektlarning qiymati O'zbekiston

Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilab qo'ygan summa atrofida soliqqa tortiladi (soliq hisoblanadi).

Mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyoz olish huquqiga ega bo'lgan shaxslar zarur hujjatlarni soliq idoralariga taqdim etadilar.

Bir necha mulkdorning ulushbay asosidagi umumiy mulki bo'lgan imoratlar, binolar va inshootlar uchun mol-mulk solig'i har bir mulkdorning mulkdagi ulushiga munosib ravishda to'lanadi. Yangi imoratlar, binolar va inshootlar bo'yicha soliq ular barpo etilgan yoki olingan yildan keyingi yilning boshidan e'tiboran to'lanadi.

Meros bo'yicha o'tgan mol-mulk uchun soliq merosxo'rda mulk huquqi vujudga kelgan oydan boshlab undiriladi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lash usuli – kadastrli usul hisoblanadi. Soliqni bunday usul bilan to'lashning o'ziga xos hususiyati shundan iboratki, mol-mulkka uning tashqi belgilari, mo'ljallanayotgan daromad asosida soliq solinishi bois, soliqni to'lash vaqtি daromadni olish vaqtি bilan hech qanaqa bog'liq emas va shu munosabat bilan mol-mulk solig'ini to'lash uchun qat'iy muddat belgilanadi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq solish predmeti joylashgan joydagi soliq organi tomonidan hisoblab chiqiladi, bunda soliq organi tomonidan yozib beriladigan to'lov xabarnomasi to'lovchilarga har yili joriy yilning 1 martidan kechiktirilmay topshiriladi (O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 423-moddasi 9-qismi). Solqlar bo'yicha to'lovlar faqatgina soliq solish predmeti joylashgan joydagi mahalliy byudjetga o'tkaziladi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq uning har yili 1 yanvar holatiga ko'ra ro'yxatga olish (invetarizatsiya) qiymatiga nisbatan foiz hisobida hisoblab chiqariladi. Agar imoratlar, binolar va inshootlarning ro'yxatga olish qiymati haqidagi ma'lumotlar bo'lmasa, u holda soliq ushbu mulkning davlat majburiy sug'urtasi bo'yicha summalarni hisoblash uchun belgilangan qiymatidan, shuningdek, har yilning 1 yanvar holatiga ko'ra baholanishidan kelib

chiqqan holda hisoblab chiqiladi.

Mol-mulk solig'ini to'lash haqidagi to'lov xabarnomalari to'lovchilarga soliq idoralari tomonidan har yili 1 martdan kechiktirmay topshiriladi. Soliq davri uchun soliqni to'lash 15 apreldan 15 oktyabrga qadar amalga oshiriladi.

Qisqacha xulosalar

Soliq qonunchiligiga ko'ra soliq solinadigan mol-mulkka ega bo'lgan jismoniy shaxslar, chet el fuqoralari, shuningdek yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lovchilari bo'lib hisoblanadi.

Jismoniy shaxslarning O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan uy-joylari, kvartiralari, dachalari, bog' uylari va boshqa imoratlari, binolar va inshootlar qiymatidan soliqqa tortiladi va soliq solish obyekti hisoblanadi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulki bahosi tegishli vakolatli idoralar tomonidan aniqlanmagan bo'lsa, bunday holatda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan mol-mulkning shartli qiymati belgilanadi, hamda o'rnatilgan stavkalar asosida soliqqa tortiladi.

Nazorat savollari

1. Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'i to'lovchilar kimlar?
2. Jismoniy shaxslar mol-mulk solig'i stavkasini kim belgilaydi ?
3. Mol-mulk solig'ini hisobini taqdim etish tartibi va soliqni to'lash muddatlari qanday?
4. Soliqdan qanday imtiyozlar mavjud?
5. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ining iqtisodiy mohiyati.
6. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i elementlari.
7. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'idan imtiyozlar.
8. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ini hisoblash tartibi.

Mavzuga doir topshiriqlar

Topshiriq -1. Jismoniy shaxs Azimova F.P 85000 ming so'mlik hamda 95000 ming so'mlik kvartiraga ega. Joriy yil uchun jismoniy shaxs to'lanishi lozim bo'lgan mol-mulk soliq summasini hisoblang va to'lash muddatlarini belgilang.

Topshiriq -2. Toshkent shahrida yashaydigan X.Olimov shu bilan birga Toshkent viloyatining Chinoz tumanida ham uyi bor, yashab turgan va Toshkent viloyatining Chinoz tumanida uyi uchun joriy yilda qancha miqdorda mol-mulk solig'ini to'laydi?

Testlar

1. Mahalliy soliqlarga qaysi bir soliq turi kiradi?

- A) Qo'shilgan qiymat solig'i.
- B) Aholining daromad solig'i
- C) Foyda solig'i
- D) Mol-mulk solig'i

2. Jismoniy shaxslarning soliqqa tortiladigan mol-mulklari -

- A) Uy joyi, daraxtlari, uy hayvonlari, garaji, mashinasi, do'kon, chorbog' uyi;
- B) Uy joyi, kvartirasi, mebeli, televizori, qoramoli, binosi va dachasi;
- C) Uy joyi, kvartirasi, dala hovlisi, chorbog' uyi, garaji, bino va inshooti;
- D) Uy joyi, mebeli, dachasi, uy hayvonlari, mashinasi, inshooti va televizori.

3. Jismoniy shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig'ini to'lash muddatlari.

- A) Teng ulushlarda 15 apreldan va 15 oktyabrdan kechiktirmagan holda
- B) 1 iyuldan kechiktirmagan holda
- C) 1 avgustda
- D) 15 oktyabriga qadar.

4. O'zbekiston Respublikasi rezidenti deganda:

- A) O'zbekiston Respublikasida vaqtincha yashovchi jismoniy shaxs
- B) O'zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan jismoniy shaxs
- C) O'zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan yoki moliya yilida 183 kun (yoki undan ko'proq muddatda) bo'lgan jismoniy shaxs
- D) O'zbekiston Respublikasi fuqarosi.

**IX-BOB. YURIDIK
SHAXSLARDAN
OLINADIGAN YER SOLIG'I
Reja:**

9.1. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ining iqtisodiy mohiyati.

9.2. Soliq to'lovchilar va soliq obyekti. Yer solig'i stavkalari va uning hududiy tabaqlashtirish asoslari.

9.3. Yer solig'ini hisoblash va byudjetga to'lash tartibi.

9.4. Yer solig'i bo'yicha imtiyozlar.

Tayanch so'z va iboralar: yer maydonlari, sug'oriladigan va sug'orilmaydigan yer maydonlari, yuridik shaxslarning yer solig'i, soliq obyekti, soliq to'lovchilar, soliq stavkasi, soliq bo'yicha imtiyozlar.

**9.1. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ining
iqtisodiy mohiyati.**

Resurs soliqlari orasida yer solig'i alohida o'ringa va xususiyatga ega bo'lgan soliqlardan biri hisoblanadi.

Yer solig'i soliq tizimida asosiy mahalliy soliqlardan biri sifatida mahalliy byudjetlarning daromad manbai hisoblanadi. Yer solig'i renta tavsifiga ega bo'lgan soliqdir. Shuningdek, ushbu soliq real soliqlar qatoriga ham kiritiladi. Chunki ushbu soliq to'lovchilari soliq to'lovchining moliyaviy xo'jalik faoliyatiga bevosita bog'liq emas, ya'ni doimiy xarajatlar tarkibiga kiritiladi. O'zbekiston Respublikasida yer solig'i kadastrli usulda undiriladi. Bunda yerkarning unumdarligi (boniteti) hisobga olingan holdagi jadval shaklidagi yer solig'ining stavkalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan har yili yangidan tasdiqlanadi.



Shaharlar va shahar qo'rg'onlarida yer solig'i stavkalarini ishlab chiqishga ular hududini shahar ayrim tumanlari yerlari hamda infratuzilmasini iqtisodiy baholash qiymati bo'yicha kompleks tarzda baxolash asos qilib olingan.

Shahar hududining qiymati markazdan chekka joylarga qarab nafaqat hududning infratuzilma bilan ta'minlashdagi tafovutlar, balki boshqa omillar ta'siri tufayli ham kamayib boradi. Shu sababli yer solig'i stavkalarini tabaqalashtirish uchun shahar va qo'rg'onlar hududi zonalarga bo'linadi.

Boshqa resurs soliqlari kabi ushbu soliqning boshqa vazifalaridan biri yer resurslarimizdan oqilona foydalanishni tartibga solish, tuproq unumdorligini oshirish, sifati turlicha bo'lgan yerlarda xo'jalik yuritishning ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarni muvoznatlashtirish hisoblanadi.

9.2. Soliq to'lovchilar va soliq obyekti. Yer solig'i stavkalari va uning hududiy tabaqalashtirish asoslari

Mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo'lgan yuridik shaxslar, shu jumladan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari yer solig'ini to'lovchilaridir (Soliq kodeksi 425-modda).

Ko'chmas mulk ijaraga berilgan taqdirda, ijaraga beruvchi yer solig'ini to'lovchisi bo'ladi.

Yer uchastkasidan bir nechta yuridik shaxs bиргаликда foydalangan taqdirda, har bir yuridik shaxs yer uchastkasining foydalanilayotgan maydonidagi o'z ulushi uchun yer solig'ini to'lovchisi hisoblanadi.

Mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yuridik shaxslarda bo'lgan yer uchastkalari **soliq solish obyekti**dir.

Yer solig'ini to'lovchilar bo'lib o'zining mulkida, egaligida va foydalanishida yer uchastkalari bo'lgan yuridik shaxslar hisoblanadi.

Yagona soliq to'lashga o'tgan kichik korxonalar, savdo tashkilotlari yer solig'i to'lamaydilar.

Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun egalik qilishga, foydalanishga yoki ijaraga beriladigan yer maydoni yer solig'iga tortish obyekti hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligi yerlarining maydoni va ularning sifati va joylashgan joyi bo'yicha yer balansi, tuproq xaritalari, tekshiruv materiallari, boshqa yer kadastr hujjatlari bo'yicha qabul qilinadi.

Yer solig'i stavkalari har yili O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Qoraqolpog'iston Respublikasi va viloyatlar bo'yicha qishloq xo'jalik yerkari yer solig'inining muvaqqat bazaviy stavkalari, ma'muriy tumanlar va shaharlar bo'yicha sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yerkari uchun yer solig'inining bazaviy stavkalari, shuningdek, yer solig'i muvaqqat bazaviy stavkalarning tuzatish koeffitsiyentlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Quyidagi yer uchastkalari soliq solish obyekti hisoblanmaydi:

1) notijorat tashkilotlari tomonidan notijorat faoliyati doirasida foydalaniladigan yerkari;

2) aholi punktlarining, bog'dorchilik, uzumchilik yoki polizchilik shirkatlarining umumi foydalanishdagi yerkari (maydonlar, ko'chalar, tor ko'chalar, yo'llar, shaxobcha yo'llar, sug'orish tarmoqlari, kollektorlar, sohil bo'yi yerkari va boshqa shu kabi umumi foydalanishdagi yerkari);

3) umumi foydalanishdagi avtomobil yo'llari egallagan yerkari;

4) aholining madaniy-maishiy ehtiyojlarini qondirish va dam olishi uchun foydalaniladigan yerkari (daraxtzorlar, istirohat bog'lari, sayilgohlar, xiyobonlar, dam olish uylari, bolalar sog'lomlashtirish oromgohlari, aholining ommaviy dam olishi va turizmini tashkil etish uchun belgilangan joylar, shuningdek ariq tarmoqlari egallagan yerkari);

5) davlat qo'riqxonalarining, kompleks (landshaft) buyurtma qo'riqxonalarining, tabiat bog'larining, davlat tabiat yodgorliklarining,

buyurtma qo'riqxonalarning (bundan ovchilik xo'jaliklarida tashkil etiladigan buyurtma qo'riqxonalar mustasno), tabiiy pitomniklarning, davlat biosfera rezervatlarining, milliy bog'larning yerlari;

6) sog'lomlashtirish ahamiyatiga molik yerlar – tegishli muassasalar va tashkilotlarga doimiy foydalanishga berilgan, profilaktika hamda davolash ishlarini tashkil etish uchun qulay tabiiy shifobaxsh omillarga ega bo'lgan yer uchastkalari;

7) rekreatsiya ahamiyatiga molik yerlar – aholining ommaviy dam olishi va turizmini tashkil etish uchun tegishli muassasalar hamda tashkilotlarga berilgan yer uchastkalari;

8) tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar – tegishli muassasalar va tashkilotlarga doimiy foydalanishga berilgan moddiy madaniy meros obyektlari, xotira bog'lari egallagan yer uchastkalari;

9) gidrometeorologiya va gidrogeologiya stansiyalari hamda postlari egallagan yerlar;

10) yuridik shaxs balansida bo'lgan va fuqaro muhofazasi hamda safarbarlik ahamiyatiga molik alohida joylashgan obyektlar egallagan yerlar;

11) kommunal-maishiy ahamiyatga molik yerlar (dafn etish joylari, maishiy chiqindilarni yig'ish, qaytadan ortish va saralash joylari, shuningdek chiqindilarni zararsizlantirish hamda utilizatsiya qilish joylari);

12) ko'p kvartirali uylar egallagan yerlar, bundan yashash uchun mo'ljallanmagan ko'chmas mulk obyektlari egallagan yer uchastkalari mustasno;

13) suv fondi;

14) zaxiralari.

Quyidagilar soliq bazasidir (Soliq kodeksi-427-modda):

- qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkasining umumiyl maydoni;

- eyr uchastkalarining qonun hujjatlariga muvofiq aniqlangan normativ qiymati, meva-sabzavotchilik qishloq xo'jaligi korxonalarini

uchun meva-sabzavotchilik mahsulotlari egallagan yerlar uchun esa — er uchastkasining umumiy maydoni.

Yer uchastkalariga bo'lgan mulk huquqi, egalik qilish, foydalanish yoki ijara huquqi yil mobaynida soliq to'lovchiga o'tgan bo'lsa, soliq bazasi yer uchastkalariga tegishli huquq vujudga kelganidan keyingi oydan e'tiboran hisoblab chiqariladi. Yer uchastkasining maydoni kamaytirilgan taqdirda, soliq bazasi yer uchastkasi maydoni kamaytirilgan oydan e'tiboran kamaytiriladi.

Yuridik shaxslarda soliq imtiyoziga bo'lgan huquq vujudga kelgan taqdirda, soliq bazasi ushbu huquq vujudga kelgan oydan e'tiboran kamaytiriladi. Soliq imtiyoziga bo'lgan huquq bekor qilingan taqdirda, soliq bazasi ushbu huquq tugatilganidan keyingi oydan e'tiboran hisoblab chiqariladi (ko'paytiriladi).

Soliq to'lovchi soliq to'lash nazarda tutilmagan faoliyat turlarini amalga oshirganda, soliq bazasi soliq solinadigan va soliq solinmaydigan yer uchastkasi bo'yicha alohida-alohida hisob yuritish asosida aniqlanadi. Alohida-alohida hisob yuritish imkoniyati bo'limganda, soliq bazasi soliqni to'lash nazarda tutilgan faoliyatdan olinadigan sof tushumning umumiy sof tushum hajmidagi ulushidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

9.3. Yer solig'ini hisoblash va byudjetga to'lash tartibi.

Kalendar yil soliq davridir.

Soliq har bir soliq davrining 1 yanvariga bo'lgan holatga ko'ra hisoblab chiqariladi va soliq hisoboti yer uchastkasi joylashgan yerdagi soliq organiga quyidagi muddatlarga taqdim etiladi (Soliq kodeksining 431-modda):

* qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar bo'yicha — joriy soliq davrining 10 yanvariga qadar;

* qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar bo'yicha — joriy soliq davrining 1 mayiga qadar.

Soliq to'lovchilar soliqni aniqlangan soliq bazasidan va tegishli soliq stavkasidan kelib chiqqan holda mustaqil ravishda hisoblab chiqaradi.

Soliq bazasi (hisoblab chiqarilgan soliq summasi) soliq davri mobaynida o'zgarish bo'lganda yuridik shaxslar bir oylik muddat ichida soliq organiga aniqlashtirilgan soliq hisobotini taqdim etishi shart.

Soliq davri mobaynida qishloq xo'jaligi ekinzorlarining umumiyligi maydonida va tarkibida o'zgarishlar yuz bergan yuridik shaxslar qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallangan yerlari bo'yicha aniqlashtirilgan soliq hisobotini joriy yilning 1 dekabriga qadar taqdim etadi.

Qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallanmagan yerlar uchun soliqni to'lash tartibi quyidagicha amalga oshiriladi:

* aylanmadan soliq to'lovchilar uchun – yillik soliq summasining to'rtdan bir qismi miqdorida, har chorak birinchi oyining 10-kunigacha;

* aylanmadan soliq to'lovchi bo'limgan soliq to'lovchilar uchun – yillik soliq summasining o'n ikkidan bir qismi miqdorida, har oyning 10-kunigacha.

Soliq davri davomida soliq to'lashning belgilangan muddatidan keyin majburiyatlar yuzaga kelganda, ushbu summani to'lash majburiyatlar yuzaga kelgan sanadan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar uchun soliqni to'lash quyidagicha amalga oshiriladi:

-hisobot yilining 1 sentyabriga qadar — yillik soliq summasining 30 foizi;

-hisobot yilining 1 dekabriga qadar — soliqning qolgan summasi.

9.4. Yer solig'i bo'yicha imtiyozlar

Yer solig'i bo'yicha bir qator imtiyozlar belgilangan.

Qayta tiklanadigan manbalardan energiya ishlab chiqaruvchilar qayta tiklanadigan energiya manbalari (nominal quvvati 0,1 MVt va ko'proq) uskunalari egallagan yer uchastkalari bo'yicha ular ishga tushirilgan paytdan e'tiboran o'n yil muddatga soliqdan ozod etiladi.

Soliq solinmaydigan yer uchastkalari jumlasiga quyidagi erlar kiradi:

- madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlash va aholini ijtimoiy muhofaza qilish obyektlari egallagan yerlar;

- sport va jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish majmualari, onalar va bolalarning dam olish hamda sog'lomlashtirish joylari, dam olish uylari hamda o'quv-mashq bazalari egallagan yerlar;

- shahar elektr transporti yo'llari va metropoliten liniyalari, shu jumladan jamoat transporti bekatlari va metropoliten stansiyalari hamda ularning inshootlari egallagan yerlar;

- aholi punktlarining suv ta'minoti va kanalizatsiya inshootlari (magistral suv quvurlari, vodoprovod tarmoqlari, kanalizatsiya kollektorlari va ularning inshootlari, nasos stansiyalari, suv olish va tozalash inshootlari, vodoprovod va kanalizatsiya tarmoqlaridagi kuzatish quduqlari va dyukerlari, suv bosimi hosil qiladigan minoralar hamda shunga o'xshash inshootlar egallagan yerlar);

- ihota o'rmon daraxtzorlari egallagan yerlar. Ihota o'rmon daraxtzorlari jumlasiga quyidagilar kiradi: o'rmonlarning daryolar, ko'llar, suv omborlari va boshqa suv ob'ektlari sohillari bo'ylab o'tgan taqiqlangan mintaqalari; o'rmonlarning ovlanadigan qimmatli baliqlar uvildiriq sochadigan joylarni muhofaza qiluvchi taqiqlangan mintaqalari; eroziyadan saqlaydigan o'rmonlar; o'rmonlarning temir yo'llar va avtomobil yo'llari yoqalab o'tgan ihota mintaqalari; cho'l va chala cho'l zonalaridagi o'rmonlar; shahar o'rmonlari va o'rmon-bog'lari; shaharlar, boshqa aholi punktlari va sanoat markazlarining ko'kalamzorlashtirilgan zonalari atrofidagi o'rmonlar; suv ta'minoti manbalarini sanitariya jihatidan muhofaza qilish zonalaridagi o'rmonlar; kurort tabiiy hududlarni sanitariya jihatidan muhofaza qilish chegarasidagi o'rmonlar; alohida qiymatga ega bo'lgan o'rmonlar; ilmiy yoki tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan o'rmonlar;

- tomchilatib sug'orish qo'llaniladigan yerlar — tomchilatib sug'orish tizimi joriy etilgan oyning boshidan e'tiboran besh yil muddatga;

- qishloq xo'jaligi maqsadlari uchun yangi o'zlashtirilayotgan yerlar — vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan loyihaga muvofiq,

ularni o'zlashtirish ishlari bajariladigan davrda va ular o'zlashtirilgan vaqtidan e'tiboran besh yil mobaynida;

- melioratsiya ishlari amalga oshirilayotgan mavjud sug'oriladigan yerlar -vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan loyiharga muvofiq, ishlar boshlanganidan e'tiboran besh yil muddatga;

- yangi barpo etilayotgan bog'lar, tokzorlar va tutzorlar egallagan yerlar, daraxtlarning qator oralaridan qishloq xo'jaligi ekinlarini ekish uchun foydalanilishidan qat'iy nazar, uch yil muddatga. Kuzda o'tqazilgan yangi ko'chatlar uchun beriladigan soliq imtiyozi muddatini hisoblab chiqarish keyingi yilning 1 yanvaridan e'tiboran boshlanadi, bahorda o'tqazilgan ko'chatlar uchun esa joriy soliq davrining 1 yanvaridan e'tiboran boshlanadi;

- ilmiy tashkilotlarning, qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi sohasidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlari hamda o'quv yurtlariga qarashli tajriba, eksperimental va o'quv-tajriba xo'jaliklarining bevosita ilmiy hamda o'quv maqsadlari uchun foydalaniladigan qishloq xo'jaligi ahamiyatiga molik bo'lган yerlar va o'rmon fondining yerlari. Ushbu bandga muvofiq ilmiy tajribalar, eksperimental ishlar, yangi navlarning seleksiyasi o'tkazilishi uchun hamda mavzulari tasdiqlangan boshqa ilmiy va o'quv maqsadlari uchun foydalaniladigan ekinlar hamda daraxtzorlar egallagan yer uchastkalari soliq to'lashdan ozod qilinadi.

Belgilangan soliq imtiyozlari belgilangan maqsadda bevosita foydalanilmayotgan yer uchastkalariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Qisqacha xulosalar.

Yer solig'i to'lovchilari o'z mulkida, egaligida va foydalanishida yer uchastkalari bo'lган yuridik shaxslardir. Yer solig'i stavkalari har yili Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Nazorat savollari

1. Yer solig'inинг iqtisodiy mohiyatini izohlab bering?
2. Yer solig'ini qanday yuridik shaxslar to'laydilar?
3. Yer solig'i obyektiga qanday yer maydonlari kiradi?
4. Yer solig'i stavkalari kim tomonidan belgilanadi va yer

solig'idan yuridik shaxslar qanday imtiyozlarga ega?

5. Yer solig'ini yuridik shaxslar qanday muddatlarda to'laydilar?

Mavzuga doir topshiriqlar

Topshiriq -1. Umumiy maydoni 2200 kv.m. bo'lgan binoga 2 kishi egalik qiladi (Toshkent shaxri 2-zona). Birinchisi egalik qiladigan qismning maydoni 1800 kv.m. ikkinchi kishi egalik qiladigan qismining maydoni 400 kv.m. Yer solig'ini hisoblang va bino egalari o'rtasida taqsimlang.

Topshiriq-2. Yer ajratish bo'yicha kadastr hujjatlariga ko'ra korxonaga materiallarni saqlash omborlari qurilishi uchun Toshkent viloyatining aholi yashamaydigan lalmi yerlaridan (adir) 2,3 ga yer maydoni ajratilgan. Korxona soliq organi tomonidan tekshirilganda qurilgan omborlar joylashgan yerning umumiy yer maydoni 3 ga ni tashkil etishi ma'lum bo'ldi. Soliq organi tomonidan qanday chora qo'llaniladi.

Topshiriq-3. Toshkent shahrining 3 zonasida joylashgan ishlab chiqarish korxonasiga shahar hokimi qarori bo'yicha ajratilgan yer maydoni 4,5 ga ni tashkil etadi. Korxonaning hisobot yilida to'lashi lozim bo'lgan yer solig'i summasini hisoblang va to'lash muddatlarini belgilang.

Testlar.

1. Yer solig'ini joriy etishdan maqsad nima ?

- A. Davlat byudjetini moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlash
- B. Davlat byudjetini moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlash va yer resurslaridan samarali hamda oqilona foydalanishni rag'batlantirish
- C. Yer resurslaridan samarali hamda oqilona foydalanishni rag'batlantirish
- D. Mahalliy byudjet daromadlarini moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlash.

2. Yer solig'ini to'lovchilari bo'lib kimlar hisoblanadi?

- A. Egaligida yer uchastkalariga ega bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar

B. Yuridik va jismoniy shaxslar

C. O'z mulkida egaligida va foydalanishida yer uchastklalariga ega bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar

D. O'z mulkida egaligida va foydalanishida yer uchastklalariga ega bo'lgan chet ellik fukoralar.

3. Berilgan yer uchastkalaridan ikki yil davomida foydalanmagan jismoniy shaxslarga qanday chora belgilangan?

A. Yer solig'i uch baravar miqdorida to'lanadi

V. Yer solig'i ikki baravar miqdorida to'lanadi

C. Moliyaviy jazo choralar qo'llaniladi

D. Ma'muriy jazo choralar qo'llaniladi.

4. Yuridik shaxslardan undirilgan yer solig'i qayerga to'lanadi?

A. Mahalliy byudjetga

V. Davlat byudjetiga

S. Soliq idoralariga

D. Yer uchastkasi joylashgan tumanga.

5. Yer solig'i stavkalari kim tomonidan belgilanadi?

A) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi

B) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

C) O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi

D) O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq ko'mitasi tomonidan.

X BOB. JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN YER SOLIG'I

Reja:

- 10.1. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'inining iqtisodiy mohiyati.
- 10.2. Soliq to'lovchilar, soliq obyekti, soliq bazasi va yer solig'i stavkalari.
- 10.3. Yer solig'ini hisoblash va byudjetga to'lash tartibi.
- 10.4. Yer solig'i bo'yicha imtiyozlar.



Tayanch so'z va iboralar: jismoniy shaxslarning yer solig'i, soliq obyekti, soliq to'lovchilar, soliq stavkasi, soliq bo'yicha imtiyozlar, soliqni to'lash muddatlari

10.1. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'inining iqtisodiy mohiyati

Soliq kodeksiga ko'ra o'z mulkida, egaligida, foydalanishida yoki ijara huquqi assosida yer uchastkalariga ega bo'lgan jismoniy shaxslar, shuningdek yuridik shaxs tashkil etgan yoki tashkil etmangan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari yer solig'i to'lovchilari bo'lib hisoblanadi (Soliq kodeksi 433-modda).

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ijaraga berilgan yer uchastkalarini uchun to'lanadigan ijara to'lovi yer solig'iga tenglashtiriladi. Yer uchastkalarini ijaraga olgan jismoniy shaxslarga nisbatan jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'ini to'lovchilar uchun belgilangan soliq stavkalari, soliq imtiyozlar, soliqni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi tatbiq etiladi.

Uy-joy, yashash uchun mo'ljallanmagan imoratlar va inshootlar meros bo'yicha o'tishi bilan birgalikda mulk huquqi, egalik qilish va foydalanish huquqi o'tgan yer uchastkalarini uchun yer solig'i meros qoldiruvchining soliq majburiyatlarini inobatga olgan holda merosxo'rlardan undiriladi.

10.2. Soliq to'lovchilar, soliq obyekti, soliq bazasi va yer solig'i stavkalar

Jismoniy shaxslar uchun yer solig'i obyekti er uchastkalaridir. Quyidagi yer uchastkalari soliq solinadigan obyekt hisoblanadi:

1. Dehqon xo'jaligini yuritish uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga berilgan yer uchastkalarilar;
2. Yakka tartibda uy-joy qurilish uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga berilgan yer uchastkalari;
3. Jamoa bog'dorchiligi, uzumchiligi va polizchiligin yuritish uchun berilgan yer uchaskalari;
4. Xizmat yuzasidan qonun hujjatlariga muvofiq berilgan chek yerlar;
5. Meros bo'yicha, hadya qilinishi yoki sotib olinish natijasida uy-joy, dala hovli bilan birqalikda egalik qilish uchun huquqi ham o'tgan yer uchastkalari;
6. Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mulk qilib olingan yer uchastkalari;
7. Tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun doimiy foydalanishga yoki ijara berilgan yer uchastkalar.

Ko'p kvartirali uylar egallagan yer uchastkalari soliq solish obyekti bo'lmaydi.

Berilgan yerdan ikki yil mabaynida foydalanmagan jismoniy shaxslardan yer solig'i uch baravar miqdorda undiriladi. Agar yer uchastkalariga mulk, egalik qilish yoki undan foydalanish huquqini tasdiqlaydigan hujjatlar bo'lmasa, soliq butun maydon uchun koeffitsiyentlar qo'llangan holda to'lanadi.

Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organning ma'lumotlari bo'yicha yer uchastkalarining maydoni **soliq bazasidir** (Soliq kodeksi 435-modda).

Jamoa bog'dorchiligi, uzumchiligi va polizchiligin yuritish uchun fuqarolarga berilgan, shuningdek yakka tartibdagi garajlar egallagan yer uchastkalari bo'yicha soliq bazasi ushbu yer

uchastkalarini bergan tashkilotlar boshqaruv organlarining ma'lumotlari bo'yicha aniqlanadi.

Xizmat yuzasidan berilgan chek yer maydonlari bo'yicha soliq bazasi o'z xodimlariga yer uchastkalarini bergan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning ma'lumotlari bo'yicha aniqlanadi.

Soliq stavkalari 1 kv.m uchun mutlaq miqdorlarda belgilanadi. Soliq stavkalarining aniq miqdori O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risidagi Qonuni bilan belgilanadi. (Soliq kodeksi 437-modda)

Hududlarning va faoliyat amalga oshiriladigan joyning xususiyatlarini hisobga olgan holda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qori Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari belgilangan soliq stavkalariga 0,7 dan 1,3 gacha bo'lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar belgilash huquqiga ega.

Tadbirkorlik faoliyatida foydalanimayotgan yer uchastkalari uchun yoxud uylar, dala hovli imoratlari, yakka tartibdagi garajlar va boshqa imoratlar, inshootlar yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berilganda, shuningdek jismoniy shaxslarning mulkida bo'lgan, yashash uchun mo'ljallanmagan ko'chmas mulk obyektlari egallagan yer uchastkalari uchun soliq jismoniy shaxslardan yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ini to'lash uchun belgilangan soliq stavkalari bo'yicha undiriladi .

Bo'sh turgan binolar, foydalanimayotgan ishlab chiqarish maydonlari, yashash uchun mo'ljallanmagan inshootlar, shuningdek normativ muddatida qurilishi tugallanmagan obyektlar joylashgan yer uchastkalariga nisbatan qonun hujjatlarida oshirilgan soliq stavkalarini belgilash yo'li bilan yuridik shaxslar uchun nazarda tutilgan ta'sir choralar qo'llanilishi mumkin.

Jismoniy shaxs yoki oilaviy korxona yer uchastkasidan unda joylashgan uyda istiqomat qilish bilan bir vaqtida tovarlar ishlab chiqarish (xizmatlar ko'rsatish) uchun foydalangan taqdirda, soliq jismoniy shaxslar uchun belgilangan soliq stavkasi bo'yicha to'lanadi.

Yakka tartibda uy-joy qurish va turar joyni obodonlashtirish uchun berilgan yer uchastkalarining tomorqa qismiga qishloq xo'jaligi ekinlarini ekish yoki uni obodonlashtirish amalga oshirilmagan taqdirda soliq uch baravar miqdorda to'lanadi.

Yer uchastkalaridan hujjatlarsiz yoxud yer uchastkasiga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlarda ko'rsatilganidan kattaroq hajmda foydalanilganda, soliq stavkasi belgilangan soliq stavkalarining uch baravari miqdorida belgilanadi.

10.3. Yer solig'ini hisoblash va byudjetga to'lash tartibi

Kalendar yil soliq davri hisoblanadi.

Soliq kodeksiga asosan soliqni hisoblab chiqarish, soliq to'lovchining yashash joyidan qat'iy nazar, yer uchastkasi joylashgan yerdagi soliq organlari tomonidan ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organning ma'lumotlari asosida amalga oshiriladi.

Soliq organlari har yili 1 martdan kechiktirmay soliq summasi va uni to'lash muddatlari ko'rsatilgan to'lov xabarnomasini jismoniy shaxslarga imzo qo'ydirib yoki to'lov xabarnomasi olinganligi faktini va olingen sanani tasdiqlovchi boshqa usulda topshiradi.

Yil mobaynida yer uchastkasi maydoni o'zgarganda va imtiyozlarga bo'lgan huquq yuzaga kelganda (tugatilganda) soliq organlari mazkur o'zgarishlardan keyin bir oy ichida soliqni qayta hisob-kitob qilishi hamda soliq to'lovchiga soliq summasi va uni to'lash muddatlari ko'rsatilgan yangi yoki qo'shimcha to'lov xabarnomasini taqdim etishi kerak.

Yil davomida ajratilgan yer uchastkalari uchun soliq yer uchastkasi ajratilgan oydan keyingi oydan e'tiboran jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadi.

Yer uchastkasi maydoni kamaytirilgan taqdirda, soliqni to'lash yer uchastkasi kamaytirilgan oydan e'tiboran tugatiladi (kamaytiriladi).

Soliq bo'yicha imtiyozlar belgilangan taqdirda, bu soliq imtiyozga bo'lgan huquq yuzaga kelgan oydan e'tiboran to'lanmaydi.

Soliq bo'yicha imtiyozlarga bo'lgan huquq tugatilgan taqdirda, bu soliq mazkur huquq tugatilgan oydan keyingi oydan e'tiboran to'lana boshlaydi.

Soliq davri uchun soliqni to'lash jismoniy shaxslar tomonidan 15 aprel va 15 oktyabrga qadar teng ulushlarda amalga oshiriladi.

10.4. Yer solig'i bo'yicha imtiyozlar.

Soliq kodeksi bo'yicha soliqdan quyidagilar ozod qilinadi:

1) «O'zbekiston Qahramoni», Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni unvonlariga sazovor bo'lgan, uchala darajadagi Shuhrat ordeni bilan taqdirlangan fuqarolar. Mazkur imtiyoz «O'zbekiston Qahramoni» unvoni berilganligi to'g'risidagi guvohnoma, Sovet Ittifoqi Qahramoni va Mehnat Qahramoni daftarchalari, orden daftarchasi yoki mudofaa ishlari bo'limining ma'lumotnomasi asosida beriladi;

2) urush nogironlari va qatnashchilari, shuningdek doirasi qonun hujjatlari bilan belgilanadigan ularga tenglashtirilgan shaxslar. Mazkur imtiyoz urush nogironining (qatnashchisining) tegishli guvohnomasi yoki mudofaa ishlari bo'limining yoxud boshqa vakolatli organning ma'lumotnomasi asosida, boshqa nogironlarga (qatnashchilarga) esa nogironning (qatnashchining) imtiyozlarga bo'lgan huquqi to'g'risidagi guvohnoma asosida beriladi;

3) I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar. Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma'lumotnomasi asosida beriladi;

4) yolg'iz pensionerlar. Yolg'iz yoki voyaga yetmagan bolalari bilan yoxud nogiron bolasi bilan birga alohida uyda yashovchi pensionerlar yolg'iz pensionerlar deb tushuniladi. Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tuman (shahar) bo'limining ma'lumotnomasi, shuningdek fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining ma'lumotnomasi asosida beriladi;

5) boquvchisini yo'qotgan ko'p bolali oilalar. Ota-onasidan biri yoki ota-onasi vafot etgan hamda oilada o'n olti yoshga to'limgan

beshta va undan ortiq bolalari bo'lgan oilalar soliq solish maqsadida boquvchisini yo'qotgan ko'p bolali oilalardir. Mazkur imtiyoz O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasi tuman (shahar) bo'limining ma'lumotnomasi asosida beriladi;

6) Chernobil AESdagi avariya oqibatlarini tugatishda ishtirok etganlik uchun imtiyozlar oladigan fuqarolar (shu jumladan vaqtincha yuborilgan yoki xizmat safariga yuborilgan) fuqarolar. Mazkur imtiyoz tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma'lumotnomasi, nogironligi bo'lgan shaxsning maxsus guvohnomasi, Chernobil AESdagi avariya oqibatlarini tugatish ishtirokchisining guvohnomasi, shuningdek vakolatli organlar tomonidan berilgan va imtiyozlar berish uchun asos bo'ladigan boshqa hujjatlar asosida beriladi;

7) energiya resurslarining amaldagi tarmoqlaridan to'liq uzib qo'yilgan turar joylarda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanuvchi shaxslar - qayta tiklanadigan energiya manbalarini o'rmatilgan oydan e'tiboran uch yil muddatga. Mazkur imtiyoz energiya resurslarining amaldagi tarmoqlaridan to'liq uzib qo'yilgan holda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida energiya ta'minoti tashkilotlari tomonidan berilgan ma'lumotnoma asosida beriladi.

Yakka tartibdagi uy-joy qurilishi, dehqon xo'jaligini yuritish uchun berilgan yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organda ro'yxatdan o'tkazgan jismoniy shaxslarga beriladi. Bunda mazkur soliq imtiyozlari soliq to'lovchining tanlovi bo'yicha faqat bitta yer uchastkasiga berilishi mumkin.

Soliq imtiyozlariga ega bo'lgan shaxslar soliq imtiyozlarini olish huquqini tasdiqlovchi hujjatlarini yer uchastkasi joylashgan yerdagi soliq organlariga mustaqil ravishda taqdim etadi.

Qisqacha xulosalar.

Yer solig'i O'zbekiston soliq tizimida mahalliy soliqlar va yig'imlar tarkibiga kiradi hamda mahalliy byudjetlarning daromad manbai hisoblanadi.

Jismoniy shaxslarning yer solig'i har yilning boshida soliq organlari tomonidan hisoblab chiqiladi va to'lov xabarnomasi yoziladi.

Yer solig'ini to'lash to'g'risidagi to'lov xabarnomasi har yili soliq idoralari tomonidan 1 maydan kechiktirmay jismoniy shaxslarga yetkaziladi. Ular jismoniy shaxslarga shaxsan topshirilishi lozim.

Jismoniy shaxslar yer solig'ini joriy yilning 15 aprel va 15 oktyabriga qadar teng ulushlarda amalga oshiradi. Aks holda soliqdan boqimanda paydo bo'ladi va soliqdan tashqari penya to'lashga to'g'ri keladi.

Soliq o'tgan yillarda undirilmagan bo'lsa soliq idoralari avvalgi uch yil uchun soliq hisoblab undirib olishga haqli. O'tgan yillar uchun undirilmagan soliq summalarini undirib olinadi.

Nazorat savollari:

1. Jismoniy shaxslar yer solig'inining to'lovchilari bo'lib hisoblanadimi?
2. Jismoniy shaxslarning yer solig'i obyektiga nimalar kiradi?
3. Yer solig'i stavkasini belgilash tartibi qanday?
4. Yer solig'idan jismoniy shaxslar qanday imtiyozlar olish huquqiga ega?
5. Jismoniy shaxslar yer solig'ini kim hisoblaydi va yer solig'ini to'lash muddatlari qanday?

Mavzuga doir topshiriqlar:

Topshiriq-1. Toshkent shahrining 2 zonasida yashovchi fuqaro M. Mansurov 4,25 kv.m. er uchastkasiga ega. Fuqaroning to'lashi lozim bo'lgan yer solig'i summasini va to'lash muddatini aniqlang.

Topshiriq-2. Qarshi shahrining 4 zonasida yashovchi 2-guruh nogironi 0,2 ga yer uchastkasiga ega. Hokimning qaroriga asosan yakka tartibda uy-joy qurilishi uchun 0,6 ga yer uchastkasi ajratilishi belgilangan. Fuqaroning to'lashi lozim bo'lgan yer solig'i summasini hisoblang.

Testlar

1. «Ball bonitet» tushunchasiga anik ta’rif bering.

- A) Yer solig’i stavkasi
- B) Yerning miqdoriy o’lchov birligi
- C) Bu yer uchastkasi maydonining ko’rsatkichi
- D) Bu yerning tabiiy hosildorligini va sifatini baholanishi

2. Yer solig’i to’lashdan quyidagilar ozod etiladi:

- A) O’z faoliyatida yerdan foydalanmaydigan korxonalar
- B) Yerdan xayriya maqsadida foydalanadigan korxonalar
- C) Yangi tashkil etilgan dehkon xo’jaliklari - davlat ro’yxatidan o’tgan kundan
- D) Ta’lim vazirligi tasarrufidagi korxonalar

3. Ko’p kvartirali uylarda yashaydigan jismoniy shaxslardan yer solig’i qanday bo’ladi?

- A) Jismoniy shaxslar uchun belgilangan stavkalar bo’yicha undiriladi
- B) Undirilmaydi
- C) Yashashning birinchi 2 yil davomida undirilmaydi
- D) Har yil undiriladi.

4. Quyidagi jismoniy shaxslardan qaysi biri yer solig’idan ozod etilmagan?

- A) Uchchala darajali Shuhrat ordeni bilan taqdirlanganlar
- B) I va II guruh nogironlari
- C) Yaylov chorvachiligining cho’ponlari
- D) Yolg’iz bo’lмаган, boquvchisi bor pensionerlar.

5. Qat’iy belgilangan soliq bo’yicha soliq solinadigan obyekt:

- A) Belgilangan faoliyat turini tavsiflovchi fizik ko’rsatkich
- B) Belgilangan faoliyat turini tavsiflovchi moliyaviy ko’rsatkich
- C) Belgilangan faoliyat turini tavsiflovchi foiz ko’rsatkich
- D) Belgilangan faoliyat turini tavsiflovchi mexanik ko’rsatkich

XI BOB. SUV RESURSLARIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQ.

Reja:

- 11.1. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning iqtisodiy mohiyati.
- 11.2. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilari va soliq obyektlari.
- 11.3. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari va soliq imtiyozlari
- 11.4. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash va to'lash tartibi.

Tayanch so'z va iboralar: suv resurslari, yer osti va yer usti suvlari, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, soliq obyekti, soliq to'lovchilar, soliq stavkasi, soliq bo'yicha imtiyozlar.

11.1. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning iqtisodiy mohiyati

O'zbekiston sharoitida suv qadrli hisoblanadi. Chunki, respublikamizda qishloq xo'jaligi asosan sug'oriladigan yerdan iborat. Iste'molchilarining suvdan samarali, tejab foydalanish maqsadida Respublikamiz soliq qonunchiligiga hamda O'zbekiston Respublikasining "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi qonuniga ko'ra 1998 yil 1-yanvardan boshlab suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq joriy etildi. Ushbu soliq umum davlat soliqlari tarkibiga kirib, respublika byudjetining asosiy daromad manbalaridan biri hisoblanadi.¹²

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2007 yil 12 dekabrdagi 744-sonli qaroriga asosan ushbu soliq tushumi mahalliy byudjetlarning Davlat byudjetidagi ulushini ko'paytirish maqsadida to'liq miqdorda mahalliy byudjetlar daromadiga o'tkazildi.

¹² S.M.Sultanova, M.M. Yuldasheva, S. N. Qurbanov. Soliqlar va soliqqa tortish. O`quv qo'llanma.- T.: TTYVI, 2016y.



Suvdan foydalanishni imkoniyat darajasida tejash maqsadida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq kiritilgan.

11.2. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilari va soliq obyektlari.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilari bo'lib, O'zbekiston Respublikasi hududida suvdan birlamchi foydalanishni yoki suvni iste'mol qilishni amalga oshiruvchi quyidagi shaxslardan iborat:

- O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari;
- faoliyatini O'zbekiston Respublikasida doimiy muassasalari orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari bo'lган yuridik shaxslar;
- suvdan tadbirkorlik faoliyati uchun foydalanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik;
- dehqon xo'jaliklari;

Aholi punktlarining suv ta'minoti uchun suv yetkazib berishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar faqat o'z ehtiyojlari uchun foydalanadigan suv uchun soliqni to'lovchilari deb yuritiladi. (Soliq kodeksi 441-modda)

Bunda, agar soliq solishning alohida tartibi o'rnatilgan to'lovchilar asosiy faoliyat turi bilan bir qatorda boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullansalar, ular alohida hisob olib borishlari va shu faoliyatda foydalaniladigan suv hajmidan kelib chiqib suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lashlari kerak. Yer osti va yer usti manbalaridan ishlab chiqarish va texnikaviy maqsadlarda foydalanishga olingan suv resurslari hajmi, ya'ni yuridik shaxslar tomonidan foydalanilgan suv resurlarining jami hajmi, iste'mol tavsifi va maqsadlaridan qat'iy nazar soliqqa tortiladi.

Yer usti va yer osti manbalaridan foydalaniladigan suv resurslarining hajmi **soliq solish obyekti** hisoblanadi.

Yer usti manbalariga daryolar, ko'llar, suv omborlari, yer yuzasidagi boshqa havzalar va suv manbalari, turli xil kanal va hovuzlar kiradi.

Yer osti manbalariga artezian quduqlar va skvajinalar, vertikal va gorizontal zovur tarmog'ilarini kiradi.

Quyidagilar soliq solish obyekti bo'lmaydi (Soliq kodeksi 442-modda):

- 1) notijorat tashkilotlar tomonidan notijorat faoliyatni amalga oshirish doirasida foydalaniladigan suv resurslari;
- 2) sog'lijni saqlash muassasalarida davolash maqsadida foydalaniladigan yer osti mineral suvlari hajmiga, bundan savdo tarmog'ida realizatsiya qilish uchun foydalanilgan suv hajmi mustasno;
- 3) atrof muhitga zararli ta'sir ko'rsatishining oldini olish maqsadida chiqazib olinadigan yer osti suvlari hajmiga, ishlab chiqarish va texnik ehtiyojlar uchun foydalanilgan suv hajmi bundan mustasno;
- 4) shaxtadan suvlarni qochirish uchun, foydali qazilmalarni qazib olish vaqtida chiqazib olingan va qatlamdag'i bosimni saqlab turish uchun yer qa'riga qaytarib quyiladigan yer osti suvlari hajmiga, bundan ishlab chiqarish va texnik ehtiyojlar uchun foydalanilgan suv hajmi mustasno;
- 5) gidroelektr stansiyalari gidravlik turbinalarining harakati uchun foydalaniladigan suv hajmiga;
- 6) qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan sho'rlangan yerlarni yuvish uchun foydalaniladigan suv hajmiga.

11.3.Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari va soliq imtiyozlari

Belgilangan limitlar doirasida yer usti va yer osti manbalaridan olinadigan suv resurslari uchun soliq stavkalari bir kub metr uchun mutlaq miqdorda belgilanadi. Soliq stavkalarining miqdori O'zbekiston Respublikasining "Davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonuni bilan belgilanadi.

Suvdan foydalanish uchun belgilangan limitlardan ortiqcha suv olinganda, bunday ortiqcha qism bo'yicha soliq stavkalari belgilangan soliq stavkalarining besh barvari miqdorida belgilanadi.

Suv resurslaridan ruxsat beruvchi hujjatlarsiz foydalanilganda, shuningdek avtotransport vositalarini yuvishni amalga oshiruvchi korxonalar tomonidan yer usti manbalaridan olingan suvdan foydalanilganda soliq stavkasi belgilangan soliq stavkalarining besh barvari miqdorida belgilanadi.

Kalendar yil soliq davri hisoblanadi.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasi soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi. Soliq stavkalari 2019 yil 1 yanvaridan kuchga kirgan.¹³ 11.3.1-jadvalda keltirilgan

11.3.1-jadval

2019 yil uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning stavkalari¹³

Soliq to'lovchilar	1 kub.m uchun soliq stavkasi, so'm	
	Yer usti manbalari	Yer osti manbalari
Iqtisodiyotning barcha tarmoqlari korxonalari (2-4-bandlarda ko'rsatilganlaridan tashqari)	360	430
Avtoulovlarni yuvishga ixtisoslashgan korxonalar	1 200	1 500
Elektr stantsiyalari	30	50
Kommunal xizmat ko'rsatish korxonalari	60	80
Alkogolsiz ichimliklar ishlab chiqaruvchilar		
Suv hajmi bo'yicha, alkogolsiz ichimliklar ishlab chiqarishda	19 040	19 040
Boshqa maqsadlar uchun	120	150

Soliqdan imtiyozlar. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lashdan quyidagi yuridik shaxslar ozod etiladi:

a) notijorat tashkilotlari:

¹³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 26 декабридаги ПҚ-4086-сон қарорига 14-илова

Soliq solish maqsadida notijorat tashkilotlari deganda quyidagilar tushuniladi:

- faqat davlat byudjeti mablag'lari hisobiga moliyalashtiriladigan, harajatlarni qoplash uchun belgilangan smetalar doirasida dotatsiya oladigan korxonalar, xalqaro tashkilotlar, diniy birlashmalar va boshqa tashkilotlar;

- ijtimoiy-xayriya yoki tadbirkorlik faoliyatidan daromad olishni ko'zlamaydigan, ta'sis hujjatlarida ta'kidlangan boshqa maqsadlar uchun barpo etilganlari;

- moliyaviy va boshqa mablag'larni maskur tashkilot xodimlari, muassasalari yoki a'zolarining shaxsiy manfaatlari uchun taqsimlaydigan va investitsiyalanmaydiganlari (qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mehnatga haq to'lashda bundan mustasno);

b) yer osti mineral suvlaridan davolash maqsadida foydalaniladigan sog'liqni saqlash muassasalari, ular mineral suvlaridan savdo tarmog'ida sotish uchun foydalanadigan hollar bundan mustasno;

c) farmatsevtika faoliyati bilan shug'ulanadigan va suvdan dorivor vositalar taylorlashda foydalanadiganlar;

d) atrof muhitga zararli ta'siri oldini olish maqsadida chiqarib tashlanadigan yer osti suvlari uchun (ishlab chiqarish va texnik ehtiyojlar uchun ishlatiladigan suv hajmlaridan tashqari). Masalan, sizot suvlarining satxini pasaytirish maqsadida chiqarib tashlanadigan zovur suvlar;

e) uning uchun byudjetga soliq to'lagan yuridik shaxslardan suv olgan iste'molchilardan;

f) foydali qazilmalar qazib olish bilan yo'l-yo'lakay va shaxtadan suvni chiqarib tashlash uchun olingan her osti suvlar uchun (ishlab chiqarish va texnik ehtiyojlar uchun foydalaniladigan suv hajmlaridan tashqari);

g) agregatlar ishlashi uchun suvdan foydalanganlik uchun (gidro elektrstantsiyalar);

h) birlamchi foydalanganlik uchun haq to'langan suvdan ikkilamchi foydalanuvchilar (masalan, sug'orish uchun kollektor-zovur tarmog'idagi suvdan foydalanish);

i) faoliyatning asosiy turi bo'yicha qishloq xo'jalik mahsuloti yetishtiruvchilar sho'rlagan yerkarni sug'orishga suvdan foydalanganlik uchun. Mazkur imtiyoz yordamchi qishloq xo'jaligiga ega yuridik shaxslarga ham tatbiq etiladi;

j) umumiylar ishlovchilarning kamida 50% nogiron bo'lgan, nogironlarning jamoat birlashmalari, "Nuroniy" jamg'armasi va "O'zbekiston chernobilchilari" uyushmasi mulkida bo'lganlari (savdosotiqlari, vositachilik, ta'minot-sotish va tayyorlov faoliyat bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslardan tashqari);

k) bo'shatib olinadigan mablag'lar ular tomonidan moddiy- texnik bazani mustahkamlashga, uskunalar, anjomlar, didaktik materiallar, bolalar o'yinchoqlari va kitoblarini harid qilishga sarflanishi sharti bilan nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari ro'yxatga olingan paytdan boshlab uch yil muddatga.

Soliq to'lovchilarga O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi amalga kiritilishiga qadar qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga ko'ra taqdim etilgan soliq imtiyozlari ular taqdim etilgan muddat tugashiga qadar saqlanadi.

11.4. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash va to'lash tartibi

Soliq summasi soliq bazasidan va belgilangan soliq stavrakalaridan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi. (Soliq kodeksi 447-modda)

Dehqon xo'jaliklari uchun soliq summasi soliq bazasidan va belgilangan soliq stavrakalaridan kelib chiqqan holda soliq organlari tomonidan aniqlanadi.

Soliq hisoboti suvdan foydalanish yoki suvni iste'mol qilish joyidagi soliq organlariga quyidagilar tomonidan yilda bir marta taqdim etiladi:

O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari tomonidan, bundan qishloq xo'jaligi korxonalari mustasno — yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda;

qishloq xo'jaligi korxonalari tomonidan — joriy soliq davrining 15 dekabrigacha;

O'zbekiston Respublikasida faoliyatini doimiy muassasalar orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari bo'lган yuridik shaxslar, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan — soliq davridan keyingi yilning 20 yanvarigacha.

Soliq organlari soliq to'lash to'g'risidagi to'lov xabarnomasini dehqon xo'jaliklariga soliq davridan keyingi yilning 1 fevralidan kechiktirmay topshiradi.

Soliq davri mobaynida soliq to'lovchilar soliq bo'yicha bo'nak to'lovlarni to'laydi.

Bo'nak to'lovlari miqdorini hisoblab chiqarish uchun soliq to'lovchilar joriy soliq davrining 20 yanvarigacha, yangi tashkil etilganlari esa davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay, suvdan foydalanish yoki suvni iste'mol qilish joyidagi soliq organlariga mo'ljallanayotgan soliq bazasidan (foydalaniladigan suv hajmidan) va belgilangan soliq stavkalaridan kelib chiqqan holda hisoblangan joriy soliq davri uchun soliq summasi to'g'risidagi ma'lumotnomani taqdim etadi. Soliq bo'yicha majburiyatlari soliq davri ichida yuzaga kelgan soliq to'lovchilar soliq summasi to'g'risidagi ma'lumotnomani soliq majburiyati yuzaga kelgan sanadan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay taqdim etadi. Ushbu moddaning ikkinchi qismiga muvofiq hisoblab chiqarilgan bo'nak to'lovlari:

soliq davrida soliq summasi bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravaridan ko'proqni tashkil etadigan yuridik shaxslar tomonidan (bundan aylanmadan olinadigan soliqni to'lovchilar mustasno) — har oyning 20 sanasidan kechiktirmay yillik soliq summasining o'n ikkidan bir qismi miqdorida;

soliq davrida soliq summasi bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravaridan kamroqni tashkil etadigan, aylanmadan olinadigan soliqni to'lovchilar bo'limgan yuridik shaxslar, shuningdek aylanmadan olinadigan soliqni to'lovchilar va yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan — har chorak uchinchi oyining 20 sanasidan kechiktirmay yillik soliq summasining to'rtdan bir qismi miqdorida to'lanadi.

Soliq davri davomida mo'ljallanayotgan soliq bazasi o'zgarganda, soliq to'lovchi soliq summasi to'g'risida aniqlashtirilgan ma'lumotnomalar taqdim etishga haqli. Bunda soliq davrining qolgan qismi uchun bo'nak to'lov larga soliqning o'zgargan summasiga teng ulushlarda tuzatish kiritiladi.

Soliq davri uchun bo'nak to'lovlar hisobga olingan holda soliqni to'lash soliq to'lovchilar tomonidan, suvdan foydalanish yoki suv iste'moli joyida, soliq hisoboti taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Soliq davri uchun bo'nak to'lovlar summasi soliq hisobotida ko'rsatilgan byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasiga nisbatan 10 foizdan ortiq miqdorga kamaytirilgan taqdirda, soliq organi bo'nak to'lov larni soliqning haqiqiy summasidan kelib chiqib, penya hisoblagan holda qaytadan hisob-kitob qiladi.

Dehqon xo'jaliklari tomonidan soliqni to'lash yilda bir marta, soliq davridan keyingi yilning 1 mayigacha amalga oshiriladi.

Soliq bo'yicha hisob-kitoblar:

Suv resurslarining yer usti va yer osti manbalaridan olingan suv hajmi suvdan foydalanishning buxgalteriya (dastlabki) hisobi hujjatlarida aks ettirilgan suv o'lchagich asboblar ko'rsatkichlari asosida aniqlanadi. (Soliq kodeksi 444-modda)

Suvdan o'lchagich asboblarsiz foydalanilgan taqdirda, uning hajmi suv obyektlaridan suv olish limitlaridan, suvni iste'mol qilishning texnologik va sanitariya normalaridan, ekinlar hamda yashil daraxtzorlarni sug'orish normalaridan yoki ma'lumotlarning

to'g'riliini ta'minlovchi boshqa usullardan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Soliq to'lovchilar yer usti va yer osti manbalaridan olib foydalanilgan suv resurslari hajmlarining alohida hisobini yuritadi. Suv resurslarining yer usti va yer osti manbalaridan suv keladigan vodoprovod tarmog'idagi suvdan foydalanilganda, soliq bazasi manbaning har bir turi bo'yicha alohida aniqlanadi. Suv yetkazib berishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar vodoprovod tarmog'iga suv resurslarining yer usti va yer osti manbalaridan kelib tushadigan suv hajmlarining nisbati to'g'risidagi ma'lumotlarni soliq organlariga joriy soliq davrining 15 yanvariga qadar taqdim etishi kerak. Soliq organlari uch kun ichida ushbu ma'lumotlarni soliq to'lovchilar e'tiboriga yetkazishi lozim.

Issiq suv hamda bug' hosil qilinishi bo'yicha soliq bazasi soliq to'lovchi tomonidan ishlab chiqarish va texnik ehtiyojlar uchun o'zi foydalangan suv resurslari hajmidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Binolarning bir qismi, alohida inshootlar ijaraga berilganda soliq bazasi suv yetkazib berishni amalga oshiruvchi yuridik shaxs bilan shartnoma tuzgan ijaraga beruvchi tomonidan aniqlanadi.

Binolarning bir qismini, alohida inshootlarni ijaraga olgan va suv yetkazib berishni amalga oshiruvchi soliq to'lovchilar bilan shartnoma tuzgan yuridik shaxslar soliq bazasini mustaqil ravishda aniqlaydi.

Soliq to'lovchilar yuridik shaxslar bilan suv yetkazib berilishi yuzasidan solishtirib ko'rish jarayonida olingan suvning hajmini aniqlashtirishda suv hajmining farqini solishtirish amalga oshirilgan davrdagi hisob-kitoblarda aks ettiradi.

Yuridik shaxslarning hududida ta'mirlash-qurilish ishlarni va boshqa ishlarni bajaruvchi soliq to'lovchilar ushbu ishlarni bajarish jarayonida foydalaniladigan suv uchun soliq to'lamaydi. Ta'mirlash-qurilish ishlarni va boshqa ishlarni bajarayotganda foydalaniladigan suv hajmi uchun bu ishlar qaysi yuridik shaxslar uchun bajarilayotgan bo'lsa, o'sha yuridik shaxslar soliq to'laydi. Qurilish ishlari yangi

qurilish maydonchasida bajarilgan taqdirda, qurilishda foydalaniladigan suv hajmi uchun qurilish tashkiloti soliq to'laydi.

Yuridik shaxslar qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallangan yerlarga taalluqli qism bo'yicha soliq bazasini soliq davrida bir gektar sug'oriladigan yerlarni sug'orish uchun sarflanadigan suvning butun xo'jalik bo'yicha o'rtacha hajmidan kelib chiqqan holda aniqlaydi.

Alkogolli mahsulot va alkogolsiz ichimliklarni ishlab chiqarish va boshqa maqsadlar uchun foydalanilgan suvning hajmi ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslar uchun soliq bazasi hisoblanadi. Alkogolli mahsulot va alkogolsiz ichimliklar ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan suv hajmi deganda iste'mol idishidagi tayyor mahsulotga to'g'ri keladigan suvning hajmi tushuniladi.

Yuridik shaxslar tomonidan yil boshidan o'sib boruvchi yakun bilan amalga oshiriladi va davlat soliq xizmati organlariga chorak va yillik moliyaviy hisobotlarni topshirish muddati uchun belgilangan muddatlarda yo'riqnomaga ilova qilingan shaklda taqdim etiladi.

Suvni markazlashtirilgan vodoprovod tarmog'idan oladigan yuridik shaxslar "Oqavasuv" tizimi korxonalari bilan solishtirish jarayonida olingan suv hajmini aniqlashtirish vaqtida suv hajmidagi farjni solishtirish amalga oshirilgan davr uchun hisob-kitoblarda aks ettiradilar.

Soliqni hisobga olish tartibi. Yuridik shaxslarning byudjet bilan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha hisob-kitoblarining buxgalteriya hisobi byudjetga to'lovlar bo'yicha (turlar bo'yicha) qarzlarni hisobga olish hisobvarag'ida yuritiladi.

Hisoblab yozilgan soliq summasi quyidagicha aks ettiriladi:

- davr xarajatlarini hisobga olish hisobvarag'i debeti;
- byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzlarni hisobga olish hisobvarag'i krediti.

Byudjetga o'tkazilgan soliq summalarini quyidagicha aks ettiriladi:

- byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzlarni hisobga olish hisobvarag'i debeti;
- pul mablag'larini hisobga olish hisobvarag'i krediti.

Qisqacha xulosalar

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchi bo'lib, o'z faoliyatida suvdan foydalanuvchi yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanadi. Yer osti va yer usti manba'lardan foydalaniladigan suv resurslari hajmi soliq obyekti hisoblanadi. Soliq stavkalari har yili Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Soliq to'lovchilar davlat soliq xizmati organlarining qarorlari va ular mansabdor shaxslarining harakatlari ustidan davlat soliq xizmatining yuqori organlari yoki sudga shikoyat qilish huquqiga egalar.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning to'g'ri hisoblab chiqilishi va to'lanishi ustidan nazorat O'zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organlari tomonidan, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Nazorat uchun savollari

1. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni joriy etishdan maqsad nimada?
2. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchilarini kimlar hisoblanadi?
3. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning byudjet daromadlaridagi hissasi qanday?
4. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning stavkalari qanday va soliqqa tortiladigan obyekt nima?
5. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun solig'ini hisoblash va to'lash tartibi qanday?

Mavzuga doir topshiriqlar

Topshiriq -1. Birinchi yarim yillik uchun korxona tomonidan:

Yer osti manbalaridan 1800 kub.m. suv ishlatildi, shundan 800 kub.m ikkinchi kvartal uchun, yer usti manbalaridan - 1600 kub.m. suv ishlatildi, shundan 600 kub.m ikkinchi kvartal uchun. Birinchi

chorak 49 100 sum suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'langan. Ikkinchisi chorak uchun byudjetga to'lanadigan soliq summasini hisoblang.

Topshiriq -2. Korxona Toshkent viloyati Yangiyo'l tumanida joylashgan bo'lib, Toshkent shahri Sirg'ali tumanida yotoqxona binosiga ega. Korxona yotoqxona uchun ishlataladigan suvgaga qaysi tumanda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchisi hisoblanadi.

Topshiriq -3. Toshkent shahar «Suvoqava» trestining bergan ma'lumotiga ko'ra shahar vodoprovod tarmog'iga suv 82% yer ustidagi va 18% yer osti manbalaridan kelib tushadi. Faraz qilaylik, korxona bir oy davomida 10 ming kub.m. suv olgan. Korxona davlat byudjetiga suv resurslaridan foydalanganligi uchun o'tkazishi lozim bo'lgan soliqni hisoblang.

Testlar

1. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bazasini aniqlang?

- A) Yer usti manbalaridan foydalanilgan suv resurslarining hajmi
- B) Yer osti manbalaridan foydalanilgan suv resurslarining hajmi
- C) Yer usti va yer osti manbalaridan foydalanilgan suv resurslarining hajmi
- D) Chuchuk suv manbalaridan foydalanilgan suv resurslarining hajmi

2. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni kimlar to'laydi?

- A) O'z faoliyatida suvdan foydalanuvchi yuridik shaxslar hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxslar
- B) O'z faoliyatida suvdan foydalanuvchi yuridik shaxslar
- C) O'z faoliyatida suvdan foydalanuvchi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxslar
- D) Barcha yuridik va jismoniy shaxslar.

3. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha soliq davrini aniqlang:

- A) Kalendar oy
- B) Kalendar choragi
- C) Kalendar yil
- D) Yarim yil

4. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha hisobot davrini aniqlang:

- A) Kalendar oy
- B) Kalendar choragi
- C) Kalendar yil
- D) Yarim yil

5. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha to'lash davrini aniqlang:

- A) Kalendar oy
- B) Kalendar choragi
- C) Kalendar yil
- D) Yarim yil

XII BOB. YER QA'RIDAN FOYDALANUVCHILAR UCHUN SOLIQLAR VA MAXSUS TO'LOVLAR

Reja:

12.1. Yer qa'ridan foydalanuvchilar to'laydigan soliqlar va maxsus to'lovlar haqida tushuncha.



12.2. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilar, soliqqa tortish obyektlari, bazasi va soliq stavkalari.

12.3. Yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisobotlarini taqdim etish va soliqni to'lash tartibi.

12.4. Bonuslar.

Tayanch so'z va iborala: yer osti qazilma resurslar, texnogen hosilalar, yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq, soliq obyekti, soliq stavkasi, soliq bo'yicha imtiyozlar, bonuslar.

12.1. Yer qa'ridan foydalanuvchilar to'laydigan soliqlar va maxsus to'lovlar haqida tushuncha

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin respublikamiz hududidagi barcha tabiiy, yer osti boyliklari davlatimiz tasarrufiga o'tdi. O'zbekiston zaminida juda ulkan va noyob, hali ijtimoiy ishlab chiqarishga jalg etilmagan mineral xom-ashyo resurslari to'plangan.

O'zbekistonda 100 ga yaqin, aniqrog'i 95 turdagি mineral xom-ashyoni o'zida mujassam etgan 2700 ta kon aniqlangan. Amalda Mendeleev davriy jadvalidagi barcha elementlar respublikamizda mavjud. Mamlakatning umumiy xom-ashyo salohiyoti 3,3 trillion AQSH dollari miqdorida baholanmoqda. Mavjud konlardan har yili 5,5 mlrd. AQSH dollariga teng foydali qazilmalar qazib olinmoqda.¹⁴

Respublikamiz qonunchiligiga ko'ra mavjud yer osti boyliklari umum davlat mulki hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining 1994 yil 23 sentyabrdagi "Yer osti boyliklari to'g'risida" gi Qonuniga

¹⁴ A.Jo'raev, Sh.Toshmatov, O Abduraxmonov. "Soliqlar va soliqqa tortish". O'quv qo'llanma. Toshkent- "NORMA" NASHRIYOTI-2019 yil.

muvofig 1995 yildan boshlab yer osti boyliklaridan foydalanilganlik uchun soliq joriy etildi va yer osti boyliklaridan foydalanuvchilar ularning hajmidan kelib chiqqan holda maxsus soliq to'lay boshladilar.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni joriy etilishidan asosiy maqsad – umum davlat mulki hisoblangan yer osti boyliklaridan oqilona tarzda butun jamiyat a'zolarini va kelajak avlod manfaatlarini hisobga olgan holda foydalanish samaradorligini oshirish hisoblanadi.

Soliqqa tortish maqsadida «yer osti» tushunchasiga yer qa'rining tuproq qismidan pasta joylashgan qismi tushuniladi. Yer qa'ri bo'limgan joylarda suv yuzasidan past qismi va geologik izlanuv yoki egallash imkoniyatiga ega bo'lgan suv havzalari yoki oqimlarining tagi (tubi) hisoblanadi.

12.2. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilar, soliqqa tortish obyektlari, bazasi va soliq stavkalari

O'zbekiston Respublikasi hududida konlarni qidirishni, foydali qazilmalarni qazib olishni, mineral xom ashyodan va (yoki) texnogen mineral hosilalardan foydali komponentlarni ajratib olishni amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar soliq solish maqsadida yer qa'ridan foydalanuvchilar deb aytiladi. (Soliq kodeksi 449-modda)

Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan qoidalarga rioya etgan holda qimmatbaho metallarni oltin izlovchilar usulida qazib olishga doir faoliyatni amalga oshiruvchi jismoniy shaxslar qimmatbaho metallarni oltin izlovchilar usulida qazib olishga doir faoliyatni amalga oshirishga taalluqli qism bo'yicha soliq to'lovchilar bo'lmaydi.

Foydali qazilmani qazib olish (ajratib olish) hajmi yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq obyektiadir.

Qazib olingan (ajratib olingan) foydali qazilmaning hajmi foydali qazilmalarning haqiqiy yo'qotishlarini hisobga olgan holda aniqlanadi.

Foydali qazilmaning zaxirasi qaysi foydali qazilmaning miqdoriga kamaytiriladigan bo'lsa, o'sha foydali qazilmaning hisoblangan miqdori va foydali qazilmani qazib olishning (ajratib

olishning) to'liq texnologik sikli yakunlangach aniqlangan, haqiqatda qazib olingan (ajratib olingan) foydali qazilma miqdori o'rtasidagi farq foydali qazilmaning haqiqiy yo'qotishlaridir.

Soliq solish obyekti foydali qazilmaning har bir turi bo'yicha alohida aniqlanadi.

Quyidagilar soliq solish obyektiidir:

- qazib olingan (ajratib olingan) foydali qazilmalar (shu jumladan birga qo'shilib chiqadigan);
- foydali qazilmalardan, mineral xom ashyodan, texnogen mineral hosilalardan ajratib olingan foydali komponentlar;
- sanoat yo'sinida dastlabki qayta ishlovdan o'tkazilgan qazib olingan uglevodorodlar shu jumladan birga qo'shilib chiqadigan foydali qazilmalar va foydali komponentlar;
- uglevodorodlarni qayta ishlash jarayonida ajratib olingan, lekin oldingi qazib olinganda va qayta ishlanganda qayta ishlanadigan foydali qazilmalar tarkibida tayyor mahsulot sifatida soliq solinmagan foydali komponentlar;
- ajratib olingan qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar, shu jumladan texnogen mineral hosilalardan ajratib olingan qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar.

Quyidagilar soliq solish obyekti bo'lmaydi:

- qatlamdagи bosimni saqlab turish va (yoki) uglevodorodlarni yopiq texnologik jarayon doirasida ajratib olish uchun mahsuldor qatlamga qayta haydab kiritiladigan tabiiy gaz hajmi;
- soliq to'lovchilarga berilgan yer uchastkalari doirasida qazib olingan (ajratib olingan) hamda o'zining xo'jalik va ro'zg'or ehtiyojlari uchun foydalanylган keng tarqalgan foydali qazilmalar. Keng tarqalgan foydali qazilmalar ro'yxati qonun hujjatlari bilan belgilanadi;
- qonun hujjatlarida belgilangan tartibda daryo o'zanlarini tozalash va qirg'oqlarni mustahkamlash ishlari natijasida qazib olingan (ajratib olingan) noruda foydali qazilmalar.

Soliq bazasi yer qa'ridan foydalanuvchi tomonidan mustaqil ravishda har bir qazib olingan (ajratib olingan) foydali qazilmaga, shu jumladan asosiy foydali qazilmani qazib olishda birga chiqadigan foydali komponentlarga nisbatan aniqlanadi.

Soliq bazasi qazib olingan (ajratib olingan) foydali qazilmalar hajmining hisobot davri uchun o'rtacha olingan realizatsiya qilish bahosida hisoblab chiqilgan qiymati sifatida aniqlanadi.

Hisobot davri uchun o'rtacha olingan realizatsiya qilish bahosi har bir qazib olingan (ajratib olingan) foydali qazilma bo'yicha pulda ifodalangan realizatsiya qilish hajmlarini (qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'ini chegirgan holda) ularning naturada ifodalangan realizatsiya qilish hajmiga bo'lish orqali alohida aniqlanadi.

Hisobot davrida foydali qazilma realizatsiya qilinmagan taqdirda, soliq bazasi realizatsiya qilish amalga oshirilgan oxirgi hisobot davrida foydali qazilmani realizatsiya qilishning o'rtacha olingan narxidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Foydali qazilma umuman realizatsiya qilinmagan taqdirda, soliq bazasi hisobot davrida mazkur foydali qazilmalarni qazib olishning (ajratib olishning) ishlab chiqarish tannarxini 20 foizga oshirgan holda aniqlanadi. Bunda, soliq to'lovchi realizatsiya qilish amalga oshirilgan o'sha hisobot davrida hisoblangan yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq summasiga hisobot davrida shakllangan o'rtacha olingan narxidan kelib chiqqan holda keyingi tuzatishni kiritishi shart.

Qazib olingan foydali qazilmaning bir qismi realizatsiya qilinib, qolgan qismidan o'zining ishlab chiqarish yoki xo'jalik ehtiyojlari uchun foydalilanigan hollarda, foydali qazilma bo'yicha soliq bazasi realizatsiya qilingan ushbu foydali qazilmaning o'rtacha olingan realizatsiya qilish narxidan kelib chiqib aniqlanadi.

Foydali qazilmadan o'zining ishlab chiqarish yoki xo'jalik ehtiyojlari uchun foydalilanigan hollarda bunday foydali qazilmalar uchun soliq bazasi qazib olingan (ajratib olingan) foydali qazilmani ishlab chiqarish tannarxini 20 foizga oshirgan holda aniqlanadi.

Foydali qazilmalarni qazib olishda (ajratib olishda) 0 foizli stavka bo'yicha soliq solish foydali qazilmalarning normativ yo'qotishlariga taalluqli qismi bo'yicha amalga oshiriladi. Foydali qazilmalarni qazib olishda (ajratib olishda) konlarda foydali qazilmalarni qazib olishning qabul qilingan sxemasi va texnologiyalari bilan texnologik bog'liq holdagi, vakolatli organ tomonidan qonun hujjatlarda belgilangan tartibda tasdiqlanadigan normalar doirasidagi yo'qotishlar normativ yo'qotishlardir. (Soliq stavkasi 452-modda)

Soliq stavkalari quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

12.2.1-jadval

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq STAVKALARI¹⁵

Soliq solinadigan ob'ektning nomi	Soliq stavkalari, foizlarda
Asosiy va birga qo'shib chiqadigan foydali qazilmalarni qazib olganlik uchun	
Energiya manbalari:	
Tabiiy gaz	30
Utilizatsiya qilingan tabiiy gaz, realizatsiya qilingan hajmi bo'yicha	9
Yer ostiga joylashtirilgan gaz	2,6
Gaz kondensati	20
Neft	20
Tosh ko'mir	4
Qo'ng'ir ko'mir	4
Yonuvchi slanslar	4
Rangli, nodir va radioaktiv metallar:	
Tozalangan mis	10
Molibdenli sanoat mahsuloti	10

¹⁵ Ўзбекистон Республиқаси Солик Кодекси (янги таҳрири). Тошкент "НОРМА" 30.12.2019 й. 59-боб.452-модда. 310-313-бетлар.

Reniy	10
Konsentratlangan qo'rg'oshin	8
Metall rux	10
Volfram konsentrati	10,4
Uran	10
Selen	10
Tellur	10
Indiy	10
Vismut	10
Asl metallar:	
Oltin	10
Kumush	10
Palladiy	10
Platina	10
Osmiy	10
Nodir tosh xom ashyosi:	
Qimmatbaho, yarim qimmatbaho va zeb-ziynat uchun toshlar xom ashyosi	24
Feruza, listvenit, rodonit, zmeevik, marmar yo'l-yo'l aqiq, kaxolong, yashma, xalsedon, aqiq, gematit	24
Qora metallar:	
Temir	5
Titan-magnetitli rudalar	4
Manganets rudalari	4
Kon-kimyo xom ashyosi:	
Tosh tuz (ovqatga ishlataladigan)	3,5, biroq 10000 so'm/kub.m dan kam bo'limgan
Kaliy tuzi	3,5
Sulfat tuzi	3,5
Fosforitlar (danasimon)	5

Karbonat xom ashyosi (ohaktoshlar, dolomitlar)	3,5
Ohaktoshlar (soda uchun va Biox texnologiyasi bo'yicha sanoat chiqindilarini tozalash)	3,5
Mineral (loysimon, temirokisli, karbonatli) pigmentlar	5,5
Yod	4,8
Qishloq xo'jaligi ruda xom ashyosi (glaukonit, bentonitli gil, urug'simon va tabiiy foydalaniladigan hamda jelvakli fosforitlar)	3,5
Kon-ruda xom ashyosi:	
Ervchan shpat	21,2
Tabiiy grafit	8
Birlamchi kaolin (konsentrat), realizatsiya qilingan hajmi bo'yicha	7,9
Ikkilamchi kaolin, realizatsiya qilingan hajmiga doir	7,9
Dala shpati xom ashyosi (pegmatit, dala shpati, felzit, leykokratli granit, kvars-dala shpati xom- ashyosi)	6,5
Kvars qumlari (shisha)	3
Qumtosh (shisha)	5
Bentonitli loy (burg'ulangan eritmalar)	4,8
Talk va talk toshi	4
Talkli magnezit	4
Vollastonit	4
Asbest	4
Mineral tola ishlab chiqarish uchun bazalt	4
Barit konsentrati	4
O'tga chidamli, qiyin eruvchan gillar	4

Ohaktoshlar, dolomitlar (shisha, metallurgiya uchun, o'tga chidamli), flyus ohaktosh	5, biroq 11500 so'm/kub.m dan kam bo'lмаган
Kvars va kvarsit (shisha, texnik kremniy, silikomargans, dinalar ishlab chiqarish uchun)	6,5
Qoliplash xom ashysi (qumlar, loylar)	4
Vermikulit	4
Mineral paxta uchun xom ashyo (dolomit, tog' jinslari)	5
Hayvonlar va qushlarni oziqlantirish uchun ohaktosh qobig'i	5
Serpentinit (o'tga chidamli xom ashyo)	5
Qurilish materiallari:	
Sement ishlab chiqarishga mo'ljallangan ohaktoshdan tashqari sement xom ashysi (mergeli, loylar, slanslar, lyossimon jinslar, qumoqsimon, loysimon chig'anoqlar, kaolin, vulqon jinslari, pelitli tuffitlar, bazaltlar, diabazlar, andezibazaltlar, gliejlar, temir tarkibli qo'shimchalar, magnetit — gematitli jinslar, kvars qumi va h.k.)	10
Sement ishlab chiqarishga mo'ljallangan ohaktosh	45000 so'm/tonna*
Ohak ishlab chiqarishga mo'ljallangan ohaktosh	5
Tabiiy bezaktoshdan bloklar (ohaktosh, ohaktosh-chig'anliq, ravertin simon ohaktoshlar, mramor, granit, granodiorit, granosienit, nefelinli sienit, gabbro, granosienitporfir, kvars porfirdagi	5, biroq 20000 so'm/kub.m dan kam bo'lмаган

ignimbritlar, liparito-datsitlar, vulqon tufi, vulqon jinslari, qumtosh)	
Marmar ushog'i	5, biroq 17000so'm/kub.mdan kam bo'lмаган
Keramzit xom ashyosi (bentonit va loy jinslari)	5
G'isht-cherepitsa xom ashyosi (qumoqsimon, lyossimon jinslar, lyosslar, zichlovchi sifatida qumlar va boshqalar)	5, biroq 7000 so'm/kub.mdan kam bo'lмаган
Gips toshi, gips va angidrid, ganch	5, biroq 9500so'm/kub.m dan kam bo'lмаган
Arralanadigan, harsangtosh va shag'al uchun toshlar	5, biroq 7000so'm/kub.m dan kam bo'lмаган
Sohilni himoya qilish ishlari uchun xom ashyo (ohaktoshlar, porfiritlar, granitlar)	5, biroq 10000so'm/kub.mdan kam bo'lмаган
Qurilish qumlari	5, biroq 8500so'm/kub.m dan kam bo'lмаган
Tosh-shag'al aralashmasi	5, biroq 7500so'm/kub.mdan kam bo'lмаган
Qumtoshlar	5
Ohaktosh-chig'anoq	5, biroq 12500so'm/kub.m dan kam bo'lмаган
Qurilish mayda toshlar (karbonat jinslari)	5, biroq 10000so'm/kub.m dan kam bo'lмаган
Qurilish mayda toshlar (granitlar, porfiritlar va slanets jinslari)	5, biroq 10000so'm/kub.m dan kam bo'lмаган

Farfor xom ashyosi (farfor toshi, loyli oq quyuqlashuvchi slanets)	5
To'g'on qurish uchun xom ashyo (tosh-shag'al materiallari, lyossimon jinslar, qum, bentonitli loy, ohaktoshlar)	5
Boshqa keng tarqalgan foydali qazilmalar (mergellar, argelitlar, amvritlar va boshqalar)	5
2. Texnogen mineral hosilalardan ajratib olingan foydali qazilmalar	Asosiy foydali qazilmani qazib olganlik uchun stavkaning 30 %i

* Cement ishlab chiqaruvchi zavodlar, shuningdek cement xom ashyosi – ohaktoshni realizatsiya qiladigan yer qa'ridan foydalanuvchilar belgilangan soliq stavkasi bo'yicha soliq to'laydi. Cement ishlab chiqarish uchun ko'mirdan foydalanuvchi zavodlar uchun soliq stavkasi 50 foizga kamaytiriladi.

Asl, rangli, noyob va radioaktiv metallarni qazib olishni amalga oshiruvchi alohida soliq to'lovchilar uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan oshirilgan soliq stavkalari belgilanishi mumkin.

12.3. Yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisobotlarini taqdim etish va soliqni to'lash tartibi

Soliq bazasidan va belgilangan soliq stavkasidan kelib chiqqan holda soliq hisoblab chiqariladi.

Soliq to'lovchi yuridik va jismoniy shaxslar soliq hisobini o'sib boruvchi yakun bilan mustaqil hisoblaydilar va o'zlari joylashgan hududdagi soliq idoralariga moliyaviy hisobotlar topshirish uchun belgilangan muddatda topshiradilar.

Soliq hisobi foydali qazilmalar qazib olganlik va texnogen hosilalardan foydalanganlik uchun yilning har choragi va yillik moliyaviy hisobotlarni taqdim etish uchun belgilangan muddatdan kechiktirmay taqdim etadilar.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga quyidagi muddatlarda taqdim etiladi:

- yuridik shaxslar tomonidan — ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 20-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda;

- jismoniy shaxslar tomonidan — yiliga bir marta, soliq davridan keyingi yilning 1 fevralidan kechiktirmay.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq to'lash quyidagicha amalga oshiriladi:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar, shuningdek jismoniy shaxslar tomonidan — hisob-kitob taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay;

- mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan yuridik shaxslar tomonidan — har oyda, keyingi oyning 20-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay.

12.4. Bonuslar.

Jahon amaliyotida tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun to'lovlar tizimini bonuslar, renta va roylati soliqlar tashkil etadi.

Bonuslar – bir martalik to'lov bo'lib, davlat uchun soliqlar kabi unchalik muhim moliyaviy resurs bo'lmasada, davlat byudjeti daromadlarini oshirishning zarur elementlaridan biri hisoblanadi. Bonuslar hajmi har bir mamlakatning qonunchiligi bilan belgilanib, ular tabiiy resurslardan foydalanish bo'yicha kelishuvlar predmeti hisoblanadi.

O'zbekistonda ham xo'jalik yurituvchi subyektlar tabiiy resurslardan foydalanishi jarayonida bonuslar to'laydi. Respublikamiz qonunchiligiga muvofiq, bonuslar – bu bitim tuzilgan vaqtida yoki muayyan natijaga erishilgach bitim shartlariga muvofiq belgilangan bir martalik to'lovlar hisoblanadi.¹⁶

¹⁶ Ўзбекистон Республикасининг “Махсулот тақсимотига оид битимлар тўғрисида”ти Конун. 20-модда

O'zbekistonda yer qa'ridan foydalanuvchilar ikki xil bonusni to'laydilar. Bular imzoli bonus hamda tijoratbop topilma bonusi.

Rentali tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun to'lovlarining ikkinchi ko'rinishi hisoblanib, davlat tomonidan tabiiy resurslardan foydalanish bo'yicha shartnoma tuzish vaqtida undiriladigan to'lov hisoblanadi. Rentals kelishuv davri davomida yoki qazib olish boshlanishidan avval undiriladi.

Royalti tabiiy resurslardan foydalanuvchining yalpi daromadidan foiz ko'rinishida undirilib, davlat tomonidan tabiiy resurslarning egasi sifatida ishlab chiqarilgan mahsulotning qat'iy ulushi o'zlashtiriladi. Respublikamiz qonunchiligiga muvofiq, royalti – bu mineral xomashyoni qazib olish hajmiga yoki ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatiga nisbatan foiz hisobida bitim shartlariga muvofiq belgilangan va investor tomonidan pul shaklida yoki qazib olingan mineral xom-ashyoning bir qismi tarzida to'lanadigan muntazam to'lovlardir.¹⁷

Jahon amaliyotida tabiiy resurslardan foydalanishni soliqqa tortish odatda foyda solig'i va tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun maxsus soliqlar, ya'ni renta soliqlari sifatida undiriladi. Shuningdek, ayrim xorijiy mamlakatlar soliq amaliyotida tabiiy resurslardan foydalanish hisobiga yuqori rentabellikka erishadigan xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun aksiz soliqlari ham amal qiladi

Yer qa'ridan foydalanuvchilar quyidagi soliqlar va maxsus to'lovlarini to'laydilar:

- yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq;
- qo'shimcha foyda solig'i;
- bonus (imzoli va tijoratbop topilma bonuslar).

Bu soliqni yagona soliq to'lovchi kichik biznes korxonalari, yagona yer solig'i to'lovchi qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari hamda savdo va umumiy ovqatlanish va gramplastinkalar, kassetalar va disketalar sotuvchi korxonalar va qat'iy stavkada soliq to'lovchi yuridik shaxslar ham to'lamaydilar.

Agar tarkibida rangli, nodir, qora metallar va boshqa mineral xomashyoni qazib oluvchi korxona uni qayta ishlashga ikkinchi korxonaga bersa, soliq to'lovchi bo'lib tayyor mahsulotni sotuvchi korxona hisoblanadi. Masalan, mis qazib oluchi korxona rudani Olmaliq konmetallurgiya kombinatiga berdi. Kombinat tayyor mahsulot qilib

¹⁷ Ўзбекистон Республикасининг "Махсулот тақсимотига оид битимлар тўғрисида"ти Конун. 20-модда

sotadi. Bu yerda kombinat soliq to'lovchi hisoblanadi. Agar qazib olingan rudani Respublikadan tashqariga sotsa soliq to'lovchi bo'lib ruda qazib olgan korxona hisoblanadi.

Qisqacha xulosalar.

O'zbekiston Respublikasi hududida konlarni aniqlash va qidirish, foydali qazilmalarni kavlab olish, mineral xom ashyodan va (yoki) texnogen mineral hosilalardan foydali komponentlarni ajratib olishni amalga oshirayotgan, shuningdek foydali qazilmalardan foydali komponentlarni ajratib olgan holda ularni qayta ishlashni amalga oshirayotgan yuridik va jismoni shaxslar soliq solish maqsadida yer qa'ridan foydalanuvchilardir.

Yer osti boyliklari deganda - yer qobig'ining yuqori qismini qamrab oladigan hamda foydali qazilmalarni tadqiq qilish va qazib olish mumkin bo'lgan makonga aytildi.

Foydali qazilmalar deganda iqtisodiy va sog'lomlashtirish ahamiyatiga ega geologik hosilalarga aytildi.

Tarkibida rangli, nodir, qora metal va boshqa mineral xom ashyo bo'lgan rudalarni bir korxona qazib olib, uni qayta ishlash uchun boshqa korxonalarga bersa, qazib olinadigan rudani qayta ishlaydigan va soliq stavkasi belgilangan tayyor mahsulot chiqaradigan korxona soliq to'lovchi hisoblanadi.

Respublikamizda faoliyat olib borayotgan Olmaliq tog'-kon metallurgiya kombinati, Farg'ona va Oltiariq neftni qayta ishlash zavodlari, Sho'rtan va Muborak gazni qayta ishlaydigan zavodlari, Navoiy oltinni qayta ishlaydigan korxonasi va Angren ko'mir qazib oluvchi korxonasi va boshqa shu kabi yer osti boyliklarini qazib chiqaruvchi va qayta ishlovchi yirik korxonalar ushbu soliqni davlat byudjetiga ta'minlab beruvchi eng yirik soliq to'lovchilari hisoblanadi.

Nazorat savollar:

1. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni joriy etishdan maqsad nima?
2. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning byudjet daromadlaridagi hissasi qanday?
3. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning to'lovchilarini kimlar?
4. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning stavkalari va

soliqqa tortiladigan obyekt qanday aniqlanadi?

5. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash va to'lash tartibi qanday?

Mavzuga doir topshiriqlar

Topshiriq 14.1. Farg'ona neft qazib oluvchi korxona hisobot davrida 1200 tonna neft qazib olgan. Korxona qayta ishlashga 1200 ming so'mga realizatsiya qilgan. Korxonaning hisobot davrida to'lashi lozim bo'lgan yer ostidan foydalanganlik uchun soliq summasini aniqlang.

Topshiriq 14.2. Olmaliq tog'-kon mntallurgiya kombinati hisobot davrida 3800 tonna ko'mir qazib olgan va uning 45 foizini 9400 ming so'mga realizatsiya qilgan. Korxonaning to'lashi lozim bo'lgan yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq summasini hisoblang.

Topshiriq 14.4. Angren ko'mir qazib oluvchi korxonasi joriy yil 3-choragi davomida 800 tonna ko'mir kavlab oldi. Mahsulotning 2-chorakdagi o'rtacha olingan realizatsiya qilish bahosi 1 kg uchun 10 000 so'm. 3-chorak uchun yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblang.

Testlar

1. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilari bo'lib ... hisoblanadi.

- A) Yuridik va jismoniy shaxslar
- B) Faqat yuridik shaxslar
- C) Faqat jismoniy shaxslar
- D) Norezidentlar

2. Jismoniy shaxslar yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilari:

- A) Hisoblanadilar
- B) Hisoblanmaydilar
- C) Hisoblanadilar, agar ular yer uchastkaning egalari bo'lsa
- D) Hisoblanmaydilar, agar ularga hokimiyat tomonidan ruxsat berilgan bo'lsa.

3. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha soliq davrini aniqlang:

- A) Kalendar oy
- B) Kalendar choragi
- C) Kalendar yil
- D) Yarim yil

4. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha hisobot davrini aniqlang:

- A) Kalendar oy
- B) Kalendar choragi
- C) Kalendar yil
- D) Yarim yil

5. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha to'lash davrini aniqlang:

- A) Kalendar oy
- B) Kalendar choragi
- C) Kalendar yil
- D) Yarim yil

XIII BOB. MAHALLIY SOLIQLAR VA YIG'IMLAR, ULARNING AMAL QILISH XUSUSIYATLARI

Reja:

- 13.1. Mahalliy soliqlar va yig'ilmarning amal qilish xususiyatlari.
- 13.2. Avtotransport yig'imi.



Tayanch so'z va iboralar: jismoniy shaxs, mahalliy soliqlar, yig'im, soliq to'lovchi, soliq solish obyekti, soliq bazasi, soliq imtivozi, soliq stavkasi, soliq hisoblash tartibi, soliq hisoboti, soliq to'lash muddati.

13.1. Mahalliy soliqlar va yig'ilmarning amal qilish xususiyatlari

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi har yili makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risidagi qarorida mahalliy soliqlar va yig'implar tarkibini belgilab beradi.

Yalpi daromadidan soliq to'lovchilar savdo binolari, maydonlari va asbob uskunalarini ijaraq bersalar undan olgan daromaddan hamma mahalliy soliqlar va yig'implarni to'layveradilar.

Mahalliy yig'implarga quyidagilar kiradi:

1. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarining yalpi daromadidan soliq;
2. O'z ichiga alohida tovarlarga litsenziya yig'imini qo'shgan savdo huquqi olish yig'imi;
3. Tadbirkorlik faoliyati bilan shugullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslarni ro'yxatdan o'tkazish yig'imi olinadi.

Mol-mulk va yer solig'idan tashqari soliqlarni kiritish Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar hamda Toshkent shahri mahalliy hokimiyat organlari tomonidan olib boriladi. Soliqlarni to'lash javobgarligi soliq to'lovchilarga yuklatilgan. Mahalliy soliqlar va yig'implar to'langanligiga asos bo'lib, banklar tomonidan berilgan hujjatlar hisoblanadi.

Soliq deganda Soliq Kodeksda belgilangan, O’zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga yoki davlat maqsadli jamg’armasiga to’lanadigan majburiy beg’araz to’lov tushuniladi.

Yig’im deganda byudjet tizimiga ushbu Kodeksda yoki boshqa qonun hujjatlarida belgilangan majburiy to’lov tushuniladi, bu yig’imning to’lanishi uni to’lovchi shaxsga nisbatan vakolatli organ yoki uning mansabдор shaxsi tomonidan yuridik ahamiyatga ega harakatlarni amalga oshirish, shu jumladan unga muayyan huquqlarni yoxud ruxsat etuvchi hujjatlarni berish shartlaridan biri bo’ladi (Soliq kodeksi 16-modda).

Soliqlarning va yig’imlarning turlari

O’zbekiston Respublikasi hududida quyidagi soliqlar belgilanadi:

- 1) qo’shilgan qiymat solig’i;
- 2) aksiz solig’i;
- 3) foyda solig’i;
- 4) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig’i;
- 5) yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;
- 6) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
- 7) mol-mulk solig’i;
- 8) yer solig’i;
- 9) ijtimoiy soliq.

O’zbekiston Respublikasi hududida yig’imlar belgilanishi mumkin. Yig’imlarni joriy etish, hisoblab chiqarish va to’lash tartibi ushbu Kodeksda hamda boshqa qonun hujjatlarida belgilanadi.

Avtotransport yig’imini hisoblab chiqarish va to’lash tartibi ushbu Kodeks bilan tartibga solinadi.

Davlat bojini hisoblab chiqarish va undirish tartibi davlat boji to’g’risidagi qonun hujjatlarida belgilanadi.

13.2. Avtotransport yig’imlari.

Avtotransport yig’imlari jumlasiga quyidagilar kiradi:

- avtotransport vositalarini sotib olganlik va O’zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig’im;

- chet davlatlar avtotransport vositalarining O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti uchun yig'im.

Avtotransport vositalarini sotib oluvchi va O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirishni amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi rezidentlari hamda norezidentlari avtotransport vositalarini sotib olganlik va O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig'imni soliq to'lovchilari deb aytildi (Soliq kodeksi 456-modda).

Chet davlatlar avtotransport vositalarining egalari yoki ulardan foydalanuvchilar ushbu vositalarning O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti yig'imi soliq to'lovchilari deb aytildi.

Avtotransport vositalarini ishlab chiqaruvchilar mamlakatning o'zida ishlab chiqarilgan yangi avtotransport vositalarini sotib olganlik uchun yig'imni soliq to'lovchilari bo'lib hisoblanadi.

Quyidagi yig'implar soliq solish obyektiidir:

1. Avtotransport vositalarini sotib olish va O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirish;
2. Chet davlatlar avtotransport vositalarining O'zbekiston Respublikasi hududiga kirishi va uning hududi orqali tranziti.

Soliq bazasi quyidagilardir:

- sotib olingan va O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kiriladigan avtotransport vositalari dvigatelining ot kuchidagi quvvati yoki avtotransport vositalarining qiymati;

- O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganida yoki uning hududi orqali tranzitida — chet davlatlarning avtotransport vositalari.

Avtotransport vositalarini sotib olish va O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirish uchun yig'imni to'lashdan quyidagilar ozod qilinadi:

1) ishlab chiqaruvchi zavod tomonidan qo'l bilan boshqarishga moslashtirilgan yengil avtomobilni va (yoki) motoaravachani sotib oluvchi barcha guruhlardagi nogironligi bo'lgan shaxslar;

2) yaqin qarindoshlaridan hadya shartnomasi yoki meros asosida avtomobillar va motoaravachalar oluvchi fuqarolar;

3) faoliyatining asosiy turi yo'lovchilar tashish bo'lgan, qonun hujjatlariga muvofiq yo'lovchilar tashish uchun belgilangan namunadagi litsenziyaga ega bo'lgan avtomobil transporti korxonalari – yo'lovchilar tashishni amalga oshiruvchi transport vositalari bo'yicha (yengil avtomobillar va yo'nalishli taksilardan tashqari);

4) yuridik shaxslar — qirq tonnadan ortiq yuk ko'taradigan, sotib olingan kon avtosamosvallari bo'yicha;

5) homiylik (beg'araz) yordami sifatida avtomobillarni olgan (sotib olgan) bolalar uylari, ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar, nogiron bolalar uchun markazlar, qariyalar va kichik yoshdagi nogironlar uchun internat-uylar, shuningdek byudjet hisobidan moliyalashtiriladigan tibbiyot muassasalari;

6) yuridik shaxslar — avtotransport vositalarini bitta tizim (davlat va xo'jalik boshqaruvi organi) ichida balansdan balansga bepul o'tkazish chog'ida;

7) qayta tashkil etish natijasida avtotransport vositasini olgan huquqiy voris.

Avtotransport vositalarini sotib olganlik va O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig'im ular O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi organlarida davlat ro'yxatidan o'tkazilayotganda, qayta ro'yxatdan o'tkazilayotganda quyidagi hollarda undiriladi:

1) avtotransport vositalari oldi-sotdi, almashtirish, hadya, bepul berish shartnomasi asosida, shuningdek qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa bitimlar asosida mulk qilib olinganda;

2) avtotransport vositalari yuridik shaxsning ustav fondiga (ustav kapitaliga) yoki dividendlar sifatida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda olinganda;

3) avtotransport vositalari O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirilganda.

Qisqacha xulosa.

Mamlakatning o'zida ishlab chiqarilgan avtotransport vositalari sotib olinganda, yig'im qonun hujjatlarida belgilangan tartibda avtotransport vositalarini ishlab chiqaruvchilar tomonidan to'lanadi.

Chet davlatlar avtotransport vositalarining O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti uchun yig'im chet davlatning avtotransport vositasi O'zbekiston Respublikasi hududiga kirayotganida undiriladi.

Nazorat savollari

1. Mahalliy yig'implarga nimalar kiradi?
2. Soliqlarning va yig'implarning turlari soliq kodeksini qaysi moddasida berilgan?
2. Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yonilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq qaysi soliq turiga xos?
3. Soliq solish obyekti va bazasi qanday aniqlanadi?
4. Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yonilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq stavkalarini aytинг.
5. Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yonilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq hisob-kitobi qaysi muddatlarda taqdim etiladi?
5. Avtotransport yig'implari jumlasiga nimalar kiradi?

Mavzuga doir topshiriqlar

Topshiriq 13.1. “O'zbekneftgaz” (1 kunda) yonilg'i quyish shoxobchasida 10 000 l benzin sotildi. Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yonilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq summasini hisoblang.

Topshiriq 13.2. “Mustang” (1 kunda) yonilg'i quyish shoxobchasida 5000 l dizel yonilg'isi va 2200 kub.m gaz sotildi. Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, ishlatganlik uchun olinadigan soliq summasini hisoblang

Testlar

1. Mahalliy soliqlar va yig’imlar tarkibi kim tomonidan belgilanadi?

- A) O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan
- B) O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlis tomonidan
- C) O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan
- D) O’zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo’mitasi tomonidan

2. Quyida qayd etilgan soliqlarning qaysi biri egri soliqlar guruhiga kiradi?

- A) Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig’i
- B) Jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliq
- C) Qo’shilgan qiymat solig’i
- D) Mol-mulk solig’i

3. Avtotransport yig’imlarining to’lovchilari Soliq kodeksini nechinchi moddasida berilgan?

- A) 456-modda
- B) 16-modda
- C) 164-modda
- D) 250-modda

4. O’zbekiston Respublikasining amaldagi Soliq Kodeksi necha moddadidan iborat (21 bo’lim 67 bob ...)?

- A) 480 modda
- B) 460 modda
- C) 390 modda
- D) 450 modda

5. Mahalliy soliqlar va yig’imlardagi soliq tushumi qaysi byudjetga tushadi?

- A) Umumdavlat
- B) Maxalliy
- C) Ham umumdavlat ham mahalliy
- D) Hokimiyat

XIV BOB.
SODDALASHTIRILGAN SOLIQ
TIZIMINING O'ZIGA XOS
XUSUSIYATLARI

Reja:

14.1. Soddalashtirilgan soliq tizimi haqida tushuncha va uning iqtisodiy ahamiyati.

14.2. Kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi to'lovchilari, obyekti, stavkalari bazasi.

14.3. Yakka tartibdagi tadbirkorlarning daromadlarini soliqqa tortish.

Tayanch so'z va iboralar: soddalashtirilgan soliq, yagona soliq to'lovi, soliq stavkasi, yalpi daromad va yalpi tushum, mikrofirma va kichik korxona, yakka tartibdagi tadbirkor, chakana savdo, tovar cheklar kitobi, soliq subyekti, soliq to'lovchilar, soliq imtiyozlari.

14.1. Soddalashtirilgan soliq tizimi haqida tushuncha va uning iqtisodiy ahamiyati

O'zbekiston Respublikasi xududida faoliyat yuritoyган yuridik shaxslar tomonidan to'lanadigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bilan birgalikda soddalashtirilgan soliq tartibida to'lanadigan soliqlar ham amal qiladi.

Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi deganda soliq solishning ayrim toifadagi soliq to'lovchilar uchun belgilangan hamda ayrim turdagи soliqlarni hisoblab chiqarish va to'lashning alohida tartibi tushuniladi.¹⁸

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 iyundagi PF-5468-sonli "O'zbekiston Respublikasining Soliq siyosatini takomillashtirish Konsepsiysi to'g'risida" gi Farmonida Soliq yukini izchillik bilan kamaytirish, soliq solish tizimini



¹⁸ **Soliq hisoboti.** O'quv qo'llanma / Qurbanov Z.N., Misirov K.M., Hotamov K.R., Isayev F.I. - T.: "Iqtisod-Moliya". 2020 yil. 148- bet.

soddalashtirish va soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish, iqtisodiyotni jadal rivojlantirish hamda mamlakatning investitsiyaviy jozibadorlikni oshirishga e'tibor qaratilgan¹⁹.

2017 - 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan soliq yukini kamaytirish va soliq solish tizimini soddalashtirish, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish vazifalarini amalga oshirish maqsadida, shuningdek, keng jamoatchilik muhokamasi natijalari hamda Xalqaro valyuta jamg'armasi, Juhon banki va xalqaro ekspertlarning tavsiyalaridan kelib chiqib:

- * iqtisodiyotga soliq yukining darajasini kamaytirish, shuningdek, soliq solishning soddalashtirilgan va umumbelgilangan tizimi bo'yicha soliqlarni to'laydigan xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi soliq yuki darajasidagi nomutanosibliklarni bartaraf etish;

- * soliqlarni unifikatsiya qilish orqali ularning sonini optimallashtirish, shuningdek, o'xshash soliq solish bazasiga ega bo'lgan soliqlarni birlashtirish, soliq hisobotlarini qisqartirish va soddalashtirish, operatsion xarajatlarni minimallashtirish;

- * makroiqtisodiy vaziyatning barqarorligini, O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti va uning daromadlarini shakllantirishning mustahkamligini ta'minlash;

- * soliq qonunchiligini soddalashtirish, soliq munosabatlari sohasida normativ-huquqiy hujjatlardagi qarama-qarshiliklar va ziddiyatlarni bartaraf etish, insofli soliq to'lovchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlari himoyasini kuchaytirish;

- * soliq solish masalalarini tartibga soladigan normalar va qonun osti hujjatlarini maksimal darajada cheklagan holda, soliq qonunchiligining barqarorligini hamda O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi normalarining to'g'ridan-to'g'ri amal qilishini

¹⁹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 29 июнданги ПФ-5468-сонли “Ўзбекистон Республикасининг Солик сиёсатини таомиллаштириш Концепцияси тўғрисида” ги Фармони

ta'minlash, shu jumladan kodeksda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlар stavkalarining miqdorlarini belgilash;

* xorijiy investorlar va investitsiyalar uchun qulay rejimni saqlab qolish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ishonchli huquqiy himoyalash;

* soliq nazoratining shakl va mexanizmlarini, shu jumladan soliq solish obyektlari hamda soliq to'lovchilarni yanada to'liq qamrab olish va hisobini ta'minlaydigan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish hisobiga takomillashtirish, transfer narxlarni shakllantirish bilan bog'liq operatsiyalarga soliq solish tartibini joriy etish lozimligi haqida to'xtalib o'tilgan.

14.2. Kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi to'lovchilari, obyekti, stavkalari va bazasi.

Soliq Kodeksida belgilangan hollarda va tartibda soliq solishning soddalashtirilgan tartibida to'lanadigan quyidagi soliqlar qo'llanilishi mumkin:

- yagona soliq to'lovi;
- yakka tartibdagi tadbirkorlik .

Yagona soliq to'lovi to'lovchilar quyidagilardir:

1) mikrofirmalar va kichik korxonalar

2) xodimlarning sonidan qat'iy nazar:

* savdo korxonalari va umumiylar ovqatlanish korxonalari;

* xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslar;

* lotoreyalar tashkil qilish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish doirasidagi yuridik shaxslar.

Soddalashtirilgan tartibda yagona soliq to'lovi to'lovchilar uchun soliq solish obyekti yalpi tushum hisoblanadi, soliq solish maqsadida yalpi tushum tarkibiga tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) qo'shilgan qiymat solig'ini chegirgan holda (qo'shilgan qiymat solig'i to'lashga o'tgan soliq to'lovchilar uchun) realizatsiya qilishdan tushgan tushuniladi.

Yalpi tushum soliq solinadigan baza hisoblanadi.

Yalpi tushum tarkibiga quyidagilar kiradi:

- tovar (ish, xizmat)larni, mol-mulkni sotishdan olingan tushum summasi;

- sotilgan mol-mulk qiymati va boshqa aktivlar.

O'zi ishlab chiqargan mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni erkin almashtiriladigan valyutaga eksport qilishdan olingan tushum summalarini yalpi tushum tarkibiga kiritilmaydi.

O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan xo'jalik subyektlari faoliyat munosabatlaridan kelib chiqib soliqqa tortishda umumbelgilangan hamda sodalashtirilgan tartibdagi soliqlar bo'yicha byudjet bilan hisoblashishlarni amalga oshiradi.

Yagona soliq to'lovini to'lovchilar quyidagilardir:

1) soliq davrida olingan yalpi tushumi bir milliard so'mdan oshmagan yuridik shaxslar;

2) oddiy shirkat ishlarini yuritish zimmasiga yuklatilgan (ishonchli shaxs) sherik (ishtirokchi) – soliq davrida oddiy shirkat faoliyatidan olingan yalpi tushumi bir milliard so'mdan oshmagan yakka tartibdagi tadbirkor;

3) soliq davrida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushumi belgilangan miqdordan oshgan, lekin bir milliard so'mgacha bo'lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar

4) soliq davrida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushumi bir milliard so'mdan oshmagan:

meva-sabzavot mahsulotlari eksportini amalga oshiruvchi;

elektron tijorat sub'ektlarining milliy reestriga kiritilgan yakka tartibdagi tadbirkorlar;

5) soliq davrida olingan yalpi tushumi bir milliard so'mdan oshmagan oilaviy korxonalar;

6) notijorat tashkilotlar daromadlarining soliq davrida tadbirkorlik faoliyatidan olingan qismi bo'yicha, soliq davrida tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlari bir milliard so'mdan oshmasligi sharti bilan.

Vositachilik, topshiriq shartnomasi bo'yicha hamda vositachilik xizmatlari ko'rsatishga oid boshqa shartnomalar bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik shaxslar yillik aylanmaning (tushumning) belgilangan chegaraviy miqdorini tovar aylanmasidan (bitim summalaridan) kelib chiqqan holda hisoblab chiqaradi.

Yagona soliq to'lovini to'lashga o'tish uchun soliq to'lovchilar yagona soliq to'lovini to'lashga o'tishi to'g'risida soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organini O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan shaklda, yagona soliq to'lovini to'lashga o'tilayotgan joriy hisobot davri birinchi oyining 10-sanasidan kechiktirmay xabardor qiladi.

Yalpi tushum soliq solish ob'ektidir.

Yagona soliq to'lovini to'lovchilar yillik aylanmasi 1 milliard so'mgacha bo'lган soliq to'lovchilar uchun aylanmadan soliqni 4 % miqdordagi bazaviy stavkadan kelib chiqib hisoblash va to'lash tartibini hamda ixtiyoriy ravishda qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash imkoniyatini belgilanadi.

Uning summasini soliq solinadigan baza va tasdiqlangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisob-kitob qiladilar. Bunda soliq organlariga davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalar bo'yicha hisob-kitoblar alohida taqdim etilmaydi, shuningdek pensiya, yo'l va ta'lim muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasi jamg'armalariga majburiy ajratmalar summalarini alohida to'lanmaydi.

Kichik biznes maqomini olishning quyidagi me'yorlari belgilangan:

1). Mikrofirmalarda:

* Ishlab chiqarish sohalari uchun – 10 kishigacha;

* Harid qilish, ta'minlash sotish korxonalari, xizmat ko'rsatish va noishlab chiqarish sohalari uchun – 5 kishigacha;

2). Kichik korxonalarda:

* Sanoatda – 40 kishigacha;

* Qurilish, qishloq xo'jaligi va boshqa ishlab chiqarish sohalarida – 20 kishigacha;

*fan, ilmiy xizmat qilish, chakana savdo va boshqa noishlab chiqarish sohalarida – 10 kishigacha ishlovchisi bo'lishi shart.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2003 yil 30 avgustdagি Farmoniga asosan 2004 yilning 1 yanvaridan kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari toifasiga quyidagilar kirishi belgilandi:

- yakka tartibdagi tadbirkorlar;

- ishlab chiqarish tarmoqlarida band bo'lgan xodimlarining o'rtacha yillik soni 20 kishidan, xizmat ko'rsatish sohasi va boshqa ishlab chiqarishga aloqador bo'limgan tarmoqlarda 10 kishidan, ulgurji, chakana savdo va umumiy ovqatlanish sohasida 5 kishidan oshmagan mikrofirmalar;

Quyidagi tarmoqlarning o'rtacha yillik xodimlar soni:

- yengil va oziq-ovqat sanoati, metallga ishlov berish va asbobsozlik, yog'ochni qayta ishslash, mebel sanoati va qurilish materiallari sanoati – 200 kishidan;

- mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg'i-energetika va kimyo sanoati, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish va qayta ishslash, qurilish hamda boshqa sanoat-ishlab chiqarish sohalari – 50 kishidan;

- fan, ilmiy xizmat ko'rsatish, transport, aloqa., xizmat ko'rsatish sohasi (sug'urta kompaniyalaridan tashqari), savdo va umumiy ovqatlanish hamda boshqa ishlab chiqarishga aloqador bo'limgan sohalar – 25 kishidan.

Soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimi umumdavlat soliqlari yig'indisi, shuningdek mahalliy davlat hokimiyati organlari joriy etadigan, quyida ko'rsatilgan yig'implardan tashqari, mahalliy soliqlar va yig'implar o'rniga yagona soliqning to'lanishini nazarda tutadi:

- savdo-sotiq qilish huquqini bergenlik uchun yig'im, shu jumladan, tovarlarning alohida turlari bilan savdo-sotiq qilish huquqini bergenlik uchun litsenziya yig'implari;

- yuridik shaxslarni ro'yxatdan o'tkazganlik uchun yig'im;

Soliq solishning soddalashtirilgan tizimini qo'llovchi va nogironlarning jamoat birlashmalari, "Nuroniy" jamg'armasi va O'zbekiston Chernobilchilari uyushmasining mulki bo'lgan, ishlovchilar umumiy sonining kamida ellik foizini nogironlar, 1941-1945 yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil etgan

mikrofirmalar va kichik korxonalar yagona soliq to'lashdan ozod etiladi.

Mazkur imtiyoz savdo, vositachilik, ta'minot-sotish va tayyorlov faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalarga joriy etilmaydi. Bir necha faoliyat turlarini amalga oshiradigan yagona soliqni to'lovchilar faoliyatning har bir turi bo'yicha soliqqa tortish obyektining alohida hisobini yuritishi va muayyan faoliyat turining soliq solinadigan obyekti va unga muvofiq keladigan yagona soliq stavkasi asosida yagona soliqning hisob-kitobini amalga oshirishi kerak.

Kalendar yil soliq davridir.

Yil choragi hisobot davridir.

Yagona soliq to'lovi quyidagicha to'lanadi:

- ✓ mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan — hisob-kitobni taqdim etish muddatidan kechiktirmay;
- ✓ mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan — har oyda, keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay.

14.3. Yakka tartibdagи tadbirkorlarning daromadlarini soliqqa tortish.



Soliq davrida yakka tartibdagи tadbirkorlar soliq kodeksining 359-moddasida yuridik shaxslar uchun nazarda tutilgan tartibda soliq solinadigan daromadlarning va chegiriladigan xarajatlarning hisobini yuritishi shart.

Savdo faoliyatini amalga oshiruvchi yakka tartibdagи tadbirkorlar daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish

registrlarida soliq solinadigan daromadlarning hamda amalga oshirilgan tovar operatsiyalarining hisobini yuritishi shart.

Soliq solinadigan daromadlar va tovar operatsiyalarini quyidagicha hisobga olinadi:

1) chakana savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorning soliq solinadigan daromadlarini va tovar operatsiyalarini hisobga olish kitobi;

2) tovar cheklari kitobi.

Soliq solinadigan daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrlarining shakli O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan tasdiqlanadi.

Soliq solinadigan daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrlari yakka tartibdagi tadbirkorning arizasi asosida yakka tartibdagi tadbirkor soliq hisobida turgan joydagi soliq organlari tomonidan ro'yxatdan o'tkaziladi.

Soliq solinadigan daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrlari yakka tartibdagi tadbirkorda oxirgi yozuv kiritilgan paytdan e'tiboran 5 yil mobaynida saqlanadi hamda ularga raqamlar qo'yilgan, ip o'tkazib bog'langan va tegishli soliq organining muhri bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

Soliq solish obyekti va soliq bazasi quyidagi tartibda aniqlanadi.
(Soliq kodeksi 360-modda)

1.J ami daromad yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan tadbirkorlik faoliyati doirasida olingan daromadlardan iborat bo'ladi.

2. Jismoniy shaxs o'zining tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq bitimlarni tuzishda, agar bu bitimlarni tuzish vaziyatining o'zidan aniq kelib chiqmasa, u yakka tartibdagi tadbirkor sifatida faoliyat yuritayotganligini ko'rsatishi kerak.

Yakka tartibdagi tadbirkorning jami daromadidan soliq bazasini aniqlashda, chegirib tashlanmaydigan xarajatlardan tashqari soliq solinadigan daromadning olinishi bilan bog'liq barcha xarajatlar chegirib tashlanadi.

Amortizatsiya qilinadigan aktivlar bo'yicha amortizatsiya ajratmalari aktivdan tadbirkorlik faoliyatida foydalanilgan taqdirda va tadbirkorlik faoliyati bilan xarajatlarning aloqasi aniq asoslangan bo'lsa, jami daromaddan chegirib tashlanadi.

Yakka tartibdagi tadbirkor soliq bazasini hisoblab chiqarishning soddalashtirilgan tartibini tanlashga haqli.

Soddalashtirilgan tartibdagi soliq bazasi jami daromadning 25 foizi miqdorida belgilanadi.

Yakka tartibdagi tadbirkor soliq bazasini hisoblab chiqarishning soddalashtirilgan tartibini tanlaganda soliqni hisoblab chiqarish maqsadida xarajatlar hisobini yuritish majburiyatlaridan ozod qilinadi, Yakka tartibdagi tadbirkorlar soliq bazasini hisoblab chiqarishning soddalashtirilgan tartibini qo'llash uchun soliq hisobida turgan joydagi soliq organiga O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan shakldagi bildirishnomani quyidagi muddatlarda taqdim etadi:

1) yangidan ro'yxatdan o'tkazilganlar — tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish boshlanguniga qadar;

2) foya solig'ini to'lashga o'tganlar, shu jumladan ixtiyoriy ravishda o'tganlar — bir vaqtning o'zida foya solig'ini to'lashga o'tish to'g'risidagi bildirishnomani soliq hisobida turgan joydagi soliq organiga yuborganda;

3) qolganlari — joriy yilning 25 yanvaridan kechiktirmay.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan soliq bazasini hisoblab chiqarishning soddalashtirilgan tartibini qo'llash quyidagi muddatlarda boshlanadi:

1) tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish boshlangan paytdan;

2) yakka tartibdagi tadbirkor foya solig'ini to'lashga o'tish to'g'risidagi bildirishnomani va soliq bazasini soddalashtirilgan tartibda hisoblab chiqarish haqidagi arizani soliq organiga taqdim etgan oydan keyingi oyning birinchi sanasidan boshlab;

3) joriy yilning 1 yanvaridan boshlab.

Soliq bazasini hisoblab chiqarishning soddalashtirilgan tartibidan ixtiyoriy ravishda voz kechish va soliq bazasini hisoblab chiqarishning nazarda tutilgan umumiy tartibiga o'tish kelgusi soliq davri boshlanganidan e'tiboran amalga oshiriladi.

Soliq bazasini hisoblab chiqarishning umumiy tartibiga o'tish to'g'risidagi bildirishnoma O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan shaklda soliq davri boshlanishidan kamida bir oy oldin soliq hisobida turgan joydagi soliq organiga taqdim etiladi.

Soliq solishda quyidagilar hisobga olinmaydi:

1) yakka tartibdagi tadbirkorning unga mulk huquqi asosida, shuningdek mol-mulkka egalik qilish va (yoki) undan foydalanishga yo'l qo'yuvchi boshqa ashyoviy huquq tufayli tegishli bo'lgan ko'chmas mulkni sotishdan olingan daromadlar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i solinishi lozim bo'lgan daromadlari;

2) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hamda yakka tartibdagi tadbirkor foya solig'ini to'lashga o'tguniga qadar aylanmadan soliqni to'lash davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar.

Hisobot (soliq) davri yakunlari bo'yicha soliq summasi yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan mustaqil ravishda aniqlanadi. (Soliq kodeksi 362-modda)

Hisobot davri yakunlari bo'yicha soliq summasi, agar ushbu moddada boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, soliq bazasining soliq stavkasiga muvofiq bo'lgan foizli ulushi sifatida soliq davri boshlanishidan e'tiboran oshib boruvchi yakun tarzida hisoblab chiqariladi.

Soliq hisoboti yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan har bir hisobot va soliq davri o'tganidan keyin, soliq solinadigan obyektlar mavjudligi yoki mavjud emasligidan qat'iy nazar, soliq hisobida turgan joydagi soliq organiga taqdim etiladi.

Soliq hisoboti yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan quyidagi muddatlarda taqdim etiladi:

hisobot davri yakunlari bo'yicha — hisobot choragidan keyingi oyning yigirmanchi kunidan kechiktirmay;

soliq davri yakunlari bo'yicha — o'tgan soliq davridan keyingi yilning 1 martidan kechiktirmay.

Qisqacha xulosalar.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentning 2005 yil 20 iyunda «Mikrofirmalar va kichik korxonalarни rivojlantirishni yanada rag'batlantirish borasidagi chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmoni qabul qilindi.

Farmonda ko'rsatilishicha 2005 yilning 1 iyulidan boshlab mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun: "yagona soliq", byudjetdan tashqari Pensiya, Respublika yo'l va jamg'armalari, hamda Maktab ta'limi jamg'armasiga majburiy ajratmalar to'lash o'rniga "yagona soliq to'lovi" joriy etilishi ko'zda tutilgan, ya'ni, "yagona soliq" tizimiga o'tgan kichik biznes subyektlari uchun qulayliklar yaratilishi ko'zda tutilgan.

Kichik biznes subyektlariga imtiyoz sifatida soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimi - yagona soliq yoki "yagona soliq to'lovi" tizimiga o'tish imkoniyati berilgan. Bunda davlat va mahalliy soliq turi yig'indisi o'rniga faqat bitta-yagona soliq yoki "yagona soliq to'lovi" to'lash ko'zda tutilgan. Kichik biznes subyektining o'ziga xos xususiyatiga qarab – yalpi tushum, yoki yalpi daromad – soliq obyekti bo'ladi.

Soddalashtirilgan soliq tizimiga o'tish yoki o'tmaslik ixtiyoriydir. Bu tizimda hisob-kitoblar tizimiga ixcham va soni kamaytirilgan (o'n ikkitadan bittagacha), hamda yiliga o'n ikki martadan to'rt martagacha kamaytirilgan, hamda sodda hisob shakli qo'llaniladi.

2005 yil 1 iyuldan «yagona soliq to'lovi»ga o'tib ishlashlariga ruxsat berildi. Bu soliq yanada ixchamlashgan, arzonlashgan va osonlashgan. Bu usulda to'lab kelingan "yagona soliq", byudjetdan tashqari pensiya fondi, Respublika yo'l va maktab ta'limi jamg'armasiga majburiy ajratmalar to'lash o'rniga faqat. Yagona

soliq to'lovini to'lovchilari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlariga muvofiq javobgar bo'ladilar. Yagona soliq summasi mahalliy byudjetga o'tkaziladi.

Soliq solinadigan daromadlarni va chegiriladigan xarajatlarni hisobga olishning o'ziga xos xususiyatlari yangi Soliq Kodeksining 51-bobida hisobga olingan. Yakka tartibdagi tadbirkorlar mana shume'yoriy hujjat bo'yicha faoliyat olib boradilar.

Nazorat savollari:

1. Soddalashtirilgan soliq tizimiga o'tishning ahamiyatlari qanday?
2. Qanday korxonalar yagona soliq to'lovchilari bo'la oladi?
3. Yagona soliqni hisoblash uchun qanday ko'rsatkichlar kerak?
4. Yakka tartibdagi tadbirkorlar Soliq Kodeksini nechinchi muddasida ko'rsatilgan?
5. Soliq solish obyekti va soliq bazasi qanday aniqlanadi?

Mavzuga doir topshiriqlar

Topshiriq 14.1. “Akfa” qurilish tashkiloti hisobot davrida bajargan va buyurtmachi tomonidan qabul qilib olingan ishlarning qiymati 120 milliard so'mni tashkil etdi. Bajarilgan ishlarning tannarxi 100 milliard so'm. Bu summa o'z ichiga burtmachi tomonidan ta'minlangan (sotib olinmagan) 140 mln so'mlik materiallar qiymatini ham o'z ichiga olgan. Hisobot davri uchun yagona soliq to'lovi summasini hisoblang.

Topshiriq 14.2. “SHAMS” vositachilik korxonasi ishlab chiqaruvchining mahsulotlarini sotib berish bilan shug'ullanadi. Uning xizmat haqi sotishdan 5 foizni tashkil etadi. Bir oy davomida u ishlab chiqaruvchining 460 mln so'mlik mahsulotini sotdi. Sotilgan mahsulotlarning ishlab chiqaruvchi korxonada shakllangan tannarxi 390 mln so'm. Bir oy uchun yagona soliq to'lovi summasini hisoblang.

Testlar

1. O'zbekiston Respublikasining rezidenti bo'lgan yuridik shaxslar qanday manbalaridan soliq to'laydilar?

A) O'zbekiston Respublikasi va undan tashqaridagi faoliyatlar manbalaridan

B) O'zbekiston Respublikasidagi manbalaridan

C) O'zbekiston Respublikasidan tashqaridagi faoliyatlar manbalaridan

D) Soliq to'lovchining xohishiga ko'ra tanlab olinadi.

2. Yer solig'ini to'lovchilar bo'lib kimlar hisoblanadi?

A) O'z mulkida yer uchastkalariga ega bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar

B) egaligida yer uchastkalariga ega bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar

C) Foydalanishida yer uchastkalariga ega bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar

D) O'z mulkida, egaligida va foydalanishida yer uchastkalariga ega bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar

3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida soliq tizimiga tegishli moddalarni ko'rsating.

A) 10, 51 B) 51, 123 C) 14, 111, 4 D) 100, 120, 2

4. Korxonaning soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimiga o'tishi haqidagi qarori yoki dalillangan raddiya davlat soliq xizmati organi tomonidan necha kun davomida chiqariladi?

A) Ariza bergen kundan boshlab 5 kun mobaynida

B) Ariza bergen kundan boshlab 10 kun mobaynida

C) Ariza bergen kundan boshlab 1 oy mobaynida

D) Ariza bergen kundan boshlab 2 oy mobaynida

5. "Yagona soliq to'lovi"ni joriy etish nechanchi yildan kuchga kirgan?

A) 2005 B) 2015

C) 2020 D) 2000

XV BOB. IJTIMOY JAMG'ARMALARGA MAJBURIY TO'LOVLAR

Reja:



15.1. Ijtimoiy soliq (Yagona ijtimoiy to'lov). Ijtimoiy soliqni to'lovchilari, obyekti, bazasi va stavkalari.

15.2. Ijtimoiy soliqni hisoblab chiqarish va soliqni to'lash tartibi.

Tayanch so'z va iboralar: Ijtimoiy soliq. Mehnatga haq to'lash, soliq stavkasi, daromad, soliq subyekti, soliq to'lovchilar, soliq imtiyozlari.

15.1. Ijtimoiy soliq (Yagona ijtimoiy to'lov). Ijtimoiy soliqni to'lovchilari, obyekti, bazasi va stavkalari

Yagona ijtimoiy to'lov yangi qabul qilingan Soliq Kodeksining 14-bo'limida Ijtimoiy soliq deb o'zgartirilgan va 58-bob 402-modda bilan tartibga solinadi.

Ijtimoiy soliqni soliq to'lovchilari (bundan buyon ushbu bo'limda soliq to'lovchilar deb yuritiladi) deb quyidagilar e'tirof etiladi:

- O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari;
- O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi norezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar, chet el yuridik shaxslarining vakolatxonalarini va filiallari;

Ish beruvchining xodimlar mehnatiga haq to'lashga doir xarajatlari ijtimoiy soliqning soliq solish obyektidir.

O'zbekiston Respublikasi hududida ishslash uchun chet ellik xodimlar bilan ta'minlash yuzasidan xizmatlar ko'rsatishga doir shartnomalar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi norezidenti bo'lgan yuridik shaxsga to'lanadigan chet ellik xodimlarning daromadlari ham soliq solish obyektidir. Jismoniy shaxslarning ayrim toifalari uchun ular tomonidan tadbirkorlik faoliyatini va (yoki) yakka tartibdagi mehnat faoliyatini amalga oshirish soliq solish obyektidir.

Quyidagilar soliq solish obyekti hisoblanmaydi:

- ish beruvchining xodimga mehnatda mayib bo'lganligi yoki sog'ligiga boshqacha shikast etganligi bilan bog'liq zararning o'rmini qoplash tarzidagi xarajatlari;
- paxta yig'im-terimi bo'yicha mavsumiy qishloq xo'jaligi ishlariga jalb qilingan jismoniy shaxslarning bu ishlarni bajarganligi uchun mehnat haqi to'lashga doir xarajatlar.

Soliqni hisoblab chiqarish uchun soliq bazasi ushbu Kodeksning 371-moddasiga muvofiq to'lanadigan xarajatlar summasi sifatida aniqlanadi.

O'zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari xodimlari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan xalqaro hukumatlararo tashkilotlarga kvota qilingan lavozimlarga xizmat safariga yuborilgan shaxslar uchun soliqni hisoblab chiqarish maqsadida soliq bazasi ularning O'zbekiston Respublikasida byudjet tashkilotlari xodimlari uchun ish haqi miqdorining oshishi inobatga olingan holda qayta hisoblab chiqariladigan, ular O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga ishga yuborilguniga qadar oxirgi ish joyida mehnatga haq to'lash tarzida olgan daromadlaridan kelib chiqib aniqlanadi.

Ushbu Kodeks 403-moddasining ikkinchi qismida ko'rsatilgan daromadlar bo'yicha soliqni hisoblab chiqarish uchun soliq bazasi chet ellik xodimlarga to'lanadigan daromadlar summasi sifatida, biroq O'zbekiston Respublikasi hududida ishslash uchun chet ellik xodimlar bilan ta'minlash yuzasidan xizmatlar ko'rsatishga doir shartnoma bo'yicha xarajatlar umumiy summasining 90 foizidan kam bo'lмаган summada belgilanadi. Soliq stavkalari quyidagi miqdorlarda belgilanadi.

15.1.1-Jadval

Ijtimoiy soliqni stavkalari

t/r	Soliq to'lovchilar	Soliq stavkalari, foizlarda
	Soliq to'lovchilar, bundan 2 — 4-bandlarda nazarda tutilganlar mustasno	12
	Byudjet tashkilotlari	25
	«SOS — O'zbekiston Bolalar mahallalari»	7

	uyushmalari	
	Ixtisoslashtirilgan sexlar, uchastkalar va korxonalarda ishlovchi nogironligi bo'lgan shaxslar mehnatidan foydalanuvchi soliq to'lovchilar	4,7

Soliq to'lovchilarning ayrim toifalari uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan pasaytirilgan soliq stavkalari belgilanishi mumkin.

Kalendar yil soliq davridir.

Yil oyi hisobot davridir.

15.2. Ijtimoiy soliqni hisoblab chiqarish va soliqni to'lash tartibi

Ijtimoiy soliq, soliq bazasidan va belgilangan soliq stavkalaridan kelib chiqqan holda har oyda hisoblab chiqariladi. (Soliq kodeksi 407-modda)

Soliq ish beruvchining va ayrim toifadagi jismoniy shaxslarning mablag'lari hisobidan to'lanadi.

O'zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari xodimlari bo'yicha, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan xalqaro hukumatlararo tashkilotlarga kvota qilingan lavozimlarga xizmat safariga yuborilgan shaxslar bo'yicha soliqni to'lash majburiyati O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining zimmasiga yuklatiladi.

Soliq hisoboti soliq hisobida turilgan joydagи soliq organlariga soliq to'lovchi tomonidan ortib boruvchi yakun bilan har oyda hisobot davridan keyingi oyning 15 kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi. O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar tomonidan yil yakunlari bo'yicha soliqning hisoboti hisobot yilidan keyingi yilning 25 martiga qadar taqdim etiladi.

Soliqni to'lash har oyda, soliq hisobotini taqdim etish muddatlaridan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Ayrim toifadagi jismoniy shaxslar tomonidan soliqni hisoblab chiqarish va to'lash Soliq Kodeksining 408-modda bilan tartibga solinadi.

Soliq soliq to'lovchining kalendar oyda ishlagan kunlari sonidan qat'iy nazar:

1) yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan — oyiga bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan kam bo'limgan miqdorda;

2) yakka tartibdagi tadbirkor bilan mehnat munosabatlarida bo'lgan jismoniy shaxslar tomonidan oyiga bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi miqdorida;

3) faoliyatni yuridik shaxs tashkil etmagan holda, oilaviy tadbirkorlik shaklida amalga oshiruvchi oila a'zolari tomonidan:

yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tgan oila a'zosi tomonidan — oyiga bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan kam bo'limgan miqdorda;

oilaning boshqa a'zolari tomonidan (bundan o'n sakkiz yoshga to'limganlar mustasno) — oyiga bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi miqdorida;

4) «Hunarmand» uyushmasining hunarmandchilik faoliyati subyektlari bo'lgan, qishloq tumanlarida ro'yxatdan o'tgan va faoliyatini amalga oshirayotgan a'zolari tomonidan o'z faoliyatining dastlabki ikki yilida — oyiga bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi miqdorida;

5) «Usta-shogird» maktablari o'quvchilari tomonidan ular yigirma besh yoshga to'lguniga qadar ishlagan davrida — yiliga bazaviy hisoblash miqdorining 2,5 baravaridan kam bo'limgan miqdorda majburiy tartibda to'lanadi. Belgilangan miqdordagi soliqning to'lanishi mehnat stajini hisoblab chiqarishda bir yil deb hisobga olinadi.

Yuridik shaxs tashkil etgan holda va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklarining a'zolari, shuningdek maydoni to'rt sotixdan kam bo'limgan dehqon xo'jaligida, tomorqa yer uchastkasida band bo'lgan yoki ushbu maydonda qoramol yoxud ellik

boshdan kam bo'limgan xonaki parranda parvarishlayotgan jismoniy shaxslar yiliga bazaviy hisoblash miqdorining kamida bir baravari miqdorida soliq to'laydi. Bunda dehqon xo'jaligi rahbari soliqni majburiy tartibda to'laydi, boshqa a'zolari va ko'rsatilgan jismoniy shaxslar esa ixtiyoriy asosda to'laydi. Belgilangan miqdordagi soliqning to'lanishi dehqon xo'jaligi a'zosining va jismoniy shaxsning mehnat stajini hisoblab chiqarishda bir yil deb hisobga olinadi.

Yoshga doir pensiya va nafaqa oluvchi hunarmandchilik faoliyati subyektlari bo'lgan «Hunarmand» uyushmasining a'zolari soliq to'lashdan ozod etiladi, ushbu moddaning birinchi va ikkinchi qismlarida ko'rsatilgan, yoshga doir pensiya olish huquqiga ega bo'lgan qolgan shaxslar, shuningdek I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar uchun esa soliq miqdori uning belgilangan eng kam miqdorining kamida 50 foizini tashkil etishi kerak. Mazkur imtiyozlar pensiya guvohnomasi yoki tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma'lumotnomasi asosida beriladi. Imtiyozlarga bo'lgan huquq kalendar yil davomida vujudga kelgan yoki tugatilgan taqdirda, soliqni qayta hisob-kitob qilish ushbu huquq yuzaga kelgan yoki tugatilgan oydan e'tiboran amalga oshiriladi.

Soliqni to'lash quyidagicha amalga oshiriladi:

- har oyda, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirilgan oyning o'n beshinchi kunidan kechiktirmay;
- yuridik shaxs tashkil etgan holda va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklarining a'zolari tomonidan — hisobot yilining 1 oktyabrigacha amalga oshiriladi. Bunda soliqning miqdori to'lov kuniga belgilangan bazaviy hisoblash miqdoridan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Yangi ro'yxatdan o'tgan yakka tartibdagi tadbirkorlar va yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlik shaklidagi faoliyatni amalga oshiruvchi oila a'zolari tomonidan soliqni to'lash ular yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan oydan keyingi oydan e'tiboran amalga oshiriladi.

Soliqni to'lash majburiyati:

- yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlik shaklidagi faoliyatni amalga oshirayotgan oila a'zolari uchun — oilaviy tadbirkorlik subyekti nomidan ish yuritadigan, yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tgan oila a'zosining;
- yakka tartibdagi tadbirkorning xodimlari uchun — ushbu xodimlar bilan mehnat shartnomasini tuzgan yakka tartibdagi tadbirkorning zimmasiga yuklatiladi.

To'lov topshiriqnomasida (kirim orderida) soliq to'lovchining familiyasi, ismi, otasining ismi, identifikatsiya raqami va to'lov kiritilayotgan davr ko'rsatilishi shart. Bunda oila a'zolari — oilaviy tadbirkorlik ishtirokchilari va xodim yollagan yakka tartibdagi tadbirkorlar bo'yicha to'lov topshiriqnomasi (kirim orderi) har bir oila a'zosi uchun va yakka tartibdagi tadbirkorning har bir yollangan xodimi uchun alohida-alohida yoziladi. Agar to'lov topshiriqnomasida (kirim orderida) davr ko'rsatilmagan bo'lsa, to'lov u amalga oshirilayotgan oy (dehqon xo'jaliklari a'zolari uchun — yil) uchun to'langan deb hisoblanadi.

Yakka tartibdagi tadbirkorning faoliyati vaqtinchalik to'xtatib turilganligi to'g'risida soliq organlari tomonidan olingan axborot yakka tartibdagi tadbirkor o'z faoliyatini amalga oshirmaydigan davr uchun soliqni hisoblashni to'xtatib turish uchun asos bo'ladi.

Soliq organlari tomonidan olingan, har bir yollangan xodim uchun belgilangan tartibda berilgan hisobga olish kartochkalari yakka tartibdagi tadbirkor o'z faoliyatini amalga oshirmaydigan davr uchun yakka tartibdagi tadbirkorning har bir xodimiga soliqni hisoblashni to'xtatib turish uchun asos bo'ladi.

Agar faoliyatini to'xtatib turgan yakka tartibdagi tadbirkor yakka tartibdagi tadbirkorning har bir xodimi uchun hisobga olish kartochkasini soliq organiga belgilangan muddatlarda topshirmsa, yakka tartibdagi tadbirkorning majburiyatlari bo'yicha soliqni hisoblash to'xtatilmaydi.

Soliq Kodeksning 405-moddasida ko'rsatilgan soliq stavkalari bo'yicha jami yillik daromad to'g'risida deklaratsiyada ko'rsatilgan

mehnatga haq to'lash tarzida olingen daromadlar summasidan kelib chiqib to'lashga, biroq ushbu moddada belgilangan, uning eng kam miqdoridan kam bo'limgan, soliqni ixtiyoriy ravishda to'lash haqida jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiyani taqdim etish bilan bir vaqtda beriladigan ariza asosida to'lashga haqli.

Qonun hujjatlariga muvofiq soliqni hisoblab chiqarish va ushlab qolish majburiyati zimmasiga yuklatilmagan ish beruvchidan daromadlar oluvchi jismoniy shaxslar soliqni jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiyada ko'rsatilgan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar summasidan kelib chiqqan holda, soliqni ixtiyoriy ravishda to'lash haqida jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiyani taqdim etish bilan bir vaqtda beriladigan ariza asosida ixtiyoriy asosda to'laydi.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan shaxslar tomonidan soliqni to'lash jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiya ma'lumotlari bo'yicha soliq organlari tomonidan hisoblab chiqariladigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini to'lash muddatlarida amalgalashiriladi.

Qisqacha xulosalar

Ijtimoiy soliq yangi qabul qilingan Soliq Kodeksining 14- bo'lim 58-bob 402-modda bilan tartibga solinadi. Yuridik shaxslar va O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalgalashiruvchi O'zbekiston Respublikasi norezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar, chet el yuridik shaxslarining vakolatxonalari va filiallari rezidentlari ijtimoiy soliqni to'lovchilaridir.

Ijtimoiy soliqni obyekti bo'lib mehnat haqqi tarzidagi daromadlar hisoblanadi:

- mehnatga haq to'lashning qabul qilingan shakllari va tizimlariga muvofiq ishboy narxlar, ta'rif stavkalari va mansab maoshlaridan kelib chiqqan holda haqiqatda bajarilgan ish uchun hisoblangan ish haqi;
- rag'batlantiruvchi xususiyatiga ega to'lovlar;
- kompensasiya to'lovleri ;

-ishlanmagan vaqt uchun haq to'lash.

Ijtimoiy soliqning bazasi Soliq Kodeksining 371 va 403 moddalari asosida mehnat haqi tarzidagi daromadlar summasi sifatida belgilanadi.

Ijtimoiy soliq har oyda soliq solinadigan bazadan hamda belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqiladi hamda soliq organlariga soliq to'lovchi tomonidan ortib boruvchi yakun bilan har oyda hisobot davridan keyingi oyning 15 kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

Mavzuga doir topshiriqlar

Topshiriq 15.1. “Ozodbek” yigiruv korxonasining xodimiga mart oyida 2 100 000 so'm oylik ish haqi, 800 000 so'm moddiy yordam va yubiley munosabati bilan 500 000 so'm mukofat puli berildi.

Mart oyi uchun “Ozodbek” yigiruv korxonasining xodimiga ijtimoiy soliq summasini hisoblang.

Topshiriq 15.2. “Jahongir” to'quv korxonasida 2020 yil may oyi uchun (operatorning) ishchi va xizmatchilarining mehnatga haq to'lash fondidan Pensiya jamg'armasiga ajratiladigan yagona ijtimoiy to'lov (Ijtimoiy soliq) summasini aniqlang:

-ish haqi hisoblangan- 1 700 000 so'm

-og'ir va zararli sharoitda ishlayotganligi uchun mukofot – 40 % - 680 000 so'm

Testlar.

1. Yagona ijtimoiy to'lov yangi qabul qilingan Soliq Kodeksining 14- bo'limida..... deb o'zgartirilgan.

- A) Ijtimoiy soliq
- B) Yagona ijtimoiy to'lov
- S) Yagona yer solig'i
- D) Qat'iy belgilangan soliq

2. Ijtimoiy soliq yangi qabul qilingan Soliq Kodeksining nechinchi moddasi bilan tartibga solinadi ?

- A) 102-modda
- B) 202-modda
- S) 302-modda
- D) 402-modda

3. Byudjet tashkilotlarida ijtimoiy soliq stavkalarini miqdori qancha?

- A) 25%
- B) 15%
- C) 12%
- D) 10%

4. Ijtimoiy soliqni to'lash muddatini ko'rsating?

- A) har oyda
- B) har chorakda
- C) yarim yilda
- D) yilda bir marta

5. Ijtimoiy soliqni to'lashdan ozod etiluvchilarni ko'rsating?

- A) Yoshga doir pensiya va nafaqa oluvchi hunarmandchilik faoliyati subyektlari bo'lgan «Hunarmand» uyushmasining a'zolari
- B) I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar
- C) yakka tartibdagi tadbirkorlar
- D) Yuridik shaxs tashkil etgan holda va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklarining a'zolari

GLOSSARY.

Atamaning o'zbek tilidagi nomlanishi	Atamaning ingliz tilidagi nomlanishi	Atamaning rus tilidagi nomlanishi	Atamaning ma'nosi
Aylanma kassa mablag'i me'yori	Measure of circle cashbox money	Норма оборота кассовых денежных фондов	-moliya yilida Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar hisobvaraqlarida turishi mumkin bo'lgan pul mablag'larining qonun hujjatlari bilan belgilanadigan eng kam miqdori
Amortizatsiya	Amortization	Амортизация	-eskirishning baholangan xizmat muddati davomida aktivning amortizatsiya qilinadigan qiymatini muntazam taqsimlash va qayta o'tkazish tarzida qiymat bilan ifodalanishidir.
Asosiy vositalar	Main resources	Основные средства	-uzoq davom etadigan vaqt mobaynida (bir yildan ko'proq vaqt davomida) moddiy ishlab chiqarish sohasida ham, noishlab chiqarish sohasida ham amal qiladigan, shuningdek ijaraga berish uchun foydalaniladigan moddiy aktivlardir.
Byudjet dotatsiyasi	Budget grant	Дотация бюджета	-o'z daromadlari va byudjetni tartibga soluvchi boshqa mablag'lar yetishmagan taqdirda quyi byudjetning xarajatlari bilan daromadlari o'rtasidagi farqni qoplash uchun yuqori byudjetdan quyi byudjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag'lari.
Byudjet profitsiti	Budget surplus	Профит бюджета	-muayyan davrda byudjet daromadlarining byudjet xarajatlaridan ortiq bo'lgan summasi
Byudjet	Budget loan	Ссуда	- yuqori byudjetdan quyi

ssudasi		бюджета	byudjetga yoxud respublika byudjetidan rezident-yuridik shaxsga yoki chet el davlatiga qaytarish sharti bilan ajratiladigan mablag'
Byudjet subvensiyasi	Budget subvention	Субвенция бюджета	-qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda muayyan maqsadlarga sarflash sharti bilan yuqori byudjetdan quyi byudjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag'lari.
Byudjet taqchilligi	Budget deficiency	Дефицит бюджета	-muayyan davrda byudjet xarajatlarining byudjet daromadlaridan ortiq bo'lgan summasi
Byudjetdan tashqari fondlar	Funds out of budget	Внебюджетные фонды	-umumdavlat moliyasining muhim bo'g'ini bo'lib, ularning faoliyati qat'iy belgilangan, manbalarni tashkil etish yo'llari ko'rsatilgan, pul foddari bilan foydalanish yo'llarining tartibi aniqlab berilgan, davlat hukumatining yuqori organlarini tegishli aktlari asosida o'z faoliyatini amalga oshiradilar.
Byudjetlararo munosabatlar	Relation between budgets	Межбюджетные отношения	-O'zbekiston Respublikasi respublika byudjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri byudjeti, shuningdek tumanlarning mahalliy byudjetlarini o'rtasida byudjet jarayonida sodir bo'ladigan munosabatlar majmuidir.
Davlatning maqsadli jamg'armalari	Targeted funds of government	Целевые сбережения государства	-Davlat byudjeti tarkibida jamlantiriladigan jamg'armalar bo'lib, ularning har biri uchun mablag'lar manbalari, har bir manbadan mablag' tushishi normalari va shartlari, shuningdek shu mablag'lardan

			foydalaniishi mumkin bo'lgan maqsadlar qonun hujjatlari bilan belgilanadi
Daromadlar	Income	Прибыль	- bu hisobot davrida iqtisodiy foydani aktivlar oqimi yoki ko'payishi shaklida o'sishi yoki passivlarni qatnashchilarning kapitaldagi omonatlaridan farq qiluvchi o'sishiga olib keluvchi kamayishidir.
Investitsion soliq krediti	Investment tax credit	Кредит инвестиционного налога	- investorga soliq majburiyati bo'yicha soliq qonunchiligiga muvofiq soliq to'lash muddatini o'zgartirish imkoniyati.
Korxona va tashkilotlar moliyasi	Finance of enterprises and organization	Финансы предприятий и организаций	- xo'jalik yurituvchi subyekt va davlat pul resurslari fondini tashkil qilish va ulardan takror ishlab chiqarish, rag'batlantirish va jamiyatning itimoiy ehtiyojlarini qondirish maqsadlarida foydalanishdagi pul munosabatlarining yig'indisidir
Korxonalarga preferensiya berish	Giving preferences to enterprises	Отдача преференций предприятиям	- milliy iqtisodiyotda faoliyat ko'rsatuvchi korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida ular tomonidan ishlab chiqarishga chet eldan olib kiradigan xom-ashyo va materiallar, yarim tayyor mahsulotlar, shuningdek asbob-uskunalarini olib kirishda boj to'lovleri va boshqa jarayonlar bo'yicha yengilliliklar (imtiyozlar) berilishi.
Qo'shilgan qiymat solig'ini qaytarish	Return of value added tax	Возврат налога на дополнительную стоимость	- soliq to'lovchilar faoliyatini rag'batlantirish maqsadida qo'shilgan qiymat solig'i summasi doirasidagi pul mablag'larini xo'jalik yurituvchi subyektning bankdagi hisobvarag'iga o'tkazish yo'li bilan soliq

			summasini qaytarish muddatini uzaytirish.
Mahalliy byudjet	Local budget	Местный бюджет	- Davlat byudjetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag'lari jamg'armasini tashkil etuvchi bir qismi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.
Moliya	Finance	Финансы	- davlatning o'z funksiya va vazifalarini bajarishi hamda kengaytirilgan takror ishlab chiqarish shartlarini ta'minlash maqsadida markazlashgan va markazlashmagan pul fondlarining shakllantirilishi, taqsimlanilishi va foydalanilishi bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar majmuidir.
Moliyaviy resurslar	Financial resources	Финансовые ресурсы	- bu YAIM va milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash natijasida xo'jalik yurituvchi subyektlar va davlatning qo'lidagi vaqtinchcha bo'sh pul mablag'lari yig'indisidir
Moliyaviy nazorat	Financial control	Финансовый контроль	- moliyani boshqarish tizimining elementi sifatida ma'lum sohalar bo'yicha nazorat qilish vazifasi yuklatilgan, davlat va boshqa mustaqil jamoat tashkilotlari tomonidan barcha iqtisodiy subyektlarning moliyaviy faoliyati ustidan moliyaviy-xo'jalik qonunchiligiga rioya qilishlari, amalga oshirilgan xarajatlarning maqsadga muvofiqligi, moliyaviy-xo'jalik faoliyatining iqtisodiy

			samaradorligini tekshirish va kuzatish bo'yicha qiymat nazoratining alohida turidir.
Moliya siyosati	Financial policy	Финансовая политика	- bu moliyaviy resurslarni jamlash, ularni davlatning o'z funksiya va vazifalarini amalgaloshirish uchun taqsimlash va ishlatalish shakl hamda usullarida tizimli namoyon bo'lувчи tadbirlar yig'indisidir.
Moliya tizimi	Financial system	Финансовая система	- moliyaviy munosabatlarning turli sohalarini o'z ichiga olib, har qaysi sohalar pul mablag'lari fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish xususiyatlari bilan tavsiflanadi.
Moliyaviy zaxiralar	Financial supplies	Финансовые запасы	- davlat va xo'jalik subyektlari qo'lidagi pul resurslarining bir qismi bo'lib, o'z egasining aylanma mablag'lari oborotida vaqtinchalik qatnashmaydigan pul resurslaridir.
Nolli stavka	Rate of zero percent	Нулевая ставка	- Chet el mamlakatlari amaliyotidan foydalanib, bizda ham QQS eksportga tovar ortganda va chetdan tovarlar keltirishda (qurilish materiallariga) nolli stavkani 1998 yildan qo'llanilmoqda. QQS bo'yicha nolli stavka eksportga tovarlar (ishlar, xizmatlar) ko'rsatilganda, qishloq xo'jaligi uchun mineral o'g'itlar va yoqilg'i-moylash mahsulotlari sotilganda hamda elchixonalar va vakolatxonalarga tovarlar ortilganda qo'llaniladi. Qizig'i shundaki, ilgari ham shu mahsulotlarga QQS solinmas edi. Biroq, shu mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun ketgan

			hom-ashyo, yoqilg'i, elektr quvvati uchun mahsulot yetkazuvchilarga to'langan QQS hisobga olinmas edi. Nolli stavkada esa mahsulot yetkazuvchilarga to'langan QQS summasi hisobga olinmaydi.
Progressiv soliq	Progressive tax	Прогрессирующий налог	— stavkasida esa daromad, obyekt ko'payib borishi bilan soliq stavkasi ham yonma-yon o'sib boradi. Bu bizning soliq qonunchiligidizda faqat fuqarolarning daromad solig'ida qo'llaniladi salmoqli daromad tushishini qo'zda tutadi.
Proporsional	Proportional	Пропорциональный	— soliq stavkasida obyekt qanday bo'lishidan qat'iy nazar, bir xil ulushdagi (proporsiyada) soliq to'lanadi.
Regressiv	Regressive	Регрессивный	- soliq stavkasida daromad yoki obyekt oshib borishi bilan soliq stavkasi kamayib borib, mahsulot ishlab chiqarish rag'batlantiriladi. Masalan, yuridik shaxslarining foyda solig'ida, mol-mulk solig'ida eksportga tovar ishlab chiqarib, EAVda sotgan yuridik shaxslar umumiy ishlab chiqargan muhsulotlarga nisbatan eksport hissasiga qarab kamaytirilgan soliq
Respublika byudjeti	Budget of republic	Бюджет республики	-Davlat byudjetining umum davlat tusidagi tadbirlarni moliyalashtirishda foydalilaniladigan qismi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ular dan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori

			nazarda tutiladi.
Soliq imtiyozi	Tax deduction	Льготы на налоги	–soliq to'lovchilarning ayrim toifalariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda soliq to'lashdan to'liq, qisman va vaqtincha ozod qilish shakli
Soliq krediti	Tax credits	Налоговые кредиты	– byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasini ma'lum muddatga kamaytirish, kechiktirish, bo'lib-bo'lib to'lash yoki soliqni qaytarish shakli.
Soliq qarzini to'lashni kechiktirish	Delay of debt taxes	Задержка оплаты налоговых долгов	–soliq summasini bo'lib-bo'lib to'lash vaqtinchalik moliyaviy qiyinchilikka ega bo'lgan korxonalarga davlat tomonidan yordam ko'rsatish maqsadida to'lash muddatini soliq to'lovchi qarz summasini bir yo'la yoki bosqichma-bosqich to'lagan holda keyinroq muddatga ko'chirishdan iboratdir.
Soliq manbai	Source of taxes	Источник налогов	–bu subyektning daromadidir. Ba'zi soliqlarda daromad va foyda ham soliq obyekti, ham soliq manbai bo'ladi. Lekin boshqa soliqlarda obyektlar har xil, manba esa – daromad bo'ladi. Soliqlarning shunday qonuni borki, ular hech qachon manba miqdoridan (obyektdan) ortib kelmasligi lozim.
Soliq ob'ekti	Object of tax	Объект налога	–soliq solinadigan daromad, xarajat, oborot yoki mulklar qiymatidir. Uning foyda, ish haqi, qo'shilgan qiymat, yer, imorat, jami xarajat kabi turlari mavjud. Masalan, QQSda obyekt ortilgan mahsulot (bajarilgan ish va xizmatlar) oborotidir, daromad solig'ida – daromad (foyda), mol-mulk

			soliq'ida-mulk qiymati, er soliq'ida er maydoni va boshqalardir.
Soliq og'irligi	Weight of tax	Вес налога	–soliq to'lovchining hamma soliqlar va to'lovlarni davlat fondlariga to'lashdir. Mamlakat miqyosida soliq og'irligi hamma to'langan soliq va to'lovlarning YAIMdagi salmog'i sifatida ifodalanadi.
Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi	System of fiscal simplification	Система упрощенных налогообложения	–kichik biznes subyektlarini rag'batlantirish maqsadida qo'llaniladigan soliqqa tortish tartibi.
Soliq stavkalarining turlari	Types of tax rates	Виды налоговых ставок	- O'zbekiston soliq qonunchiligidagi soliq stavkalarning asosan uch turi amal qiladi: proporsional, progressiv va nolli stavkalar. 2002 yildan boshlab yuridik shaxslarning foyda solig'i va mol-mulk solig'i bo'yicha asosiy stavkaga qo'shimcha regressiv stavka (imtiyoz tariqasida) qo'llanila boshlandi.
Soliq stavkasi	Tax rate	Налоговая ставка	– obyektning har birligi uchun davlat tomonidan belgilab qo'yilgan me'yordir, ya'ni davlatning soliq obyektidagi ulushi, hissasidir. Soliq stavkasi ikki usulda belgilanadi: qat'iy stavkalarda (so'mlarda) va nisbiy stavkalarda – foizlarda ifodalanadi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish va inflyatsiya sharoitida nisbiy stavkalarni qo'llash maqsadga muvofiqdir. Bunday holda byudjet inflyatsiyadan ko'p mablag' yo'qotmaydi. Agar stavka so'mlarda hisobga olinsa, soliqlardan tushgan byudjet daromadi yil oxiriga

			borib, hech qanday iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lmaydi.
Soliq stavkasi	Tax rate	Налоговая ставка	– soliqlarni hisoblashda soliq bazasining har bir birligi hisobiga to'g'ri keladigan soliq me'yorini ifodalaydi
Soliq sub'ekti	Subject of tax	Субъект налоги	– soliq munosabatlarida qatnashuvchi soliq to'lovchilardir. Ular yuridik va jismoniy shaxslarga bo'linadi. Soliq munosabatlarida soliq to'lovchilardan tashqari soliq undiruvchi davlat ham qatnashadi.
Soliq yuki	Tax weight	Груз налога	– soliq to'lovchining muayyan davrda byudjetga to'langan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'indisini ifodalaydi
Soliqqa tortish birligi	Measure of taxation	Единица налогообложения	– bu yerda obyektning o'lchov birligi. Bu daromad solig'ida so'm, yer solig'ida kv. metr, suv solig'ida kub. metr va boshqalar.
Soliqlarni unifikatsiya qilish	Unification of taxes	Унификация налогов	– soliq mexanizmini soddalashtirish maqsadida iqtisodiy mohiyati, soliqqa tortish obyekti o'xshash bo'lgan soliq turlarini birxillashtirish
Foyda	Profit	Прибыль	- sotilgan mahsuloning qiymati bilan unga sarflangan tannarx xarajatlari ayirmasi hisoblanib qo'shimcha qiymatning pul shaklidagi ifodasini o'zida namoyon qiladi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

ASOSIY ADABIYOTLAR:

1. Almardonov M. Yiridik shaxslarni soliqqa tortish. –T.: “Cho’lpon nomidagi NMIU”, 2013. -296 b.
2. Vahobov A., Jo’rayev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. – T: “IQTISOD-MOLIYA”, 2019. - 408 b.
3. Jo’rayev A., Usmanova M. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish. O’quv qo’llanma. – T.: “Sano-standart” nashriyoti, 2015. – 232 b.
4. Jo’rayev A.S., Safarov G’.A, Meliyev O.R. Soliq nazariyasi. O’quv qo’llanma. –T.: “Iqtisod-moliya”, 2019. - 325 b.
5. Karimov A., Kurbanbayev J., Jumanazarov S., Xalilov SH. Moliyaviy hisob va hisobot. O’quv qo’llanma. –T.: Iqtisod-moliya, 2018. - 400 b.
6. Kuljonov O., Ortiqov X., YUgay L., Tuxsanov X., M.Xayitboev Moliyaviy hisob. O’quv qo’llanma. –T.: Iqtisod-moliya, 2018. –246 b.
7. Misirov K.M. Bilvosita soliqlarning moliyaviy hisobi va auditini takomillashtirish . Monografiya. –T.: “IQTISOD-MOLIYA” 2017. –141b.
8. Norbekov D., Misirov K., Tashmanov G’. Moliyaviy va boshqaruv hisobi. O’quv qo’llanma. –T.: Iqtisod-moliya, 2018. –194 b.
9. S.M.Sultanova, M.M. Yuldasheva, S. N. Qurbanov. Soliqlar va soliqqa tortish. O`quv qo`llanma.- T.: TTYVI, 2016y.
10. Pardayev A., Pardayev B. “Boshqaruv hisobi” T.: G’.G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2014 yil 251 b.
11. Xasanov B., G’aniev Z., Muxammedova D. Boshqaruv hisobi. O’quv qo’llanma. –T.: Iqtisod-moliya, 2018. –279 b.
12. Isayev F.I. Soliq tahlili metodikasini takomillashtirish. Monografiya / / T.: «TTESI». 2019 yil. 146 bet.
13. Qurbonov Z.N. Soliqlar va boshqa majburiy to’lovlar hisobi. / O’quv qo’llanma. -T.: “Fan va texnologiyalar”, 2010. – 172 b.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –“O'zbekiston” NMIU, 2015y.
2. O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi. –T.: “Adolat”, 30.12.2019y.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947-sonli Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 26 dekabrdagi “O'zbekiston Respublikasining 2019 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budgeti parametrlari hamda 2020-2021 yillarga budget mo'ljallari to'g'risida”gi PQ-4086-son Qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 iyuldag'i “Soliq ma'muriyat chiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lov larning yig'iluvchanligini oshirish chora - tadbirlari to'g'risida”gi PF-5116-son Farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 iyundagi “O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiysi to'g'risida”gi PF-5468-sonli Farmoni.
7. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i PF-4947-sonli Farmoni.
8. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston” NMIU, 2017. - 488 b.
9. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: “O'zbekiston” NMIU, 2017. - 104 b.
10. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: “O'zbekiston” NMIU, 2017. - 56 b.

11. Mirziyoyev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: “O’zbekiston” NMIU, 2017.-48 b.

12. Karimov A., Muqumov Z, Tulaev M., Kurbanbaev J., Raxmonov SH. Buxgalteriya hisobining axborot tizimlari. O’quv qo’llanma. –T.: Iqtisod-moliya, 2018. –194 b.

13. Гончаренко Л.И. Налогообложение организаций. Учебник. Москва, КНОРУС. 2018, 385-стр.

14. Романов А.Н., Колчин С.П. Налоги и налогообложение. Учебное пособие. Москва, Инфра-М. 2018, 385-стр.

15. Isroilov B., Isroilov J. YUridik shaxslar foydasini soliqqa tortish, uning hisobi va tahlil qilish yo’llari. O’quv qo’llanma. –T.: “Fan va texnologiyalar, 2010. -274 b.

16. Темур тузуклари. –Т; F.Гулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1996 й. 122-123 бетлар

17. Malikov T.S., Jalilov P. Т. Byudjet-soliq siyosati.-T; “Akadem nashr”, 2011y. 408 bet

Internet saytlari

1. www.gov.uz (O’zbekiston Respublikasi hukumat portalı)
2. www.mf.uz (O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi)
3. www.ziyonet.uz (Axborot ta’lim tarmog’i)
4. www.lex.uz (O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi)
5. www.stat.uz (O’zbekiston Respublikasi Statistika Qo’mitasi)
6. www.soliq.uz(O’zbekiston Respublikasi Soliq Qo’mitasi)

ILOVALAR

Soliq va boshqa majburiy to'lovlarning 2019-2020 yillardagi asosiy stavkalari to'g'risida

T A Q Q O S L A M A J A D V A L

№	Soliq va boshqa majburiy to'lovlar turi	2019 yil (amaldagi)	2020 yil (Konsepsiy a bo'yicha)	Farqi
YURIDIK SHAXSLAR BO'YICHA				
1.	Foyda solig'i	asosiy stavka 12 foiz	asosiy stavka 15 foiz	+ 3 punkt
	Tijorat banklari	20 foiz	20 foiz	<i>o'zgarmagan</i>
	Yuridik shaxslar: segment (klinker) ishlab chiqarishni amalga oshiruvchilar; polietilen granulalar ishlab chiqarishni amalga oshiruvchilar; asosiy faoliyat turi mobil aloqa xizmatlari ko'rsatishdan iborat bo'lganlar	20 foiz	20 foiz	<i>o'zgarmagan</i>
	qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilar	-	0 foiz	<i>kiritilmoqda</i>
	1 mldr.so'mdan oshgan yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun soliqqa tortiladigan baza	-	yalpi daromaddan 25 foiz	
2.	Qo'shilgan qiymat solig'i	15 foiz	15 foiz	<i>o'zgarmagan</i>
A	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi yuridik shaxslar, (B-E) bandlarda nazarda tutilganlar bundan mustasno	7 foiz	-	<i>bekor qilinmoqda</i>
B	Qurilish tashkilotlari	8 foiz	-	
V	Chakana, ulgurji, shuningdek ulgurji-chakana savdoni amalga oshiradigan savdo korxonalar	6 foiz	-	
G	Umumiy ovqatlanish, mehmonxona	10 foiz	-	

№	Soliq va boshqa majburiy to'lovlar turi	2019 yil (amaldagi)	2020 yil (Konsepsiy a bo'yicha)	Farqi
	xo'jaligi korxonalari			
D	Kasbiy xizmatlar ko'rsatadigan yuridik shaxslar (auditorlik xizmatlari, soliq maslahati xizmatlari, konsalting xizmatlari, brokerlik xizmatlari va boshqalar)	15 foiz	-	
E	Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini, realizatsiya qiladigan yuridik shaxslar o'zining ishlab chiqarish mahsulotlari bundan mustasno	4 foiz	-	
3.	Yagona soliq to'lovi (bazaviy stavka)	4 foiz	4 foiz	<i>o'zgarmagan</i>
	3.1. Bojxona rasmiylashtiruvi bo'yicha xizmatlar ko'rsatadigan yuridik shaxslar (bojxona brokerlari)	5 foiz	5 foiz	<i>o'zgarmagan</i>
	3.2. Lombardlar	25 foiz	25 foiz	<i>o'zgarmagan</i>
	3.3. Konsert-tomosha ko'rsatish faoliyati bilan shug'ullanish uchun litsenziyaga ega bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarni (shu jumladan, norezidentlarni) jalb etish yo'li bilan ommaviy tomosha tadbirlarini tashkil etishdan daromadlar oladigan yuridik shaxslar hamda lombardlar	5 foiz	5 foiz	<i>o'zgarmagan</i>
	3.4. Brokerlik idoralari (6-bandda ko'rsatilganlaridan tashqari), shuningdek vositachilik, topshiriq shartnomasi va vositachilik xizmatlari ko'rsatishga doir boshqa shartnomalar bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatadigan yuridik shaxslar	25 foiz	25 foiz	<i>o'zgarmagan</i>
	3.5. Qimmatli qog'ozlar bozorida brokerlik faoliyatini amalga	13 foiz	13 foiz	<i>o'zgarmagan</i>

№	Soliq va boshqa majburiy to'lovlar turi	2019 yil (amaldagi)	2020 yil (Konsepsiy a bo'yicha)	Farqi
	oshiradigan yuridik shaxslar			
	3.6. Asosiy faoliyat turi mol-mulkni ijaraga berish bo'lgan yuridik shaxslar	30 foiz	8 foiz	-22 punkt
	3.7. Umumiy ovqatlanish korxonalari:			
	3.7.1. aholisi soni 100 ming va undan ko'p kishidan iborat shaharlarda	8 foiz	8 foiz	<i>o'zgarmagan</i>
	3.7.2. boshqa aholi punktlarida	6 foiz	6 foiz	<i>o'zgarmagan</i>
	3.7.3. borish qiyin bo'lgan va tog'li tumanlarda	4 foiz	4 foiz	<i>o'zgarmagan</i>
	3.8. Chakana savdo korxonalari:			
	3.8.1. aholisi soni 100 ming va undan ko'p kishidan iborat shaharlardagi	4 foiz	4 foiz	<i>o'zgarmagan</i>
	3.8.2. boshqa aholi punktlaridagi chakana savdo korxonalari	2 foiz	2 foiz	<i>o'zgarmagan</i>
	3.8.3. borish qiyin bo'lgan va tog'li tumanlardagi chakana savdo korxonalari	1 foiz	1 foiz	<i>o'zgarmagan</i>
	3.9. Alkogolli mahsulot, tamaki mahsuloti, benzin, dizel yoqilg'isi va suyultirilgan gazni realizatsiyasi bo'yicha tovar oborotidan (faoliyatni yuritish joyidan qat'i nazar)	4 foiz	4 foiz	<i>o'zgarmagan</i>
	3.10. Ulgurji hamda ulgurji-chakana savdo bilan shug'ullanuvchi korxonalar (bundan ulgurji va chakana dorixona tashkilotlari mustasno)	4 foiz	4 foiz	<i>o'zgarmagan</i>
	3.11. Ulgurji va chakana dorixona tashkilotlari:			
	3.11.1. aholisi soni 100 ming va	3 foiz	3 foiz	<i>o'zgarmagan</i>

№	Soliq va boshqa majburiy to'lovlar turi	2019 yil (amaldagi)	2020 yil (Konsepsiy a bo'yicha)	Farqi
	undan ko'p kishidan iborat shaharlarda			
	3.11.2. boshqa aholi punktlarida	2 foiz	2 foiz	<i>o'zgarmagan</i>
	3.11.3. borish qiyin bo'lgan va tog'li tumanlarda	1 foiz	1 foiz	<i>o'zgarmagan</i>
4.	Aksiz solig'i			
	etil spirti (1 dal uchun)	10 800 so'm	<i>Indeksatsiyalanmoqda:</i> <i>I) alkogol maxsulotlari ikki bosqichda:</i> <i>I bosqich - 2020 yil 1 apreldan o'rtacha 8 foizga, har bir dal uchun:</i>	
	tabiiy ravishda achitilgan natural vinolar (1 dal uchun)	7 700 so'm	<i>- etil spirti – 11 700 so'm;</i> <i>- tabiiy vino – 8 300 so'm;</i> <i>- boshqa vinolar – 15 700 so'm;</i> <i>- konyak – 109 100 so'm;</i> <i>- aroq va boshqa alkogollli mahsulotlar – 107 800 so'm;</i>	
	boshqa vinolar (1 dal uchun)	14 500 so'm	<i>II bosqich – 2020 yil 1 oktyabrdan 7 foizga, vinodan tashqari, xar bir dal uchun:</i>	
	konyak (1 dal tayyor mahsulot uchun)	102 000 so'm	<i>- etil spirti – 12 500 so'm;</i> <i>- tabiiy vino – 8 300 so'm;</i> <i>- boshqa vinolar – 16 800 so'm;</i> <i>- konyak – 116 400 so'm;</i> <i>- aroq va boshqa alkogollli mahsulotlar – 116 400 so'm;</i>	
	aroq va boshqa alkogolli mahsulotlar	98 000 so'm	<i>7 foizga, vinodan tashqari, xar bir dal uchun:</i>	
	pivo (1 dal tayyor mahsulot uchun)	10 600 so'm	2020 yil 1 apreldan	+1 100 so'm

№	Soliq va boshqa majburiy to'lovlar turi	2019 yil (amaldagi)	2020 yil (Konsepsiy a bo'yicha)	Farqi
			pivo – 11 700 so'm, 1 dal (+10 %);	
	filtrli va filtrsiz sigaretalar, papiroslar (1 ming dona uchun)	141 500 so'm	I bosqich – 2020 yil 1 apreldan 152 800 so'm (8 %); II bosqich – 2020 yil 1 oktyabrdan 163 500 so'm (7 %);	
	Mobil aloqa xizmati	20 %	20 %	<i>o'zgarmagan</i>
	Oxirgi iste'molchiga sotiladigan: <u>1 litrga</u>			
	benzin yoqilg'isi	285 so'm	350 so'm	+65 so'm
	dizel yoqilg'isi	285 so'm	350 so'm	+65 so'm
	suyultirilgan gaz	285 so'm	350 so'm	+65 so'm
	siqilgan gaz	435 so'm	500 so'm	+65 so'm
5.	Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqlar va maxsus to'lovlar			
	Oltin	25 %	25 %	<i>o'zgarmagan</i>
	Kumush	25 %	25 %	<i>o'zgarmagan</i>
	Tozalangan mis	15 %	15 %	<i>o'zgarmagan</i>
	Sement xom-ashyosi	10 %, biroq tonnasiga kamida 45 000 so'm	1,15 barava rga oshadi	
	Tosh tuzi	3,5 %, biroq tonnasiga	1,15 barav arga oshadi	

№	Soliq va boshqa majburiy to'lovlar turi	2019 yil (amaldagi)	2020 yil (Konsepsiy a bo'yicha)	Farqi
		kamida 5 000 so'm		
	Ohaktoshlar, dolomitlar	5 %, biroq tonnasiga kamida 5 000 so'm	1,15 barav arga oshadi	
	Marmar ushog'i	5 %, biroq tonnasiga kamida 10 000 so'm	1,15 barav arga oshadi	
	G'isht-cherepitsa xom ashysosi	5 %, biroq tonnasiga kamida 4 000 so'm	1,15 barav arga oshadi	
	Gips va angidrit	5 %, biroq tonnasiga kamida 4 000 so'm	5 %, biroq tonnasiga kamida 4 600 so'm	
	Arralanadigan, xarsangtosh va shag'al uchun toshlar	5 %, biroq tonnasiga kamida 4 000 so'm	5 %, biroq tonnasiga kamida 4 600 so'm	
	Qurilish qumlari	5 %, biroq tonnasiga kamida 5 000 so'm	5 %, biroq tonnasiga kamida 5 000 so'm	<i>o'zgarmaga n</i>
	Neftli slanets	-	4 foiz	<i>kiritilmoqda</i>
	Reniy	-	10 foiz	<i>kiritilmoqda</i>
	Qimatbaho tosh xom ashysosi	-	24 foiz	<i>kiritilmoqda</i>
	titan-magnetit rudalar	-	4 foiz	<i>kiritilmoqda</i>
	manganets rudalar	-	4 foiz	<i>kiritilmoqda</i>
	yod	-	4,8 foiz	<i>kiritilmoqda</i>
	Qishloq xo'jalik xom ashysosi	-	3,5 foiz	<i>kiritilmoqda</i>

№	Soliq va boshqa majburiy to'lovlar turi	2019 yil (amaldagi)	2020 yil (Konsepsiy a bo'yicha)	Farqi
	Serpentinit (o'tga chidamli xom ashyo)	-	5 foiz	<i>kiritilmoqda</i>
	Chinni xom ashyosi	-	5 foiz	<i>kiritilmoqda</i>
	Temir	4 foiz	5 foiz	+1 punkt
6.	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq		1 kub. metr uchun	
A	Sanoat korxonalari	er usti 360 so'm er osti 430 so'm	1,15 barav arga oshadi	
B	Alkogolsiz ichimliklarni ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan suv hajmi bo'yicha			
	- alkogolsiz ichimliklarni ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan suv hajmi bo'yicha	er usti 19 040 so'm er osti 19 040 so'm	1,15 barav arga oshadi	
	- boshqa maqsadlarda	er usti 120 so'm er osti 150 so'm	1,15 barav arga oshadi	
7.	Yuridik shaxslar mol-mulk solig'i	2 foiz	2 foiz	<i>o'zgarmagan</i>
8.	Yer solig'i	2020 yilda 1,15 baravarga oshadi		
	qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar uchun		0,95 foiz (erning normativ qiymatidan)	
9.	Yagona yer solig'i (yerning normativ qiymatiga nisbatan)	0,95 foiz	-	<i>bekor qilinmoqda</i>
10.	Yagona ijtimoiy to'lov			
A	Byudjet tashkilotlari	25 foiz	25 foiz	<i>o'zgarmagan</i>
A1	Davlat korxonalari, ustav fondida	25 foiz	12 foiz	-13 punkt

№	Soliq va boshqa majburiy to'lovlar turi	2019 yil (amaldagi)	2020 yil (Konsepsiy a bo'yicha)	Farqi
	(ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan yuridik shaxslar; qaysi yuridik shaxs ustav fondining (ustav kapitalining) 50 foizi va undan ko'proq qismi davlat ulushi 50 foiz va undan ko'proq bo'lgan yuridik shaxsga tegishli bo'lsa, o'sha yuridik shaxslar hamda ularning tarkibiy tuzilmalari			
B	boshqa to'lovchilar	12 foiz	12 foiz	<i>o'zgarmagan</i>
JISMONIY SHAXSLAR BO'YICHA				
11.	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i			
	daromad miqdoridan qat'iy nazar	12 foiz	12 foiz	<i>o'zgarmagan</i>
12.	O'zbekiston Respublikasi rezidentlariga dividendlar va foizlar tarzida to'lanadigan daromadlarga soliq	5 foiz	5 foiz	<i>o'zgarmagan</i>
13.	Shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga o'tkaziladigan majburiy badal	0,1 foiz	0,1 foiz	<i>o'zgarmagan</i>
14.	Jismoniy shaxslar mol-mulk solig'i **	Kadastr qiymatiga nisbatan *		
	Turar joylar, kvartiralar, dala hovli qurilmalari (bundan umumiy maydoni 200 kv.m dan oshiq bo'lganlari mustasno), boshqa imoratlar, xonalar va inshootlar	0,2 foiz	0,2 foiz	<i>o'zgarmagan</i>
	shaharlarda joylashgan umumiy maydoni quyidagicha bo'lgan turar joylar va kvartiralar:			
	200 kv.m. dan ortiq va 500 kv.m gacha bo'lgan	0,25 foiz	0,25 foiz	<i>o'zgarmagan</i>
	500 kv.m. dan ortiq bo'lgan	0,35 foiz	0,35 foiz	<i>o'zgarmagan</i>
	boshqa aholi punktlarida joylashgan turar joylar, kvartiralar va dala hovli	0,25 foiz	0,25 foiz	<i>o'zgarmagan</i>

№	Soliq va boshqa majburiy to'lovlar turi	2019 yil (amaldagi)	2020 yil (Konsepsiy a bo'yicha)	Farqi
	qurilmalari, 200 kv.m. dan ortiq bo'lgan			
mol-mulk kadastr qiymati bo'limganda mol-mulkning shartli qiymati				
	Toshkent va Nukus shaharlarida hamda viloyat markazlarida boshqa shaharlar va qishloq joylarda	210 000,0 ming so'm 90 000,0 ming so'm	210 000,0 ming so'm 90 000,0 ming so'm	<i>o'zgarmagan</i>
15.	Jismoniy shaxslar yer solig'i	2020 yilda 1,15 baravarga oshadi		

